

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**G‘ULOMOVA NARGIZA SA’DULLAYEVNA**

**ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSI VA UNING  
SEMANTIK TEGLARI BAZASINI YARATISH  
(“BADOYE’ UL-VASAT” DEVONI ASOSIDA)**

**10.00.11. – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKORI (PhD)  
ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** f.f.d. (DSc), dots. Abjalova Manzura Abdurashetovna

**Toshkent – 2022**

**MUNDARIJA**

<b>KIRISH .....</b>	4
<b>I BOB. Mualliflik korpuslari – Milliy til korpusining muhim tarkibiy qismi</b>	
1.1. Mualliflik korpuslarining yaratilish tarixiga nazar .....	12
1.2. Mualliflik korpuslarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va ulardan foydalananish omillari.....	32
1.3. Mualliflik korpuslarida reprezentatsiya masalasi .....	53
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar .....	61
<b>II BOB. Alisher Navoiy mualliflik korpusini loyihalashning metodologik asosi</b>	
2.1. Mualliflik korpusi uchun muallif shaxsi va uning uslubi tadqiqi masalasi .....	64
2.2. Alisher Navoiy mualliflik korpusini loyihalashning konseptual asosi .....	73
2.3. Mualliflik korpusi uchun matnlarni grammatik teglash xususiyatlari .....	87
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar .....	103
<b>III BOB. Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoni dagi leksik birliklarni semantik teglash asoslari</b>	
3.1. Muallif asarlarini semantik teglash ahamiyati .....	105
3.2. Navoiy g‘azallarini semantik teglash texnologiyasi .....	117
3.3. Alisher Navoiy mualliflik korpusida iboralar, maqollar va she’riy san’atlar masalasi .....	130
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar .....	155
<b>XULOSA .....</b>	157
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	159

<b>GLOSSARIY</b>	.....	172
<b>ILOVALAR</b>	.....	174

## **QISQARTMALAR**

MK – mualliflik korpusi

O‘zKL – o‘zbek kompyuter lingvistikasi

KorpLing – korpus lingvistikasi

ANMK – Alisher Navoiy mualliflik korpusi

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon tilshunosligida kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish ehtiyojlari ortib borishi bilan korpus lingvistikasi muammolarini o‘rganish jarayoni jadallik bilan rivojlanmoqda. Takomillashib borayotgan kompyuter lingvistikasi sohasida matnlarni avtomatik tarjima qilish sifatini oshirish, tilni lingvistik modellashtirish, har bir tilga oid so‘zlarni lemmalash nazariyasi, axborot-qidiruv tizimi, avtomatik tarjima, tezaurus, elektron lug‘atlardan foydalanish imkoniyati kengaydi. Sun’iy intellektning matnni avtomatik tarzda qayta ishlash sohalarining rivojlanishi tilni tadqiq etish, lingvodidaktika, leksikografiya, tarjimonlik borasidagi tadqiqotlarda kompyuter lingvistikasi yutuqlaridan keng foydalanishga ehtiyoj paydo qildi. Buning natijasida korpus lingvistikasi sohasining ilmiy-nazariy asoslari yaratildi va amaliyotga joriy etildi, til korpuslarining maqsadiga ko‘ra farq qiluvchi ko‘plab turlari paydo bo‘ldi. Tilning ko‘p asrlik milliy merosidan foydalanish imkonini oshirish maqsadida ularni elektronlashtirish jahon tilshunosligida dolzarb masalaga aylandi.

Dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi korpusshunoslik sohasining rivojlanishi va takomillashgan til korpuslarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Natijada XXI asrda jadallik bilan rivojlanayotgan kompyuter lingvistikasi sohasida tilga ishlov berish, so‘rov-javob tizimi sifatini yaxshilash, lingvistik tadqiqot, lingvodidaktika (til ta’limi), leksikografiyada til korpuslaridan foydalanish samaradorligiga erishilmoxda. Korpus lingvistikasida jahon e’tirof etgan allomalarning mualliflik korpusi (keyingi o‘rinlarda – MK) birliklarini tanlash, ularning lingvistik va ekstralolingvistik ma’lumotlarini shakllantirish, lisoniy birliklarni semantik teglash, MK uchun lingvistik ta’milot yaratish yechimini kutayotgan muhim masalalardan bo‘lib turibdi.

So‘nggi yillarda o‘zbek kompyuter lingvistikasida nazariy izlanishlardan avtomatik tarjima, leksik birliklarni modellashtirish, korpus lingvistikasi sohasiga doir masalalar tadqiqi, lingvistik ta’milotlarni yaratish tamoyillarini nazariy jihatdan asoslash masalalari o‘rganildi. Tadqiqotlar samarasi sifatida tabiiy tilni qayta ishlash, o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir va tahlil qilish dasturi, nutq sintezatori, o‘zbek tilining ta’limiy korpusi, bir necha turdagи zamonaviy elektron lug‘atlar yaratildi. Bugungi kunda o‘zbek tili korpuslari uchun morfoanalizator, parser, semantik analizator imkoniyatlarini yaratish bilan birga o‘zbek tili Milliy korpusining xususiy / tarkibiy korpusi (subkorpusi) MKni yaratish korpusshunoslар oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Darvoqe, “davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va

kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash”<sup>1</sup> ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Milliy merosimizni zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo'llanishiga erishish, buning uchun ajdodlarimiz asarlarini yoshlar o'rtasida targ'ib etish, mumtoz adabiyot namunalarini o'qishli va tushunarli tarzda taqdim etuvchi filologik korpuslarni yaratish, jumladan, Alisher Navoiy MKni yaratish va buning uchun Navoiy ijodiy merosini semantik teglash muhim vazifadir. Shu bois ushbu tadqiqotda Alisher Navoiy MK va mazkur korpus uchun Navoiy qalamiga mansub ‘Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning semantik teglangan bazasini yaratish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiysi”da belgilangan davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minalash ustuvor yo‘nalishida belgilangan vazifalar, 2021-yil 17-fevraldagli PQ-4996-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 984-son qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida korpuslingvistikasi rivojlangan soha bo‘lib, bir nechta maqsadli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Braun korpusi tuzuvchilari N.Frensis va G.Kucheralarning korpus tuzish prinsiplari haqidagi fikrlari, rus tilshunosligida V.P.Zaxarov, A.B.Kutuzov, Ye.V.Nedoshivina, V.V.Rikov, V.Plungyanlarning nazariy va

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомillashtiриш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6048-сон Фармони <https://lex.uz/ru/docs/5058351>

amaliy ishlarini korpus tuzish borasidagi muhim tadqiqotlar<sup>2</sup> sifatida baholash mumkin. Bu tadqiqotchilar korpus, uning turlari, o‘ziga xos xususiyatlarii, korpus tuzish tamoyillari, korpusning ijtimoiy ahamiyatini o‘rganishgan bo‘lsa<sup>3</sup>, V.V.Mamontova, D.V.Sichinovalar ta’limiy korpuslarni tadqiq etgan<sup>4</sup>. Turkiy tillar korpusshunosligida ham til korpuslarini yaratish tamoyillari atroflicha o‘rganilgan<sup>5</sup>.

O‘zbek kompyuter lingvistikasi bugungi kunda o‘z taraqqiyot yo‘liga kirgan va jadal ravishda rivojlanib borayotgan soha hisoblanadi. Uning zamirida yuzaga kelgan o‘zbek korpus lingvistikasi ham bir qadar ildamladi va nazariy tadqiqot hamda amaliy natijalariga ega mustaqil sohaga aylandi.

O‘zbek korpusshunosligida yirik matnlar ustida ishslash, maxsus yaratilgan elektron matnlar majmuining ko‘plab tadqiqotlar va ta’limiy jarayonda asosiy manba bo‘lishi borasidagi fikrlar dastlab A.Po‘latov<sup>6</sup>, A.Rahimov<sup>7</sup>lar tomonidan ilgari surilgan bo‘lsa, keyinchalik Sh.Xamroyeva<sup>8</sup>, A.Eshmo‘minov<sup>9</sup>, D.Axmedova<sup>10</sup>, O’.Xoliyorov<sup>11</sup>, N.Abdurahmonova<sup>12</sup>, O.Abdullayeva<sup>13</sup>,

---

<sup>2</sup>Френсис Н., Кучера Г. Вычислительный анализ современного американского варианта английского языка.

– М., 1967; Синклер Д. Предисловие к книге “Как использовать корпуса в преподавании иностранного языка”/ Д. Синклер [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.ruscorpora.ru/corpora-infro.html>.

<sup>3</sup>Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. – (Электрон ресурс): Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс) // lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporaLingva.pdf; Недошивина Е.В. Программы для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург. –2006. 26 с.; Рыков В.В. Курс лекций по корпусной лингвистике. URL: <http://rykov-cl.narod.ru/c.html>; Плунгян В. Зачем мы делаем Национальный корпус русского языка? “Отечественные записки” 2005, №2. [http://magazines.russ.ru/oz/2005/2/2005\\_2\\_20-pr.html](http://magazines.russ.ru/oz/2005/2/2005_2_20-pr.html)

<sup>4</sup> Мамонтова В.В. Корпус параллельных текстов и база данных для исследования переводческих соответствий: проблемы и процедуры формирования. – Альманах современной науки и образования Тамбов: Грамота, 2008. № 8 (15): в 2-хч. Ч.II. С.117-118. – Адрес статьи: [www.gramota.net/materials/1/2008/8-2/50.html](http://www.gramota.net/materials/1/2008/8-2/50.html); Сичинава Д.В. Европейский перфект сквозь призму параллельного корпуса. – Acta Linguistica Petropolitana. Труды института лингвистических исследований. – 2016, № 2. – Т.12. – С. 85-114.

<sup>5</sup> Сулайманов Д.Ш., Гильмуллин Р.А., Гатауллин Р.Р.Морфологический анализатор татарского языка на основе двухуровневой модели морфологии. Пятая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2017». – Труды конференции. В 2-х томах. Т 2. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 2017. – 327 с.; Сулайманов Д.Ш., Гатиатуллин А.Р. Модель татарской аффиксальной морфемы и ее реализация // Серия: Интеллект. Язык. Компьютер. – Вып.4. – Казань: Фэн, – 1996. – С. 113-127.

<sup>6</sup> Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – 520 б.

<sup>7</sup>Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr. 2011. – 160 b.

<sup>8</sup> Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дис. автореф. – Қарши, 2018. – 53 б.

<sup>9</sup> Эшмўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. – Қарши, 2019. – 140 б.

<sup>10</sup> Ахмедова Д. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. – Бухоро, 2020. – 156 б.

<sup>11</sup> Холиёров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. автореф. – Термиз, 2021. – 53 б.

<sup>12</sup>Абдурахмонова Н. Электрон корпусларнинг компьютер моделлари: Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 74 б.

<sup>13</sup> Абдуллаева О. Ўзбек тилининг интернет ахборот матнлари корпусини шакллантиришнинг назарий ва амалий асослари. Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 54 б.

A.Raxmanova<sup>14</sup>, M.Abjalova<sup>15</sup>, D.Elova<sup>16</sup> tomonidan til korpuslari hamda uning turlari tadqiq qilingan. Natijada mualliflik korpuslarini tuzishning lingvistik asoslari, tabiiy tilni qayta ishlash<sup>17</sup>, sinonim so‘zlarni semantik teglash, atov birliklarini leksik-semantik teglash, o‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish<sup>18</sup>, elektron korpuslar modellari, korpus tuzishning kompyuter usullari tadqiq etildi. Quvonarli jihat, nazariy tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy jamoasi tomonidan “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi” yaratildi<sup>19</sup> va O‘zbek tili Milliy korpusiga tamal toshi qo‘yildi<sup>20</sup>. Bugungi kunda tarkibidagi matnlar va leksikografik bazasi boyitib borilmoqda<sup>21</sup>. Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan ilmiy izlanishlar atroflicha o‘rganildi, zarur o‘rinlarda ularga munosabat bildirildi va ulardan tadqiqotda foydalanildi.

O‘zbek korpus lingvistikasida MKlarini yaratish prinsiplari o‘rganilgan bo‘lsa-da, Alisher Navoiy MKni tuzish va uning ijod mahsulidagi birliklarni semantik teglash maxsus tadqiq manbai bo‘lmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mavjud mualliflik korpuslari asosida Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish texnologiyasini ishlab chiqish va “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarni semantik teglashdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

MKga doir manbalar va mavjud tizimlarni tadqiq etish natijasida uning ta’lim resursi sifatidagi ahamiyatini yoritish;

MKning tadqiqot ishlari va ta’lim jarayonidagi mushtarak tahliliy baza ekanligini dalillash;

---

<sup>14</sup> Raxmanova A. O‘zbek tili Milliy korpusini yaratishda kompyuter usullari. Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – Farg‘ona, 2022. – 52 b.

<sup>15</sup> Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn] : uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 103 b.

<sup>16</sup> Элова Д. Ўзбек тили корпуси бирликларининг услубий тегларини яратиш тамоийлари ва лингвистик таъминот. Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. афтореф. – Тошкент, 2022. – 65 б.

<sup>17</sup> Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari [Matn]: monografiya. – Toshkent, 2020. – 176 b.

<sup>18</sup> Raupova L., Elov B., Abjalova M., Alayev R. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi va uning imkoniyatlari. // O‘zbekistonda til va madaniyat, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 4/2021. – B. 60-75.; Абжалова М. Синонимайзер (синонимизатор) в образовательной корпuse узбекского языка. // TurkLang – 2021: Turkiy tillarni kompyuterda qayta ishlash IX xalqaro konferensiysi.

<sup>19</sup><http://uzschoolcorpara.uz/#home>

<sup>20</sup> Abjalova M. O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiysi [Matn]: monografiya. – Toshkent, 2021. – B. 12.

<sup>21</sup>AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tili ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasi.

ta’limiy ahamiyatini oshirish va mumtoz adabiyot materiallari asosida o‘quvchilar nutqiy kompetensiyasini oshirish maqsadida “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarni semantik teglash;

g‘azallarda bugungi davr tilida tushunilishi qiyin bo‘lgan leksik birliklar ma’nolari izohiga doir ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

foydalanuvchilarning ma’naviy va mental tafakkurini kengaytirish, tarixga oid bilimlarini oshirish g‘azallar va tazod, talmeh, irsol masal hamda tashbih she’riy san’atlari mavjud baytlarni leksik-semantik tahlil qilish;

Alisher Navoiy MK uchun material to‘plash va mazkur korpus interfeyrsini yaratish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Alisher Navoiyning o‘n jildlik “To‘la asarlar to‘plami” 3-jildiga kirgan “Badoye’ ul-vasat” devoni va ushbu devonning “Tamaddun” nashriyoti tomonidan 2011-yilda chop etilgan nashridagi 650 g‘azal hamda ulardagi iboralar, maqollar, talmeh, tanosib, tashbih, tazod va irsol masal she’riy san’atlariga oid birliklar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Alisher Navoiy MK va mualliflik korpuslarini yaratishning lingvistik hamda dasturiy asoslari va til korpusini yaratish texnologiyasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, komponent tahlil, qiyoslash va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiy MKni yaratishning struktural texnologiyasi ishlab chiqilib, mualliflik korpuslaridan foydalanishning afzalliklari va uning semantik teglar bazasiga qo‘yilgan leksik talablar aniqlangan;

Mualliflik korpuslarining ta’limiy, ijtimoiy, lingvovidaktik, tarixiy va tarbiyaviy ahamiyati aniqlanib, Shekspir va Dostoyevskiy korpuslari tuzilishi asosida Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi, unda ma’lumotlarni taqdim etishning konseptuallashtirish tamoyillari nazariy jihatdan asoslangan;

“Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallaridagi she’riy san’atlar (talmeh, tashbeh, tanosib, istiora, tazod, irsol masal), xalq maqollar, turg‘un birikmalarini semantik teglash xususiyatlari aniqlangan;

Alisher Navoiy korpusida “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning lingvistik va ekstralinguistik ma’lumotlarini taqdim etishning spesifik prinsiplari asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”<sup>22</sup> asosida “Badoye’ ul-vasat” devonida mavjud jami 650 ta g‘azal tarkibidagi 5001 bayt (10002 misra)da

---

<sup>22</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 4 жилдли. – Тошкент: Фан, 1983-1985.

uchragan izohtalab so‘zlar semantik teglangan hamda qulay qidiruv tizimiga bo‘ysundirilgan;

Navoiy davri so‘zligining semantik teglangan ma’lumotlar bazasi uchun mualliflik guvohnomasi olingan<sup>23</sup>;

maktab ta’limida Navoiy g‘azallarini tizimli ravishda o‘rgatish maqsadida semantik teglar bazasida g‘azallarning g‘oya va mazmuniga ko‘ra yosh auditoriyasi belgilab berilgan;

g‘azallarda so‘z jozibadorligini ta’minlovchi shakldosh so‘zlar semantik ma’nolari ochib berilgan;

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda qatnashgan she’riy san’atlar (talmeh, tashbih, istiora, tazod, irsolı masal), xalq maqollari, turg‘un birikmalar ilmiy-tahliliy ma’lumotlar bazasi yaratilgan;

qidiruv tizimiga ega Alisher Navoiy MK va “Badoye’ ul-vasat” devonidagi semantik teglangan g‘azallar bazasi asosida korpus menejeri yaratilgan<sup>24</sup>.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** MKni yaratish muammosining aniq qo‘yilganligi, ishning o‘rganish obyekti aniq belgilab olinganligi, o‘rganilgan materialning o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berishi, ularning asosli ekanligi, ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasiga nazariy jihatdan mos kelishi, metodologik mukammalligi, MKni tuzish tamoyillarini tuzishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mualliflik korpuslarini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda, kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida tadqiqotlar yaratishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Kompyuter lingvistikasi” ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini olib borishda, oliv o‘quv yurtlarida korpus lingvistikasining fan sifatida o‘qitilish jarayonida dastur, rejalar tuzish, mavzularni bayon etishda, “Kompyuter lingvistikasi” va “Korpus lingvistikasi” kabi fanlardan ma’ruzalar o‘qish, darslik va qo‘llanmalar yaratish, elektron lug‘atlar tuzish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Alisher Navoiy MKni yaratish bo‘yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda qatnashgan she’riy san’atlar (talmeh, tashbeh, tanosib, istiora, tazod, irsolı masal), xalq maqollari va turg‘un birikmalarning ilmiy tahlilidan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016-yillarda bajarilgan F1-FA-0-43429, FA-F1, G002 raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi

---

<sup>23</sup>Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning semantik bazasi. Guvohnoma № BGU 00583. – Toshkent, 2022.

<sup>24</sup>Alisher Navoiy mualliflik korpusi. Guvohnoma № DGU 18544. – Toshkent, 2022.

Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 17-yanvardagi 17.01/116сонли ма’лумотномаси). Natijada ta’lim jarayonida frazeologik birliklarining o‘zgarish xususiyatlari va ma’no yangilanishlari, ularning turkiy xalqlarning so‘z imkoniyatlarini ochib berishi to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlarning kengayishiga erishilgan;

Mualliflik korpuslarining ta’limiy, ijtimoiy, lingvovididaktik va tarixiy ahamiyati yoritilgan ma’lumotlardan hamda adabiyotshunoslik tarixida Alisher Navoiy ijodining tutgan o‘rni, asarlarining ta’limiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-tarixiy, lingvovididaktik ahamiyati, ibora va maqollarning Navoiy g‘azallarida xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida keng qo‘llanilishi xususiyatlari tadqiqi yuzasidan chiqarilgan ilmiy-nazariy fikrlardan hamda individual-mualliflik leksik birliklarining hosil bo‘lishini aniqlashga doir ilmiy xulosalardan O‘zRFA QQA Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 17-yanvardagi 17.01/116сонли ма’лумотномаси). Natijada ta’lim jarayonida adabiyotshunoslik tarixi va mumtoz adabiyotning ta’limiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-tarixiy, lingvovididaktik ahamiyatini singdirish orqali o‘quvchilarining milliy va umummadaniy, lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha yoritilgan ma’lumotlarning boyishiga xizmat qilgan;

Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoni dagi g‘azallar tahlili asosida MK yaratilishi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy tahlillar xulosalar va taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanalı DUK “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” nomli dasturlari ssenariysida foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 5-apreldagi 04-36-716сонли dalolatnomasi). Natijada ta’lim jarayonida Alisher Navoiyni o‘rganish samaradorligini oshirish masalasi dagi eshittirishlarning sifati va mazmunining boyishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 5 ta xalqaro hamda 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 32 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola shundan, 2 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi

foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, glossariy va ilovalardan tashqari 160 sahifani tashkil etadi.

# I BOB. MUALLIFLIK KORPUSLARI – MILLIY TIL KORPUSINING MUHIM TARKIBIY QISMI

## 1.1 Mualliflik korpuslarining yaratilish tarixiga nazar

Til korpusi (“corpus” – lotincha “tana” degan ma’noni anglatadi) – elektron holda saqlanadigan ma’lum til birliklari majmuasi bo‘lib, tilshunoslar uchun turli muammolarni hal etish manbasi, foydalanuvchilar uchun esa lingvodidaktik va ta’limiy ahamiyatga ega tizim sanaladi. Til korpuslarining obyekti tabiiy tildagi matnlar, predmeti esa til korpuslari hisoblanadi. Korpusda maxsus qidiruv tizimi (korpus menejeri)ning mavjudligi, matnlardagi leksik birliliklarning grammatik va semantik izohlanishi uning boshqa tur filologik tizimlardan farqli jihat, hatto ustunligini namoyon etadi.

Muayyan tilda matnlar to‘plamiga asoslangan elektron shakldagi axborot-ma’lumot tizimi *korpus* hisoblanadi. Til korpusi til birliklaridan tashkil topgan matnlar majmui bo‘lib, unda qidiruv tizimiga ega korpus menejerining mavjud bo‘lishi, matnlarning qayta ishlanganligi, mantlar asosida statistik ma’lumotlarning taqdim etilishi, korpusning metama’lumotlarga egaligi bilan boshqa tur tizimlardan farqlanadi. Til korpusi qidiruv tizimiga ega tizim bo‘lib, ma’lum bir manba (matn, lug‘at, asar) qamrab olinadigan, materiallari turli parametr asosida yaratilgan, hajmi chegaralanmagan elektron ma’lumotlar bazasidir. Lingvistik korpuslarni yaratish, rivojlantirish va qo‘llash kompyuter lingvistikasining eng ilg‘or yo‘nalishlaridan korpus lingvistikasining tadqiqot ishi hisoblanadi. Korpusni yaratishga bo‘lgan amaliy harakatlar XX asrning 60-yillaridan boshlangan bo‘lib, bugungi kunda butun jahonda katta qiziqish uyg‘otayotgan va shiddat bilan jadallahib, rivojlanib borayotgan ham ilmiy, ham amaliy jarayon hisoblanadi. Shu bois korpus lingvistikasi tabiiy tildagi matn korpuslarini yaratish, mavjud korpuslarni tadqiq etish va ularning imkoniyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Korpus noma’lum so‘z va so‘z birikmalarini tez va qulay topish imkonini beradi hamda so‘zning grammatik xususiyatlarini tekshirish va aniqlashga imkoniyat yaratadi. Til birliklarining saqlanishiga qarab

maxsus dasturlar yordamida muayyan so‘z yoki so‘z birikmalari uchun darhol uning qo‘llanishi bo‘yicha misollar massivi, imlo bo‘yicha variantlari, sinonimik qatorlarini aniqlash mumkin. Aynan ushbu imkoniyat Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mutaxassislari jamoasi tomonidan yaratilgan o‘zbek tilining ta’limiy korpusida mavjud bo‘lib<sup>25</sup>, mazkur korpus ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga, foydalanuvchining so‘z boyligi va semantik mushohadasini boyitishga xizmat qiladi.

Korpus lingvistikasi rivojlangan mamlakatlar tilshunosligida chuqur o‘rganilgan soha hisoblanadi. Korpus lingvistikasining paydo bo‘lishidan oldin korpus usullarini qo‘llash va matn korpuslarini yaratish bo‘yicha izlanishlar boshlandi. Ushbu korpuslarni saqlashning elektron shakli, shuningdek, ma’lumotlarni qayta ishlashning avtomatik usullari bo‘lmagan, shu bilan bog‘liq holda korpusshunoslikning rivojlanish tarixida raqamli texnologiyalar oldingi davr, ya’ni qo‘l ishi yuzaga kelgan<sup>26</sup>. Kompyutering ixtiro qilinishi korpus lingvistikasining rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun yangi bosqichni boshlab berdi – yaratilgan korpuslar oldingilaridan nafaqat saqlash formatiga ko‘ra, balki hajm jihatidan ham farqlanadigan bo‘ldi. Matnlarni elektron shaklga aylantirishda raqamli vositalardan foydalanish nafaqat tilshunoslik, tarix, sotsiologiya va boshqa gumanitar fanlarning dolzarb muammolarini hal qilish uchun yangi korpuslarni yaratishga, balki eski korpuslarning salmog‘ini oshirishga, ulami raqamlashtirish va turli eslatmalar hamda izohlar bilan to‘ldirishga, shu bilan mazmunan kengayib borishiga imkon berdi.

XIX asr oxiri XX asrning boshlariga kelib korpuslar amaliy masalalarni yechish (lingvistik birliklarning chastotasini hisoblash) maqsadida yaratilgan. XXI asrga kelib dunyo tilshunosligida, korpus lingvistikasini ilmiy-amaliy

---

<sup>25</sup> <http://uzschoolcorpara.uz/>

<sup>26</sup> Якубовский К.И., Якубовская К.А. Обзор современных лингвистических технологий и систем // Вестник МГУП. 2015. №2 – С. 315.

jihatdan o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlari kengaydi. Shunga muvofiq ravishda kompyuter lingvistikasida tilga oid so‘zlarni lemmalash va teglash nazariyasi, korpus bazasini yaratish, matnlarni tahlil qilish va tabiiy tilni qayta ishslash jahon tilshunosligida dolzARB masalaga aylandi.

Korpus lingvistikasidagi tadqiqotlar 40-yillarda Blumfeld, Fritz va Bonders tomonidan boshlangan. Nils Frensis va Genri Kuchera birinchi bo‘lib korpus yaratish tamoyillarini ishlab chiqdi. *Korpus lingvistikasi* termini birinchi marta 1963-yilda<sup>27</sup> ingliz tilidagi matnlar asosida yaratilgan ilk korpus – Braun (BK, ingizcha Brown Corpus, BC) korpusining yaratilishi bilan qo‘llanila boshlangan. Rossiyada bu termin 1996-yilga kelib ingliz tilining xalqaro korpus asoschilaridan biri Sidni Grinbaumning ma’ruzalari orqali ma’lum bo‘ldi.

Volgograd davlat universiteti professori L.A Kochetova 2016-yilda chop ettirgan “Статистический методы в корпусных исследованиях” nomli maqolasida zamonaviy tilshunoslikda korpus lingvistikasini ikki xil talqin etadi:

1) matnli ma’lumotlarni statistik qayta ishslash uchun kompyuter texnologiyalarini ishlab chiqish va qo‘llashga asoslangan lingvistik tadqiqotlar sohasi;

2) lingvistik nazariyalarni tekshirishga imkon beradigan usullardan biri sifatida, shuningdek, an’anaviy empirik usullar bilan aniqlash qiyin bo‘lgan yangi lingvistik faktlarni kashf etish va izohlash sohasi sifatida izohlanadi.

V.P.Zaxarov va S.Yu.Bogdanova 2020-yilda chop ettirilgan “Корпусная лингвистика” nomli qo‘llanmasida korpus lingvistikasi kompyuter va elektron korpuslar orqali real hayotda tildan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni o‘rganuvchi yangi soha hisoblanadi. Tilshunoslikning sintaksis, semantika va sotsiolingvistika kabi bo‘limlari tilning tuzilishini, qo‘llanilish sohalarini o‘rgansa,

---

<sup>27</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Корпусная\\_лингвистика](https://ru.wikipedia.org/wiki/Корпусная_лингвистика)

korpus lingvistikasi kengroq tushuncha hisoblanib, tilshunoslikning ko‘plab jihatlariga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan metodologiya deyiladi<sup>28</sup>.

XX asrning 90-yillaridan boshlab korpus lingvistikasiga oid ilmiy tushunchalar mukammalroq shakllandi, turli xil manbalarda bu yangi yo‘nalish haqida bir-biriga yaqin ta’riflar berila boshlandi. Masalan, J.Sinkler korpusni tilning xilma-xilligini ko‘rsatish, turli ko‘rinishdagi til materiallarini tavsiflash maqsadida tanlangan asl matnlar yig‘indisi deb ta’riflaydi<sup>29</sup>. V. P. Zaxarov esa korpus elektron shakldagi katta hajmdagi tizimlashtirilgan (strukturaga ega bo‘lgan), razmetkalar – maxsus elektron belgilar qo‘yilgan, filologik jihatdan keng qamrovli va muayyan lingvistik masalalarni hal etishga mo‘ljallangan til ma’lumotlari majmuidir deydi<sup>30</sup>. N.Kozlova esa korpus oddiy matnlardan raqamlanganligi bilan farqlanib, yozma va og‘zaki shakldagi matnlar yig‘indisi hisoblanishi hamda maxsus rezmetkalar qo‘yilgan holatda kompyuterga joylashtirilgan matnlar yig‘indisi ekanligi va ma’lumotlarni tartibga soladigan annotatsiyalardan iboratligini aytadi<sup>31</sup>.

Korpus imkoniyatlaridan leksikografik amaliyat, tarjimashunoslik, lingvodidaktika, terminologiya va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda foydalanimoqda<sup>32</sup>. Korpus lingvistikasi zamirida uning zamonaviy bo‘limlari sifatida bo‘y ko‘rsatayotgan korpus semantikasi, korpus morfologiysi, korpus sintaksi, korpus matnlarini tahlil qilish, korpus stilistikasi, kognitiv korpus tilshunosligi shakllanmoqda. Statistikadan foydalanish korpus lingvistikasining asosiy afzalliklaridan biridir, chunki bu natijalarning subyektivligidan qochishga yordam beradi, shuning uchun korpus lingvistikasida introspektiv va lingvistik

---

<sup>28</sup> Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика. – Санк-Петербург. 2020. – С. 13.

<sup>29</sup> Conkordance, Collocation. Oxford, 1991. – Р. 171.

<sup>30</sup> Захаров В.П. Корпусная лингвистика, – СПб: Санкт-Петербургский ГУ. 2005. – С. 11.

<sup>31</sup> Козлова Н.В. Лингвистические корпуса: определение основных понятий и типология. Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2013. Т. 11. Выпуск 1. – С. 79.

<sup>32</sup> Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 69-72.

tahlilga murojaat qiladigan an'anaviy tilshunoslik usullari tanqid qilinadi. Korpus tadqiqotlarida asosiy statistik o'lchovlar ikki shaklda: *mutlaq chastota* va *nisbiy chastotadan* foydalaniladi. Birinchisi, til birligi yoki matn elementlarining mutlaq sonini ko'rsatadi, ikkinchisi million yoki ming so'zga nisbatan (korpus hajmiga binoan) sonini hisoblab chiqadi, bu esa turli xil til korpuslaridagi lingvistik o'zgaruvchanlikni o'lhashga imkon beradi. Chastotani nafaqat semantika, sintaksis, stilistika yoki til tarixi sohasida, balki psixologik lingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika va boshqa lingvistik sohalarda qo'llash maqsadga muvofiq<sup>33</sup>.

Braun korpusi bazasiga har biri 500 leksik birlikdan iborat jami 2000 ta matn kiritilgan bo'lib, bazaning umumiy hajmi 1 mln lisoniy birlikni tashkil etgan<sup>34</sup>. So'zdan foydalanish chastotasi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlash uchun Braun korpusi yaratuvchilari (N.Frensis va G.Kuchera) 1961-yilda matnlarni saralab olishning qat'iy tartibini ishlab chiqishgan. Braun korpusining 1 mln qamrovli hajmi keyingi yaratilgan til korpuslari uchun standart hajm vazifasini bergen. Bugungi kunga kelib fan va texnologiyaning taraqqiy etishi, Big Data'ning mislsiz kengayishi natijasida zamonaviy til korpuslarining hajmi trillion hajm darajasiga ham yetmoqda.

1970-yillarda 1 mln so'zni o'z ichiga olgan matnlar korpusi asosida rus tilining chastotali lug'ati yaratildi. 1980-yillarda Shvetsiyaning Upsala universitetida ham rus tilida matnlar korpusi yaratildi. Buyuk Britaniyada Ingliz tili banki (Bank of English) hamda Britaniya milliy korpusi (British National Corpus, BNC), Rossiyada Rus tilining mashina fondi (Машинный фонд русского языка) hamda Rus tilining milliy korpusi (Национальный корпус русского языка) loyihalari ishlab chiqildi. Keyingi yillarda Internet tizimining rivojlanishi virtual matnlar korpusining yuzaga kelishiga olib keldi. Internetdagi

---

<sup>33</sup> Кочетова Л.А. Статистические методы в корпусных исследованиях. – Волгоград. 2016. – С. 49.

<sup>34</sup> [http://www.ruslang.ru/seminar\\_aut\\_lexocorg020413](http://www.ruslang.ru/seminar_aut_lexocorg020413)

qidiruv saytlari, elektron kutubxonalar, virtual ensiklopediyalar korpus vazifasini bajarmoqda.

Rus korpusshunosligida V.P.Zaxarov, A.K.Kutuzov, E.V.Nedoshivina, V.Rikov, V.Plungyan, M.Kopotev korpus, uning turlari, xususiyatlari, korpusning ijtimoiy ahamiyati va korpusni yaratish tamoyillarini tadqiq etgan. Mualliflik korpuslari bo‘yicha maxsus tadqiqotlar O.Kukushkina, A.Polikarpov va E.Surovseva asarlarida mavjud<sup>35</sup>.

O‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi nazariy tadqiqotlari jadallahgan, amaliy ishlanmalari foydalanuvchilar e’tiboriga taqdim etilayotgan, o‘zbek kompyuter lingvistikasi zamirida shakllangan navqiron soha hisoblanadi. Hozirda mazkur sohada so‘z turkumlarini teglash, korpus birliklarini grammatik va semantik teglash, teg modellarini shakllantirish, korpusda morfoanalizatorni yaratish, teglash algoritmini ishlab chiqish, shu asosda avtomatik semantik teglash dasturini yaratish bo‘yicha ham amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Korpus lingvistikasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo mualliflik korpuslariga qaraganda muayyan til korpuslari keng ko‘lamli ishlangan. Xususan, Britaniya milliy korpusi va Chex milliy korpuslari, rus tili milliy korpuslari shunday korpuslar sirasiga kiradi. Chex milliy korpusi Praganing Karlova universiteti tadqiqotchilari tomonidan tuzilgan bo‘lib, slavyan tillari orasida ko‘لامи va o‘зига xosligi bilan ajralib turadi. Rus tilining milliy korpusi 2004-yil 24-apreldan boshlab Internetda ishga tushirilgan, 2022-yilning avgustidan yangi versiyasi taqdim etilgan bo‘lib, hozirda korpus hajmi 1.5 mlrd so‘з shaklini tashkil etadi, korpus muntazam ravishda to‘ldirilib borilmoqda. Rus tili milliy korpusi ma’lumotlari tilshunoslardan tomonidan tayyorlangan bo‘lib, XVIII asr o‘rtalaridan XXI asr boshlarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi hamda davr tilini sotsiolingvistik jihatdan adabiy, so‘zlashuv, xalq tili, qisman dialektal ko‘rinishlarda ifodalaydi. Dastlab korpus asosini zamonaviy rus tili shakliga

---

<sup>35</sup> Rus tili milliy korpusi [Elektron resurs]. <http://www.ruscorpora.ru/search> (murojaat vaqt: 1.04.2022).

keltirilmagan asliy (tabdil va zarur o‘rinlari tarjima qilinmagan variantda) badiiy matnlar (nasr, dramaturgiya va she’riyat) kiritilgan<sup>36</sup>. Keyinchalik badiiy matnlardan tashqari, tilning boshqa namunalari: xotiralar, insholar, publitsistika, ilmiy-ommabop adabiyotlar, ommaviy nutqlar, shaxsiy yozishmalar, kundaliklar, hujjatlar bilan kengaytirilgan. Korpus bazasi asosini badiiy matnlar tashkil etishi natijasida rus adabiy tili korpusining yaratilishiga zamin bo‘ldi.

Rus adabiy tilining korpusi morfologik izohlangan rus adabiy tilidagi matnlar majmuasi hisoblanadi. Bazada badiiy matnlar – 30%ni, publitsistik matnlar – 40%ni, ilmiy matnlar (tahlil va sharhlar, o‘quv adabiyotlar) – 20%ni, dramatik asarlar (og‘zaki yozuvlar) – 10%ni tashkil etadi. Jami so‘zshakllar hajmi 1 milliondan oshadi. Bu jihat mazkur korpusning reprezentativligini ta’minlaydi. Korpusga 1950-yil boshlaridan hozirgi kunga qadar davrda yaratilgan matnlar kiritilgan. Korpus materiallari quyidagi ruknlarda o‘z aksini topgan: badiiy adabiyot (69 nomdagi manba), jurnalistika (225 nomga ega manbani o‘z ichiga olgan), dramaturgiya (47 nomdagi manba), ilmiy-ommabop adabiyot (38 nomdagi manbani o‘z tarkibiga birlashtirgan). Korpusdagi matnlarning morfologik teglanishi natijasida korpus asosida 125 mingga yaqin leksik birlikdan iborat urg‘uli so‘z shakllarining chastotali lug‘ati yaratilgan<sup>37</sup>. Ushbu tahlillardan ko‘rish mumkinki, rus tili milliy korpusi va rus adabiy tilining korpusida ham tilning yozma hamda og‘zaki shakllariga mansub turli tipdagi matnlar qamrab olingan bo‘lib, muayyan ijodkor qalamiga mansub matnlar bazasi har ikkala korpus tarkibida mavjud emas.

Korpuslar umumiyligiga ko‘ra umumiy va yakka muallifli bo‘ladi. Umumiylar muayyan tilning bir yoki bir necha masalalari bo‘yicha yaratiladi. Unda matnlarning grammatik yoxud semantik teglari berilishi, parallel tarjimasi taqdim etilishi, matnlar manbasi haqida metama’lumotlar ko‘rsatilishi

---

<sup>36</sup> Суровцева Е. В. Общеязыковые корпусы русского языка: подкорпусы художественных текстов. “Молодой учёный”. № 49 (235) 2018 . – 420 с.

<sup>37</sup> Rus adabiy tilining korpusi. Электрон ресурс: <http://www.narusco.ru/>.

mumkin. Yakka muallifli korpuslarda, asosan, muayyan ijodkorga mansub materiallar qamrab olinadi va ular mualliflik korpuslari hisoblanadi.

**MK** muayyan bir muallif tili, yozish uslubi, asarlaridagi til, matn xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi tizim sanaladi. Jahon tilshunosligida hozirgi kunga qadar mualliflik korpuslarini yaratish borasidagi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1956-1961-yillarda Pushkin tilining lug‘ati, shuningdek, alohida asarlarning lug‘atlari, masalan, 1978-yilda Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik”<sup>38</sup> romanining chastotali lug‘ati nashr etildi. Ushbu tadqiqot yo‘nalishi, shubhasiz, dolzarb hisoblanib, hozirgi kunda lingvistika sohasidagi tadqiqotchilar va yozuvchilarning zamonaviy mualliflik korpuslarini yaratish borasidagi masalasiga e’tiborlarini tobora ko‘proq jalg qilmoqda.

Umuman, mualliflik korpuslarini yaratish asosi mualliflik lug‘atlarining tuzilishi bilan bog‘liq va MK yaratish ishlari shakllanishi o‘z tendensiyasiga ega. Buni quyidagicha aks ettirish mumkin:



1.2.1-rasm. *Mualliflik korpuslarining yaratilish tendensiyasi*

Rus tilining mualliflik korpuslari jahon, shuningdek, rus tilshunosligida shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy soha hisoblanib, uning taraqqiyoti natijasida juda ko‘plab ijodkorlarning elektron lug‘at va korpuslari yaratildi. Mualliflik korpuslarining yaratilishi bir qancha yozuvchi, shoir tili konkordansini tuzish, milliy korpusda ularning asarlari bazasini yaratish imkonini berdi. Bu borada rus korpus lingvistikasida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan yutuqlar diqqatga sazovor hisoblanadi. Xususan, A.P.Chexov, A.S.Pushkin,

<sup>38</sup> Национальный корпус русского языка (Rus tilining milliy korpusi). Электрон ресурс: <http://www.ruscorpora.ru/search> (murojaat vaqt 15.03.2022).

F.M.Dostoyevskiy larning korpuslari, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti olimlari tomonidan I.Krilov masallari tili lug‘ati, A.Griboyedov komediyalari tili lug‘ati, N.Gogolning “Revizor” komediyasi tili lug‘ati, D.Fonvizin komediyalari tili lug‘atlari yaratilgan bo‘lib, yuqorida iishlarga “A.S.Pushkin tili lug‘ati<sup>39</sup> ning tajribasi asos bo‘lgan. Ushbu tajriba rus leksikografiyasida ommalashdi va boshqa leksikografik laboratoriyalarda ham shunday tadqiqotlar amalga oshirildi. A.N.Ostrovskiy asarlari tili, M.V.Lomonosov asarlari tili lug‘ati<sup>40</sup>, M.Kuzmin she’rlari konkordansi<sup>41</sup>, A.Mitskevichning “Pan Tadeush” poemasi tili ideografik lug‘atlari ijodkor tili lug‘at / konkordansi hisoblanadi. Bu sohadagi tadqiqotlar orasida O.V.Kukushkina, A.A.Polikarpov, E.V.Surovsevalar tomonidan tuzilgan A.P.Chekhov badiiy asarlari tili lug‘ati<sup>42</sup> diqqatga sazovor.

F.M.Dostoyevskiy publitsistikasining lug‘at-konkordansi<sup>43</sup> Dostoevskiyning jurnalistikaga oid chastotali muvofiqlik lug‘ati Petrozavodsk davlat universiteti va Kareliya davlat pedagogika universiteti xodimlari hamda Rus tili institutining eksperimental leksikografiya sektori xodimlari hamkorligida yaratilgan. Ushbu lug‘at har qanday so‘z yoki so‘z shaklining foydalanish konteksti va chastota xususiyatlarini, yozuvchining 30 jilddan iborat to‘liq asarlari haqida metama'lumotni olish imkonini beradi. Muallifning badiiy bo‘lmagan asarlari, shu jumladan, “Yozuvchining kundaligi” asari ham yozuvchining akademik to‘plangan asarlariga kiritilgan. Dostoevskiyning publitsistik matnlari lug‘at-konkordansdan o‘rin olgan, lug‘at-konkordans IRYa RAS Rus tili mashina fondi bo‘limida tayyorlangan klassik adabiy asarlarning chastotali lug‘ati va bir

<sup>39</sup> “Словарь языка Пушкина” в четырех томах, создан в Институте русского языка АН СССР под ред. акад. В.В.Виноградова (издан в 1956-1961 гг.).

<sup>40</sup> Волков С.С., Матвеев Е.М. О проекте словаря “Риторика М.В.Ломоносова. Доклад (ИЛИ РАН). (Электрон ресурс: [www.ruslang.ru/seminar\\_aut\\_lexocorg250214](http://www.ruslang.ru/seminar_aut_lexocorg250214)) 159 Гик А.В. “О работе “Конкордансом к стихотворениям М.Кузмина”: том четвертый” (Электрон ресурс: [www.ruslang.ru/seminar\\_aut\\_lexocorg](http://www.ruslang.ru/seminar_aut_lexocorg))

<sup>41</sup> Гик А.В. О работе “Конкордансом к стихотворениям М.Кузмина”: том четвертый. (Электрон ресурс: [www.ruslang.ru/seminar\\_aut\\_lexocorg](http://www.ruslang.ru/seminar_aut_lexocorg))

<sup>42</sup> Якубовский К.И., Якубовская К.А. Обзор современных лингвистических технологий и систем // Вестник МГУП. 2015. № 2 – С. 315-319.

<sup>43</sup> Словарь-конкорданс публистики Достоевского Ф.М. – <http://dostoevskij.karelia.ru/>

qator matnlarning lug‘at-konkordansini yaratishga asos bo‘lgan. A.P.Chekovning MK tarkibiga barcha tugallangan badiiy asarlari kiritilgan bo‘lib, unga yozuvchining mukammal asarlar to‘plami<sup>44</sup> asos qilib olingan. Korpus tarkibida 600 ta matn (asar): 17 ta pyesa, 583 ta nasriy asar mavjud, 1 271 664 so‘zshakl qo‘llangan. Kontekst (176 308 so‘z pyesadan, 1 095 356 so‘z nasriy asardan), 101 282 turli so‘zshakllar (23 093 tasi dramatik; 96 141tasi nasriy asardan), 36 419 leksema (11 802 tasi dramatik; 34 763 tasi nasriy asar) mavjud. Bir nom bilan atalgan dramatik, nasriy asar matni<sup>45</sup> alohida sanalgan. A.P.Chekov asarlari korpusi lingvistik: so‘zshakl (1); so‘zning boshlang‘ich shakli (2); so‘z turkumi (3); maxsus qo‘llanishlar (4) hamda ekstralingvistik ma’lumot: asar nomi (1); sarlavha, bag‘ishlov (2); asar yozilgan yil (3); davrlashtirish (4); matn tipi: nasriy yoki dramatik (5); imzo (6); asar janri (7); asar janrining muallif nuqtayi nazaridan turi (8); nutqiy janr (9); yozilish joyi (10); hikoya tipi (11); asar mavzulari ko‘lami (12); asarning asosiy mavzusi (13); semantik guruhi (Geo; Shaxs; Ism; Rang; Tovush) (14); mukammal asarlar to‘plamida jild, sahifa raqami (15) kabi xususiyatlar asosida razmetkalangan. So‘zshakl sirasiga raqam, ajratib yozilgan xorijiy so‘zlar (o‘zlashmagan, boshqa tilda) ham kiradi. So‘zning boshlang‘ich shakli “so‘z” oynasi orqali topiladi. Undagi so‘zlarning berilishi lug‘at<sup>46</sup>dan biroz farq qiladi: 1) korpus so‘zligiga lug‘atdan farqli ravishda “Ivanov” (1987) dramasi<sup>47</sup> ham kiritilgan; 2) funksional omonimiya (ravish/predikativ) indeks bilan ajratilmagan, lug‘atda esa bu indeks bilan belgilangan; qaysi turkumga kirishini bilish uchun so‘z turkumi haqidagi ma’lumotga qarash kerak bo‘ladi; 3) variantlilik haqidagi ma’lumot quyidagi usulda, ya’ni asosiy variant va ikkilamchi variant tarzida yonma-yon keltirilgan. Asosiy variant berilsa, ikkilamchi variant

<sup>44</sup> Чехов А.П. Полное собрание и писем в 30 т. – М.: Наука, 1974-1983.

<sup>45</sup> Чехов А.П. Иванов” (комедия; пьеса). Полное собрание и писем в 30 т. Сочинения. Том 12. М., 1986.; “Иванов” пьеса. (1887)

<sup>46</sup> Кукушкина О.В. и др. Частотный грамматико-семантический словарь языка художественных произведений А.П.Чехова с электронным приложением. – М., 2012.

<sup>47</sup> Чехов А.П. Иванов (комедия; пьеса). Полное собрание и писем в 30 т. Сочинения. Том 12. М., 1986.; “Иванов” пьеса. (1887)

taqdim etilmaydi. Qidirilayotgan birlik “so‘z” oynasidan topilmasa, “so‘zshakl” oynasiga murojaat qilinadi. “Asar nomi” oynasi ma’lum bir asar bilan bog‘liq barcha ma’lumotni: asar yozilgan yil va joy, asar haqidagi fikrlar, asarga A.P.Chexov mukammal asarlar to‘plamida keltirilgan izohlar kiritiladi. “Sarlavha (qo‘sishimcha sarlavha) va bag‘ishlov” oynasidan asardagi ikkinchi sarlavha (agar mavjud bo‘lsa), asarning kimga bag‘ishlanganligi haqida ma’lumot olish mumkin.

F.Dostoyevskiy va A.Chexov mualliflik korpuslarini yaratish, ulardan unumli foydalanish, mazkur korpuslarning imkoniyatlari va tarkibiy tuzilishi borasida jiddiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ammo har ikkala korpus bugungi kunda ishchi holatda emas. Statistik ma’lumotlar ushbu mualliflik korpuslari dastlab ishga tushirilgan vaqtida olingan. Ayni damda aytish mumkinki, Britaniya milliy korpusi tarkibidagi U.Shekspir MK va Mangeym universiteti korpusidagi I.Gyote korpuslari ko‘plab mamlakatlarning mualliflik korpuslarining yaratilishi hamda rivojlantiriljishi uchun namuna bo‘ladi.

Bugungi kunda U.Shekspir MK maqomiga ega bo‘lgan tizim g‘oyasi 2001-yilda Shekspir asarlarini jamlovchi bepul onlayn resurs sifatida Jorj Meyson universitetining magistratura bosqichini bitirayotgan, Vashington Times gazetasida veb-dizayner va teatr sharhlovchisi bo‘lib ishlagan Erik M. Jonson tomonidan o‘ylab topilgan. Bunga sabab E.M.Jonson Shekspir iqtiboslarini global tarmoqdan qidirganida foydalanuvchilarga Uilyam Shekspir asarlarining to‘liq to‘plamidan erkin foydalanishga ruxsat beruvchi birorta ochiq veb-resurs mavjud emasligiga amin bo‘ladi. “Keng qamrovli korpuslar bepul emasligi, bepul korpuslar esa tor qamrovli” ekanligi unda U.Shekspir asarlaridan erkin foydalanish imkonini beruvchi resurs yaratish, shu orqali ko‘plab tadqiqotchilar mushkulini oson qilish g‘oyasini uyg‘otdi. Ushbu ish Jonsonning magistraturadagi asosiy dasturiga aylanadi. 2003-yil dekabr oyida E.M.Jonson bepul va keng qamrovli majmua – Shekspiring ochiq manbali veb-saytini

yaratishni boshlaydi. Sayt 2004-yil fevral oyida rasmiy ravishda ilmiy jamoatchilikka taqdim qilinadi. 2006-yilgacha saytning operatsion xarajatlarini E.M.Jonsonning o‘zi to‘lagan. Keyinchalik, loyihani moliyalashtirish uchun Jonson hamda Jorj Meyson universiteti ingliz tili bo‘limining uchta a’zosi Milliy gumanitar fanlar jamg‘armasiga grant uchun ariza berishgan va sa’y-harakatlar natijasida jamg‘arma tomonidan moliyalashtirilishiga erishilgan. Sayt, dastavval, pyesalar, sonetlar va she’rlar, muvofiqlik, qidiruv tizimi va asosiy foydalanish statistikasi kabi 5 ta ruknni o‘z ichiga olgan, vaqt o‘tishi bilan tizim tarkibi boyitilib ko‘p funksionallikka ega bo‘ldi.

Shu o‘rinda milliy korpus, elektron kutubxonalar va mualliflik korpuslari o‘rtasidagi farqli jihatga e’tibor berish lozim. Milliy korpuslarning o‘ziga xos ikki muhim xususiyati mavjud. Birinchidan, u me’yorlashtirilgan muayyan tarkibga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bunday korpus muayyan tildagi (turli badiiy janrlar, publisistik, o‘quv, ilmiy, ish yuritish, so‘zlashuv, shevaga oid va boshq.) o‘zaro proporsional tarzda korpusga kiritilgan og‘zaki va yozma matnlarni o‘z qamroviga olgan bo‘lishi talab qilinadi. Ikkinchidan, korpusning talab darajasida bo‘lishi uchun uning hajmiga e’tibor qaratish kerak. Masalan, o’n va yuz milliongacha so‘z qo‘llansa, maqsadga muvofiq keladi. Shunda korpusdan asosiy o‘quv vositasi va tadqiqotda muhim ish quroli sifatida foydalanish mumkin bo‘ladi.

Korpus matnlarning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risidagi muhim qo‘sishimcha ma’lumotlarni annotatsiya yoki lingvistik izoh ko‘rinishida saqlaydi. Lingvistik izoh (rus tilida *разметка*, ingliz tilida *tag*) – korpusning asosiy bosh ma’lumotnomasi bo‘lib, u korpusni zamonaviy internet tarmog‘ida mavjud bo‘lgan oddiy matnlar to‘plami (yoki kutubxonalar)dan ajratib turadigan, masalan, Ziyonet kutubxonasi, Hilol virtual kutubxonasi, Maksim Morshkov

kutubxonasi yoki rus virtual kutubxonasi kabilardan farqlaydigan omildir<sup>48</sup>. Hozirgi vaqtida mutaxassislar tomonidan “Fundamental elektron kutubxona” yaratildi va u doimiy ravishda rus mumtoz adabiyoti namunalari bilan to‘ldirib borilmoqda. Unga nashriyotlarda chop etilgan adabiy matnlar muntazam kiritilib boriladi. Biroq kutubxonalarda qayta ishlanmagan matnlar ham mavjud bo‘lib, bu ilmiy tadqiqotlar uchun foydalanishda ba’zi noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, bunday kutubxonalar til xususiyatlaridan ko‘ra matnning mazmun-mohiyati bilan qiziquvchilar tomonidan yaratiladi. Manbalarni jamlash va saqlashga mo‘ljallangan bunday tizimlar arxiv tizimlar ham deyiladi. Milliy korpus kutubxonalardan farqli ravishda, asosan, til o‘rganish uchun xizmat qiluvchi manbadir. Korpus bazasida o‘rtamiyona yozuvchilarining romanlari ham, oddiy so‘zlashuv matnlari va ijara shartnomalari ham, mumtoz badiiy adabiyot namunalari ham bo‘ladi. Korpusning rang-barang ilovalar bilan boyitilishi uning ilmiy va o‘qishlilagini baholaydi. Umuman, ko‘p maqsadli va polifunktional til korpusi – muayyan tilning Milliy korpusi hisoblanadi. Bunday korpus bazasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

- 1) og‘zaki va yozma matnlarning bo‘lishi;
- 2) tilning barcha uslublariga mansub o‘ta katta hajmdagi matnlarning qamrab olinganligi;
- 3) matnlarning lingvistik, morfologik va sintaktik jihatdan teglanishi;
- 4) korpusning meta-ma’lumotlari mavjud bo‘lishi;
- 5) matnlarning reprezentatsiyalanganligi zaruriy talablardan hisoblanadi.

Mazkur talablar Milliy korpusning zaruriy lingvistik va lingvodidaktik texnologik vositaga aylanishini ta’minlaydi<sup>49</sup>.

---

<sup>48</sup> Pirmatov A., Qurbanova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Urganch, 2019. – B. 2.

<sup>49</sup> Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 39.

Rus tili milliy korpusida izohlarning to‘rt turidan foydalaniladi: metamatnli, morfologik, aksentologik, semantik. Yaqin kunlarda uning sintaktik ko‘rinishi ham kiritilishi rejalashtirilgan<sup>50</sup>. Izohlar tizimi shu tarzda ko‘payib, takomillashib boraveradi. Shu o‘rinda milliy korpus nega kerak degan savol tug‘iladi. Milliy korpus, avvalo, til imkoniyatlarini o‘zida qamrab olishi, tilning leksika va grammatikasi yuzasidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun kerak, ikkinchidan, milliy korpus bir necha yuz yilliklar davomida tilda yuz bergen uzluksiz o‘zgarishlar, jarayonlarni kuzatish imkonini beradi. Korpusning yana bir vazifasi til sohalarining barcha jihatiga taalluqli ma’lumotlarni olish (masalan, leksik, grammatik, aksentologik, til tarixi, LBning uslubiy xoslanishi kabi), zamonaviy kompyuter texnologiyalari vositasida katta hajmdagi til hodisalarini juda tez tahlil qilishga xizmat qilishdan iborat. Avvallari tadqiqotchi zarur misollarni qo‘lda yozib olar, bu esa juda ko‘p mehnat va vaqt ni talab qilgani holda oz miqdordagi materiallarni qayta ishlashga imkon berar edi. Bugungi kunda raqamlı texnologiyalardan unumli foydalanish natijasida tilshunoslikda mana shunday muammolarga barham berildi, natijada ish unumdorligiga erishilmoqda.

Mualliflik korpuslarining yuzaga kelish omillari qanday va ularning bazasiga kiritiladigan matnlarga qanday talablar qo‘yiladi? Yuqorida milliy korpuslarga qo‘yilgan talablar ko‘rib chiqildi. Ta’kidlanganidek, milliy korpus tilning barcha imkoniyatlarini namoyon etuvchi matnlar majmui hisoblanadi, shu bois u umumlingvistik tizim sanaladi. Mualliflik korpuslari esa muayyan ijodkor asarlari matnlarini o‘zida jamlashi bilan xarakterlanadi.

Mumtoz adiblar asarlarini o‘rganish, adib shaxsiga oid ma’lumotlar va yozish uslubini raqamlashtirish natijasida muallifi noma’lum asarlarning muallifini topish, muayyan mashhur ijodkorlar ijodini keng targ‘ib etish va ularning asarlaridan tadqiqotlar jarayonida foydalanish, asosan, qo‘l mehnatiga asoslangan kartotekalash jarayonidan voz kechib, asarlardan leksik birliklarga

---

<sup>50</sup> <https://ruscorpora.ru/new/corpora-usage.html>

misollar massivini topish maqsadida mualliflik korpuslari yuzaga kelgan. Aniqroq aytganda, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan yirik hajmdagi materiallar bilan ishslash imkoniyati oshganligi sababli mualliflik korpuslari ham vujudga keldi.

MK bazasini yaratish uchun tanlab olingen ijodkorning davridan qat'i nazar, sotsiolingvistik ko'rnishdagi badiiy, so'zlashuv, jonli so'zlashuv, qisman dialektal matnlar tashkil qiladi. Korpusga badiiy qimmatga ega bo'lgan va til o'rgatishga qiziqish uyg'otadigan, original (tarjima qilinmagan) badiiy adabiyot namunalari kiritiladi (nasr, nazm, drama ham). Badiiy asarlardan tashqari, yozma adabiyotning boshqa namunalaridan publisistika, ilmiy-ommabop va ilmiy adabiyotlar, ma'ruzalar, shaxsiy yozishmalar, kundaliklar, hujjatlar va boshqalar ham kiritiladi.

Mualliflik so'zliklarini, ijodkorlarning alohida o'ziga xos til uslubi va so'z qo'llash mahoratini juda ko'plab tadqiqotchilar o'rganishgan. A.Fitrat Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari tilini, V.V.Radlov, S.E.Malov, V.V.Bartold, E.E.Bertelslar Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi o'ziga xos so'zliklarni, S.E.Malov, E.E.Bertels, Q.Mahmudov Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari tilini, A.M.Sherbak Xorazmiyning "Muhabbatnama" asari til xususiyatini tadqiq etgan<sup>51</sup>. Alisher Navoiy asarlari tilini o'rganish, Navoiy davriga oid leksik birliklarga zamonaviy o'zbek tili nuqtayi nazaridan semantik izoh berish dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada qilingan ishlarning dastlabkisi sifatida A.K.Borovkov tadqiqotlarini<sup>52</sup> misol qilish mumkin. XIV-XIX asr tili xususiyatini o'rganishda Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy so'zliklari, XX asr o'zbek adabiy tili leksikasi xususiyatlari misolida Abdulla

---

<sup>51</sup> Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана. М. – Л., 1961. – 204 с.; Абдурахмонов F., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 166 6.

<sup>52</sup> Боровков А.К. Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка // Сб. Алишер Навои.–М. – Л., 1946.

Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor asarlari til xususiyatlari tadqiq etilgan<sup>53</sup>.

Ijodkor shaxsi va uslubi, so‘z qo‘llash mahoratini zamonaviy vositalar orqali o‘rganishda dunyoga mashhur adiblar: U. Shekspir, A. Dante, Gyote, A.S.Pushkin, F.M.Dostoyevskiy, A.S.Griboyedov adabiy merosi jamlangan elektron resurslar namuna sifatida xizmat qiladi<sup>54</sup>. Fors-tojik mumtoz allomalari, mumtoz adabiyot namoyandalaridan Rudakiy, Firdavsiy, Sa’diy Sheroziy, Mavlono Rumiy, Hofiz Sheroziy hamda XX asr adabiyoti vakillari Loyiqali Sherali, Mo‘min Qanoat, Habibullo Fayzullo ijod mahsullari jam bo‘lgan bazalarining har biri MK sifatida alohida domenda emas, balki informatsion va telekommunikatsion texnologiyalar maktabi tizimiga joylashtirilgan<sup>55</sup>.

Muayyan adib qalamiga mansub asarlar korpusi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- 1) ijodkor uslubi va uning so‘z qo‘llash mahoratini o‘rganish;
- 2) adib ijodini lingvopoetik tahlil qilish;
- 3) ijodkor qo‘llagan turg‘un birikmalarini (iboralar) tahlil qilish;
- 4) asar badiyligini oshirishda keng foydalanilgan she’riy san’at turlarini tahlil etish;
- 5) lirik turdagи janrlar qatoriga yashiringan xalq og‘zaki ijodi namunalari (maqol, topishmoq)ni aniqlash;
- 6) ijodkor asarlarini auditoriya yoshiga mos ravishda taqsimlash;
- 7) asar matni tipi (masalan, g‘azalning orifona, oshiqona, rindona tiplari)ni farqlay olish;
- 8) izohtalab so‘zlarning izohini, matnning g‘oyasi va mazmunini korpusdagi semantik izohga tayanib teran anglash;

---

<sup>53</sup> Турсунов У. ва б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 261 б.

<sup>54</sup> Потемкин С.Б. Авторский корпус и словарь языка Антона Чехова. (Электрон ресурс: // <https://istina.msu.ru/>)

<sup>55</sup> <http://www.sit.tj>

9) raqamli texnologiyadan keng foydalangan holda axborot olishni tezlashtirish kabi bir qator qulay imkoniyatlarni beradi.

Korpus tilshunosligi, milliy korpus va uning xususiy shakllarini yaratish, shuningdek, mavjud tajribalardan kelib chiqib, o‘zbek milliy korpusining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, uni keng jamoatchilikka tatbiq qilish mutaxassislarning galdag'i dolzarb vazifalaridan biridir. Buning natijasida o‘zbek tili mumtoz va zamonaviy matnlari, turli janrlarda yaratilgan betakror durdona asarlar “ikkinchi hayot<sup>56</sup>”ga yo‘llanma oladi va kelgusida o‘zbek tilining ham ko‘p ming (ikki yuz, besh yuz ming yoki million) so‘zli lug‘atlarini yaratish imkoni tug‘iladi. Ko‘pgina mamlakatlarda XX asrning 80-yillaridan boshlab shunday korpuslar tuzila boshlandi. Joriy korpuslar turli maqsad va vazifalarga xizmat qiladi. Masalan, Rus tilining milliy korpusi hajmi hozirgi kunda 1.5 mlrd so‘zdan iborat. Hozirgi vaqtida rus tili milliy korpusi quyidagi kichik-kichik korpus<sup>57</sup> (podkorpus)larni o‘z ichiga qamraydi:

- 1) chuqur annotatsiya (tahlil)langan korpus (bunda har bir gapning morfologik va semantik qurilishi uchun tahlil mavjud);
- 2) rus va ingliz matnlarining parallel korpusi (bunda rus yoki ingliz tillaridagi so‘z va so‘z birikmalarining tarjimalarini topish mumkin bo‘ladi);
- 3) dialektal matnlar korpusi (bunda Rossiyaning turli hududlarida grammatik xususiyatlariga ko‘ra saqlangan dialektik matnlar mavjud);
- 4) poetik matnlar korpusi (bunda she’riyatning nafaqat leksik va grammatik, balki uning turli janrlari (sonet, epigramma, ularning qofiya turlari) bilan bog‘liq jihatlar mavjud);
- 5) rus tilining ta’limiy korpusi (asosiy e’tibor rus tilining maktab dasturlari bo‘yicha grammatik adabiyotlar qamrab olingan);

---

<sup>56</sup> Pirmatov A., Qurbonova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Urganch: 2019. – B. 58.

<sup>57</sup> O‘sma manba. – B. 27.

6) og‘zaki nutq korpusi (bunda magnit tasmasiga yozib olingan ommaviy va xususiy og‘zaki matnlar va 1930-2000-yillardagi kinofilmlar transkript (talaffuz) matnlari mavjud.

Mana shunday bir qancha korpuslarni qamrab olishi bilan rus tili milliy korpusi o‘z qiymatini oshirib bormoqda. O‘zbek tili ta’limiy korpusining yaratilishi o‘zbek tili milliy korpusi uchun tamal toshi bo‘lib xizmat qilsa, mualliflik korpuslari, parallel korpuslar, dialektal korpus kabi xususiy korpuslarning yaratilishi uning poydevorlari qad ko‘tarilishiga zamin bo‘ladi.

Ko‘pgina jahon tillarining mukammallik darjasи va tarkibidagi matnlarning qayta ishlangani bilan farqlanuvchi milliy korpuslari mavjud. Milliy til hamda davlat tili taraqqiyotida milliy korpuslar ahamiyati va o‘rnining naqadar muhimligini davr ko‘rsatmoqda. Nafaqat dunyo tili sanalgan ingliz, ispan, xitoy, arab, fransuz, rus, nemis tillarining milliy korpuslari yaratilgan, balki polyak, polyak-ukrain, chex, slovak, serb, xorvat, bosniya, bolgar, bolgar-rus, makedon, shotland, niderland, niderland-fransuz, shved, dat, norveg, island, farer, o‘rta asr fransuz tili, ispan, italyan, portugal, rumin, litva, latish, grek, sharqiy arman, osetin, alban, hind, xett, fin, ural tillari, eston, venger, udmurt, gruzin, ingliz-gruzin, lazgin, turk, tatar, tojik, boshqird, qrim-tatar, qalmoq, buryat, mongol, arab, ivrit, amxar, yapon, qadimiy yapon, baman, esperanto tillarining ham korpuslari mavjud. Dunyo kompyuter lingvistikasida milliy til korpusining mavjudligi tilning yashovchanlik va kompyuter tiliga aylanish mezoniga asos sifatida qaralmoqda<sup>58</sup>. B.Mengliyevning mazkur ta’kidida ifodalangan “milliy tilning kompyuter tiliga aylanishi” degan fikri, asosan, milliy tilning kompyuter tiliga xoslangan shakli, ya’ni o‘zbek tilining formal shakli xususida so‘z borayotganini izohlash o‘rinli.

---

<sup>58</sup> Mengliyev B. O‘zbek tilining ham milliy korpusi yaratilishi lozim. 2020. (Elektron resurs) <https://kun.uz/uz/news/2020/10/18/baxtiyor-mengliyev-ozbek-tilining-ham-milliy-korpusi-yaratilishi-lozim>.

Bugun dunyoda Britaniya va Rossiya milliy korpuslari o‘zining mukammal yaratilganligi bilan diqqatga sazovor. Ushbu milliy korpuslar tadqiqotchilar, soha mutaxassislari va zamonaviy tilshunoslarning sa’y-harakatlari natijasida yaratilganligi bois o‘z amaliy va ilmiy qimmatiga ega. Vaqt o‘tishi bilan ko‘plab davlatlar tillarining milliy korpuslarini tuzishda Britaniya milliy korpusi namuna qilib olindi va bir qancha zamonaviy korpuslarning yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. Ma’lum bo‘ladiki, mukammal va qulay interfeysga ega til korpuslari xuddi shunday tur yoki boshqa tur korpuslariga omil bo‘ladi. Adabiy til rivojiga salmoqli hissa qo‘sghan buyuk yozuvchilarning leksikasini butun ko‘lami bilan tavsiflash, kelgusi avlodga asl holida yetkazib berish bugungi raqamli texnologiya rivojlangan davrning muhim vazifasi sanaladi. Bu borada o‘z millatining milliy va adabiy tili asoschisi hisoblangan butun dunyoga mashhur adiblar U.Shekspir, A.P.Chexov, F.M.Dostoyevskiy, A.S.Pushkinlarning adabiy merosi asosida qilingan ishlar, ya’ni tuzilgan korpuslar namuna sifatida xizmat qilishi tabiiy. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot ishida jahon e’tirof etgan ijodkor va mutafakkir Alisher Navoiyning asarlari qamrab olinadigan MKni yaratishda U.Shekspir MKni tuzish texnologiyasiga tayanildi.

Korpus lingvistikasi ancha yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, MKni yaratish tajribasi so‘nggi yillardagina shakllandi va bu borada ancha natjalarga erishishga ulgurdi. MK ma’lum davr adabiy tili, xususan, leksik tarkibi, uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish uchun umummateral bo‘lishdek qimmatli vazifani ado etadi. MKning tarkibiy qismi, interfeysi, lingvistik izoh masalasi korpus tuzishning asosiy muammosi hisoblanganligi sababli avval internet tarmog‘ida mavjud mualliflik korpuslarining shu jihatlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

R.G. Petrovskiy ishonchli lingvistik ma’lumotni katta hajmdagi matnlardan olish mumkin deganida yirik hajmli korpuslarni nazarda tutgan. Bugungi kunga kelib axborot-kommunikatsiya tizimi rivojlanib, o‘zbek tilshunosligi sohasida

o‘zbek kompyuter lingvistikasi zamirida shakllangan korpus lingvistikasi jadal ravishda rivojlanmoqda. Hozirda o‘zbek korpus lingvistikasi o‘z tadqiq maqsadi, vazifalari, o‘zbek tili Milliy korpusini yaratish konsepsiysi, dolzarb masalalari, hatto tadqiq predmeti belgilab olingen. Amaliy natijalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi AM-FZ-201908172 raqamli amaliy loyiha doirasida o‘zbek tilining ta’limiy korpusi yaratildi.

O‘zbek korpusshunosligida MKga doir tadqiqotlar kengaytirilmagan bo‘lib, MKni yaratishning lingvistik asoslari Sh.Xamroyeva tomonidan Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi asosida tadqiq etilgan<sup>59</sup>.

Umuman, tilning lug‘at boyligini namoyon etish, so‘zning qo‘llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik konstruksiya orqali tushuntirish uchun misollar massivini olishda korpus juda qo‘l keladi. Shu bois korpus tilshunos, pedagog, tadqiqotchi va o‘quvchining zaruriy ish quroli, shuning bilan birga korpus og‘zaki va yozma yodgorliklar, milliy-madaniy merosni aks ettiruvchi axborot manbayidir. Qidiruv dasturiga bo‘ysundirilgan matnlar yig‘indisi, matn birliklari qat’iy teglangan korpus lingvistik tadqiqotlar samaradorligini ta’minlashda barqaror lingvistik baza vazifasini bajara oladi. Korpus – tabiiy (real) tilning elektron shakldagi, ma’lumotni tabiiy kontekstual shaklida saqlaydigan, til hodisalarini har tomonlama, chuqur, obyektiv o‘rganishga, elektron kutubxona, lug‘at, grammatik manbalarni yaratishga asos bo‘ladigan tizim. U tilni tadqiq etish (so‘zning o‘zgarishi, istorizm, neologizmning vujudga kelishi, ma’no kengayishi, torayishi, yangi frazeologizmlarning paydo bo‘lishini kuzatish)da, lingvodidaktika va lug‘at tuzishda zamonaviy hamda keng imkoniyatlari

---

<sup>59</sup> Xamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari (Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi asosida): Filol.fan.bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2018. – 53 b.

dasturlashtirilgan tizim hisoblanadi<sup>60</sup>. Ushbu xususiyatlar MKda ham o‘z aksini topishi bilan MK ahamiyatli vositaga aylanadi.

Til ta’limi uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarning, jumladan, misollarning doimiy yangilanib borishi, buni aks ettirib turish xususiyati hamda imkoniyati faqat korpusda mavjud. Katta hajmli va ishonchli til materiali hisoblanmish lingvistik korpuslar leksik birlik yoki grammatik shaklning qo‘llanish xususiyatlarini tez va samarali tekshirish imkonini beradi. Bu jihatdan mualliflik korpuslari ham ishonchli manba vazifasini o‘taydi. Muayyan ijodkor asarlarida qo‘llangan iboralarni til ta’limida tezda topishda, xususan, somatik iboralar lug‘atini tuzishda ham MK muhim sanaladi. Korpusda, shuningdek, mavjud matnlarni saralash imkoni bor: misolni barcha matnlardan emas, balki tadqiqotchi uchun zarur bo‘lgan turlaridan ajratish mumkin. Endilikda turli lingvistik vazifalarni hal qilish uchun Milliy korpus, jumladan, mualliflik korpuslarini yaratish va qo‘llash ijtimoiy talabga aylanib bormoqda. Hatto bu masaladagi loyihalar milliy miqyosda qo‘llab-quvvatlanmoqda, ularni yaratishda mamlakatimizning yetakchi tashkilotlari ishtirok etmoqda. Bunday tashabbuslar korpuslarning yuqori sifat va ommabop bo‘lishiga olib keladi.

## **1.2. Mualliflik korpuslarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va ulardan foydalanish omillari**

Mualliflik korpuslari muallif asarlari tilini to‘liq va aniq ko‘rsata olishi bilan boshqa axborot banklaridan ajralib turadi. Dunyodagi ko‘plab sohalarda ma’lumotlarning keng va to‘liq manbayi vazifasini o‘tay olishi bilan korpusning amaliy ahamiyati oshib bormoqda. Aytish joizki, raqamli texnologiyalarga asoslangan axborot asrida ta’lim jarayonini korpuslarsiz tasavvur qilish juda qiyin. Aniq fanlar singari tilshunoslik ham aniq dalillarga va faktlarga tayanib katta

---

<sup>60</sup> Xamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusi tuzishning lingvistik asoslari. Monografiya, – Toshkent: 2020. – B. 106.

hajmli, keng tarmoqli ish ko‘radi. Katta hajmli ilmiy ishni amalga oshirishda korpuslardagi ma’lumotlarning aniqligi, izchilligi tilshunosning vaqtini tejaydi va muhim amaliy yordamchi vosita vazifasini o‘taydi. Korpusning yetarlicha katta hajmi ma’lumotlarning uzoq vaqt saqlanishini kafolatlaydi va lingvistik hodisalarning butun spektrini to‘liq aks ettiradi. Turli xil ma’lumotlar korpus bazasida maxsus saralangani bois ularni har tomonlama va obyektiv o‘rganish imkoniy yuqori bo‘ladi. Aynan korpus an’anaviy lingvistik tahlil usullari (introspektiv, anketalash, informantlar bilan intervyu) orqali erishib bo‘lmaydigan ma’lumotlarni olishga imkon beradi va olingan umumlashmalar an’anaviy yondashuv singari introspektiv taxmin emas, balki empirik kuzatiladigan fakt hisoblanadi<sup>61</sup>. Korpus yordamida tilning lug‘at tarkibida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar (eskirgan, ya’ni nutqdan chiqqan so‘zlar, yangi kirib kelgan so‘zlar, o‘zlashgan so‘zlar)ni ham juda qulay holatda bilib olish mumkin.

Tilshunosligimiz tarixida alohida muallif asari til xususiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar talaygina. Jumladan, runiy, uyg‘ur yozuvni asosida yaratilgan yodgorliklarning til xususiyatiga bag‘ishlangan bir qancha asarlar maydonga kelgan. Bu tadqiqot ishlarida qadimgi turkiy til xususiyatlarining ayrim morfologik, sintaktik, fonetik jihatlari tahlil qilingan<sup>62</sup>. O‘g‘uz dialekti belgilari ustun bo‘lgan “Qissai Yusuf” dostoni M.Brokkelman tomonidan, o‘g‘uz, qarluq-uyg‘ur dialektining qadimgi yodgorliklaridan hisoblangan “O‘g‘uznama” afsonasi G.N.Potapin va A.M.Sherbak tomonidan, XIV asr adabiy tili yodgorligi “Muhabbatnama” asari til xususiyati ham A.M.Sherbak tomonidan tadqiq etilgan. XI-XIV asrlarda tuzilgan rasmiy hujjatlar uslubida o‘sha davr tiliga xos xususiyatlar o‘z ifodasini topgan. XI-XIV asrlarga oid rasmiy tilni bayon etishda professor S.E.Malov nashr qilgan X-XIII asrlarga

---

<sup>61</sup> Осмоловская Б., Конструкции А.А. с “Дативным субъектом” (опыт корпусного исследования на материале русского языка). Автореф. канд. дис. – М. 2003. – 30 с.

<sup>62</sup> Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана. – М.–Л., 1961. – 204 с.

tegishli yuridik hujjatlar<sup>63</sup>, O.D.Chechovich nashr etgan XIV asrga oid Buxoro hujjatlari<sup>64</sup> hamda E.R.Tenishev nashr etgan XIII-XIV asrlarga oid xo‘jalik yozuvlari<sup>65</sup> yordam beradi. Eski o‘zbek adabiy tili deb ataluvchi XIV-XIX asr tili xususiyati Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy asarlari misolida tadqiq etilgan. Xususan, Alisher Navoiy asarlari tili alohida ahamiyatga ega, eski o‘zbek adabiy tili taraqqiyotida muhim o‘rni borligini A.K.Borovkov tadqiqotlari<sup>66</sup> isbotlaydi. XVII-XIX asr adabiy tili xususiyatlari Abulg‘ozzi Bahodirxon, Turdi Farog‘iy, Nishotiy, Munis, Gulxaniy, Maxmur asarlari tili, XX asr o‘zbek adabiy tili leksikasi xususiyatlari Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor asarlari til xususiyatlari<sup>67</sup> misolida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda muallif tilining lingvistik jihatlari atroflicha tavsiflangan. Ta’kidlash joizki, aynan mana shunday tadqiqotlar zamirida mualliflik korpuslari yoxud muayyan davr tili korpusini yaratish ancha samarali natijalarini beradi.

Jahon tajribasidan ma’lumki, korpus tadqiqotlari sohalarga doir juda ko‘plab materiallarni taqdim etadi va matnni qayta ishslashda, izohlashda kompyuter dasturlaridan foydalanish aniq ma’lumotlarni olish imkonini beradi. So‘nggi paytlarda korpus tadqiqotlariga bo‘lgan qiziqishning oshishi sababi ham, birinchidan, ta’lim jarayonida eng qulay va ommabop o‘quv hamda ish quroliga ehtiyojning ortishida bo‘lsa, ikkinchidan, juda katta hajmdagi matnlarni qayta ishslashga imkon bergen kompyuterlarning yaratilishi sanaladi. Oddiy holatda kitoblardan izlanadigan ba’zi ma’lumot o‘quvchi uchun noma’lum bo‘lib, bu materialni o‘rganishda vaqt jihatdan va aniq ma’lumotlarni olish borasida birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

---

<sup>63</sup> Малов Е.С. Памятники древнетюркской письменности. – М. – Л., 1961. – С. 200-221.

<sup>64</sup> Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. – Ташкент, 1965. – 366 с.

<sup>65</sup> Тенишев Э.Р. Хозайтсвенные записи на древнеуйгурском языке // Сб. “Исследования по грамматике и лексике тюрских языков”. – Ташкент, 1965 год. – С. 37-77.

<sup>66</sup> Юдахин К.К. Материалы к вопросу о звуковом составе чагатайского языка // “Культура и письменность Востока”, кн. 4. – Баку, 1929. – С. 62-68.; Sherbak А.М. Грамматика старого узбекского языка. – М.-Л., 1962. – 204 с.

<sup>67</sup> Tursunov U. va b. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 261 b.

Mualliflik korpuslarini yaratishda dastlabki harakatlar bo‘yicha peshqadam Rossiya davlati hisoblanadi. Rus yozuvchisi A.P.Chekovning asarlariga nafaqat ularning jahon miqyosidagi shuhrati (ko‘plab tarjimalari mavjud), balki 100 yildan keyin ham badiiyligi va zamonaviyligiga katta ta’sir ko‘rsatadigan tili tufayli uning mualliflik lug‘atlarini, keyinchalik korpusini yaratishga qiziqish oshgan. A.P.Chekovning barcha asarlari rus tilining milliy korpusida<sup>68</sup> aks etmaganligi sababli, uning nashr etilgan asarlari skanerdan o‘tkazilib, turli xil Internet saytlaridan to‘plangan. Hech bir lug‘at tilning barcha leksikasini to‘liq qamrab ololmaydi. Shuni inobatga olgan holda, foydalanuvchilarga A.Chekov asarlari korpusida ba’zi so‘zlar yoki so‘z birikmalarining kerakli kontekstlarini taqdim etish, ularni qidirish, tadqiq qilishni o‘rgatish imkoniyatlarini yaratishga mutaxassislarning qiziqishi ortgan. Hozirgi kunda Chekov MK tarkibiga A.P.Chekovning barcha nasriy asarlari va pyesalari, shuningdek, jurnalistikaga tegishli bo‘lgan asarlari kiradi. “Saxalin oroli”, “To‘liq asarlar”<sup>69</sup> va boshqa manbalarda nashr etilgan maktublar, kundalik matnlari hozircha kiritilmagan.

Anton Chekov yozuvchilik ijodiy faoliyatida nihoyatda sermahsul ijod qilib, qissa, roman, dramatik asarlar, publitsistik va tanqidiy maqolalarni yozdi. Chekov MK lug‘atida taxminan 36.153 lemma<sup>70</sup> yoki leksema mavjud bo‘lib, ular 1.381.000 so‘z belgilari (120.000 so‘z shakllari)ga to‘g‘ri keladi. Leksik birliklar 168000 ta jumlada qo‘llanilgan, shuning uchun o‘rtacha jumla uzunligi raqamlarni hisobga olmaganda taxminan 8 ta so‘zni (8, 22 so‘z) tashkil etadi. Agar qayta ishlov berilmagan matnlar qo‘shilsa, lug‘at hajmi yanada kengayadi. Chekov ijodi bilan Gyotening so‘z boyligi taqqoslanganda Gyotening so‘z boyligi taxminan 90 000 leksemani tashkil etishi ma’lum bo‘ldi, Gyote qariyb 50 yildan ortiq ijod qilgan Afsuski, bir necha imlo islohotlari va turli yillardagi

---

<sup>68</sup> Потемкин С. Б. “Авторский корпус и словарь языка Антона Чехова (Электрон ресурс://https: istina.msu.ru.)

<sup>69</sup> Чехов А. П. Полное собрание сочинения и писем в 30 томах. – М.: Наука, 1977.

<sup>70</sup> Потемкин С.Б. Авторский корпус и словарь языка Антона Чехова. (Электрон ресурс: // https: istina.msu.ru.)

muharrirlarning ishi tufayli korpus matnlari tili muallif tili bilan to‘liq mos kelmaydi, sababi matnlar elektron shaklga ko‘chirilgandan so‘ng, juda ko‘p texnik ishlar, jumladan, tokenizatsiya, lemmatizatsiyalar amalga oshirilgan. Chexov MKdagi leksemalar texnik, zamonaviy va hozirda eskirgan so‘zlar, xorijiy so‘zlar, shuningdek, muallif tomonidan umumiyligi muomalaga kiritilgan mualliflik neologizmlari<sup>71</sup> hisoblanadi. Bazada lotin yozuvida yozilgan matnlarda lemmatizatsiya qilinmagan xorijiy so‘z shakllari va qisman lemmatizatsiya qilingan 4840 ta nom mavjud. Matnlar nasr, dramaturgiya, publitsistikani o‘z ichiga oladi. A.P.Chexovning MK uning so‘z boyligini o‘rganishga katta imkon beradi, yozuvchi tili va qarashlari hamda XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy davrdan ham xabardor bo‘lishga yordam beradi.

Keyinchalik qator tadqiqotlar natijasida rus millatining madaniyatini, urf – odatlarini va tarixini aks ettiruvchi mualliflik elektron lug‘atlari va mualliflik korpuslari yaratildi. Masalan, Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti tomonidan “Kristal tilining lug‘ati”, “Griboyedov komediysi tilining lug‘ati”, Gogolning “Revizor” komediyasi, “Fontskiy komediya tili” kabi lug‘atlar tayyorlandi. Ushbu tajriba<sup>72</sup> rus leksikografiyasida juda mashhur hisoblanadi. “Lomonosov asarlarining lug‘ati”<sup>73</sup>, A.Mitskevichning “Pan Tadeush” lug‘atlari ham yuqoridagi tadqiqotlarning izchil davomi sifatida yaratildi. Bu sohadagi tadqiqotlar orasida O.V Kukushkina, A.Polikarpovlarning xizmatlari katta.

Mualliflik korpuslarini tahlil qilishdan ma’lum bo‘ladiki, MK lingvistik jihatdan bir-birini taqozo etadi. F.Dostoyevskiy, A.Chexov, mualliflik korpuslarining umumiyligi va o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. F.Dostoyevskiy

---

<sup>71</sup> Кукушкина О. В., Рюдигер Д.Ю., Суровцева Е.В., Лапонина В.В под.ред, проф. Поликарпова А.А (2012), Частотный грамматико-семантический словарь языка художественных произведений А.П.Чехова (с электронным приложением) М.: МАКС Пресс.

<sup>72</sup> Сироткина Т. А. Национальный корпус русского языка как материал для создания этнографического словаря. // Национальный корпус русского языка и проблемы гуманитарного образования. – М.: Наука, 2007. – С. 230-234.

<sup>73</sup> Волков С.С., Матвеев Е.М. “О проекте словаря “Риторика” М.В.Ломоносова. Доклад (ILI RAN). (Elektron resurs: [www.ruslang.ru/seminar\\_aut\\_lexocorg](http://www.ruslang.ru/seminar_aut_lexocorg) 250214) 159 Гик А.В. “О работе “Конкордансом к стихотворениям М. Кузмина”: том четвёртый” (Elektron resurs: [www.ruslang.ru/seminar\\_aut\\_lexocorg](http://www.ruslang.ru/seminar_aut_lexocorg))

asarlarining mavjud elektron nashrlari elektron to‘plamni o‘z ichiga oladi. Lingvistik ma’lumotlar bazasini yaratish zarurati Dostoyevskiy tilining bat afsil va to‘liq o‘rganilmaganligi bilan asoslaniladi. Yozuvchi asarlarining leksik, grammatik, morfologik, morfemik, og‘zaki va sintaktik xususiyatlari ham tizimlashtirilmagan, turli janrlarida so‘z, ibora va so‘zning umumiy qo‘llanilishi ham yagona tizim sifatida o‘rganilmagan edi. Ushbu muammo F. Dostoyevskiy MKni yaratish orqali hal qilish mumkinligi aniq bo‘ladi. F.M.Dostoyevskiy matnlari korpusi Dostoyevskiy tili lug‘atini tuzish manbasi sifatida yaratilgan bo‘lib, korpus tuzish parametrlariga lug‘at maqolasining tuzilishi va tarkibi asos bo‘lgan. Lug‘atda F.M.Dostoyevskiy leksikasini to‘liq qamrab olish maqsadida korpusga muallifning barcha badiiy, publitsistik asarlari kiritilgan. Bugungi kunda adibning matnlari turli elektron axborot tashuv vositalaridagi badiiy asarlari, publitsistikasi, epistolyar merosi sanaladi. Dostoyevskiy MKda bir necha lug‘at yaratilgan bo‘lib, A.Ya.Shaykevich tomonidan tuzilgan chastotali lug‘at<sup>74</sup> shular jumlasiga kiradi. Korpusda muallif idiomalari lug‘atiga asos bo‘lgan idiomatik ma’lumotlar bazasi ham yaratilgan. F.M.Dostoyevskiy korpusi CD-rom shakliga ham ega: u “Достоевский: тексты, исследования, материалы” deb nomlanadi. Lug‘at tuzish tamoyillari. F.M.Dostoyevskiy lug‘at-konkordansida muallifning 30 jildli<sup>75</sup> mukammal asarlari to‘plamidagi barcha matnlar (badiiy asar, publitsistika va yozuvchi “kundaligi”)dagi istalgan so‘z va so‘zshaklning qo‘llanilish konteksti, chastotasi, asosiy matnga o‘tish imkoniyati mavjud.

P.Chexov asarlari korpusida mukammal asarlar to‘plamidagi muharrir izohlariga ham korpus birligi sifatida qaralgan. Ushbu lug‘at-konkordans F.M.Dostoyevskiy asarlari korpusi va chastotali lug‘ati uchun asosiy manba vazifasini o‘tagan. Korpus uchun matnni tayyorlashning barcha bosqichi

---

<sup>74</sup> Заботкиной В. И “Методы когнитивного анализа семантики слова компьютерно-корпусный подход” / Под. общ. ред. – Москва: Языки словянской культуры, 2015. – 344 с.

<sup>75</sup> Словарь языка Достоевского. Идиоглоссарий. А-В/ Российской академия наук институт русского языка им. В. Б. Виноградова; гл. редактор чл. корр. Караулов М. 2008.

bajarilgan; uning asosiy birligi so‘zshakl va lemma hisoblanib, yozuvchining o‘z so‘zlar hamda sitata sifatida asar matniga kiritgan so‘zlar chastotasi aniqlangan. So‘z birikma sifatidagi atoqli otlar bitta birlik sifatida lemmalashtirilgan (Masalan: “Русский вестник” jurnali nom sifatida beriladi; qidiruv ham shu tartibga amal qiladi), bu esa muallifning u yoki bu nashr/asarga murojaat qilish chastotasini aniqlashga yordam beradi. Lug‘at-konkordansning<sup>76</sup> yana bir afzalligi so‘z konteksti va uning manzilini aniqlay olishi. Foydalanuvchi qidiruvga berilgan so‘zshaklni o‘ng/chap tomonidan yuzga yaqin konkordans (manbara havolasi mavjud kontekst)ni ko‘rishi, tezda asosiy matnni tanlab olishi mumkin. Bu esa matnni elektron nashr matni bilan qiyoslash imkonini beradi.

Turli lingvistik ma’lumotlarga ega bo‘lish (masalan, so‘zni izohlash, hattoki asosni aniqlash va ma’nosini taqdim etish) tilshunoslik, til tarixi, tillarni shakllantirish hamda tushunish jarayoni va evolyutsiyasi sohasidagi tadqiqotlar ko‘lmini kengaytiradi. Ushbu tuzilma ma’lumotlar bazasi sifatida F.Dostoyevskiy tilining xususiyatlarini, asarlari sintaksisini, sintaktik birliklari va ularning tuzilishini samarali tadqiq etishda, til ta’limida MKdan unumli foydalanib dars o‘tishda ahamiyatli hisoblanadi.

Korpus yaratishda matn turiga cheklovlar qo‘yilmaydi. Asosiy ish korpus uchun matnlarni yig‘ishdan boshlanadi. To‘liq matnlardan tashqari, korpusda faqat turli matnlarning parchalari bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, lingvistik masalalarni hal qilish uchun oddiy matnlar bankiga ega bo‘lish kifoya qilmaydi. Korpus yaratishga qo‘yilgan yana bir muhim talab matn va uning komponentlariga maxsus belgilarning qo‘yilishidir, ya’ni matnning lingvistik izohi (razmetkasi)ni bajarish – teglar qo‘yish. Bu belgilar muayyan axborot obyektlarini ajratib ko‘rsatish maqsadida kiritiladi hamda tashqi, ekstralolingvistik,

---

<sup>76</sup> Хамроева Ш. Муаллифлик корпусининг муштарак ва ўзига хос жиҳатлари // Сўз санъати халқаро журнали, 2020. 3-жилд, 2-сон, – Б. 86.

strukturaviy va lingvistik o‘ziga xoslikni anglatadi. Ular matnning leksik, grammatik va boshqa tavsifini ifodalaydi<sup>77</sup>.

Mualliflik leksikografiyasini yordamida ijodkor mahorati, muallif lug‘atining nazariy jihatlari, elektron lug‘atining leksik o‘ziga xosligi, MK, adabiy til me’yorlaridan foydalanish usullari, zamonaviy adabiy til kabi masalalar o‘rganiladi. Shu bois dunyoda jadallik bilan rivojlanib borayotgan sohalar qatoriga mualliflik leksikografiyasini va MK ham kiradi. V.P.Zaxarov va S.Yu.Bogdanova tuzilishi, maqsadi, turg‘un, o‘zgaruvchanligiga ko‘ra korpuslarni dinamik va statik turlarga ajratishadi. Dastlab, matn korpuslari til tizimining ma’lum bir davriy holatini aks ettiruvchi statik shaklda yaratilgan. Statik korpuslar ma’lum vaqt oralig‘ida yaratilgan matnlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu turdagi korpusga MK – yozuvchilar matnlari to‘plamlari kiradi<sup>78</sup>. Boisi asar – ijod mahsuli, juda kam holatda asar matni o‘zgartirilishi mumkin. Shu sababli muayyan ijodkor tomonidan yaratilgan asarlar o‘zgarmas matnlar hisoblanadi. Shuningdek, muayyan davr ijodkorining barcha asarlari korpusga kiritilgani uchun MK bazasi tarkibi hamda hajmi statik holatda bo‘ladi.

Mualliflik leksikografiyasini rivojlanishi natijasida bir qancha ko‘plab mualliflik korpuslari va mualliflik elektron lug‘atlari yaratildi. Rus tilshunoslari tomonidan yaratilgan “A.S.Pushkin lug‘ati” ulkan tajriba sifatida rus leksikografiyasida mashhurdir. Mualliflik leksikografiyasining muvofiqlik birligi matndagi paradigmatic munosabatlarni aniqlash, ijodiy merosning turli qismlarida so‘zning qo‘llanilishini miqdoriy tahlil qilish va aniq sintaktik vositalar to‘g‘risida xulosalar chiqarish mumkin. Lug‘atlar, bir jihatdan, lingvistik va adabiy tadqiqotlarni olib borishda samarali vosita, ikkinchidan, korpusning muhim bazasi hisoblanadi. Xususan, Alisher Navoiy MKning semantik teglari

---

<sup>77</sup> Захаров В. П. Корпусная лингвистика. – СПб. Санкт-Петербургский ГУ, 2005. – С. 6.

<sup>78</sup> Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика. – СПб. Санкт-Петербургский ГУ, 2020. – С. 59.

bazasini yaratish jarayonida “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”<sup>79</sup>, “Navoiy asarlari lug‘ati”<sup>80</sup>, “Navoiy tili lug‘ati”<sup>81</sup> asos bo‘lib xizmat qildi.

A.A.Polikarpov Pushkin elektron majmuasining yaratilishi haqida gapirib, Pushkinnning<sup>82</sup> korpusi yozuvchi asarlarining eng nufuzli nashri ekanligini, bu rus tilshunosligida birinchi tajriba bo‘lganligini aytadi. Pushkin asarlari leksikasini puxta o‘rganishning muhimligi Pushkin asarlari zamonaviy rus adabiy tili va grammatik me’yorlarining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Pushkin asarlarining mavjud elektron nashrlari<sup>83</sup> bir qancha to‘plamni o‘z ichiga oladi. Pushkin asarlari lingvistik ma’lumotlar bazasini yaratishga sabab, birinchidan, Pushkinnning til uslubi to‘liq va batafsil o‘rganilmagan bo‘lsa, ikkinchidan, ijodkor asarlari grammatikasi, morfologik, morfemik, og‘zaki va sintaktik xususiyatlari ham tizimlashtirilmaganligi bilan belgilanadi. Pushkinnning turli janrlarida so‘z va iboralarni qo‘llash uslubiyati ham yagona tizim holatida hali tizimlashtirilmagan bo‘lgan. Bunday masalalar Pushkin asarlarini elektron holatga keltirib, birlashtirish va ular ustida ishlash orqali hal qilinishi mumkinligi aniq bo‘lgan<sup>84</sup>. Shundan so‘ng Pushkin asarlaridan mutaxassislar foydalanishi, mustaqil izlanishlar olib borishi va kerakli ilmiy xulosalar olishi mumkin bo‘lgan mukammal ma’lumotlar bazasi tuzilgan<sup>85</sup>. Bunday maxsus tizimlar turli xil lingvistik ma’lumotlarga ega bo‘lish, til tarixi, tillarni shakllantirish va tushunish jarayoni hamda evolyutsiyasi sohasidagi tadqiqotlar<sup>86</sup> ko‘lamini kengaytirishga

---

<sup>79</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изохли лугати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 4 жилдли. – Тошкент: Фан, 1983-1985.

<sup>80</sup> Шамсиев П., Иброхимов С. Алишер Навоий асарлари лугати. – Тошкент: Faafur Fулом, 1972. – 784 б.

<sup>81</sup> Бердак Ю. Навоий тили лугати. Тошкент: Шарқ, 2018. – 496 б.

<sup>82</sup> Поликарпов А.А. Корпусная информационно исследовательская система. // Электронная энциклопедия языка: Вып. 1. Стихи и драмы А.С. Пушкина. Путеводитель по Пушкину. – М, 2006. <https://lex.philol.msu.ru/proekty/kiisa/>

<sup>83</sup> O’sha manba.

<sup>84</sup> Поликарпов А.А. Проблемы и перспективы автоматизации лексикологического и лексикографического анализа с помощью ЭВМ // Использование ЭВМ в лингвистических исследованиях. Киев: Наукова думка, –1990. – С. 167-180.

<sup>85</sup> Крылов Ю.К. Комплексный частотный словарь лексики современной русской прозы; Поликарпов А.А. Семантический частотный словарь пушкинской лексики (“Словаря языка А.С. Пушкина” асосида).

yordam beradi<sup>87</sup>. Jumladan, Alisher Navoiy MK ham yuqorida sanab o‘tilgan jarayonlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi, tabiiy.

Matnlarning lingvistik izohlanganligi korpusni arxiv tizimlar va elektron kutubxonalardan farqlaydi. Izohlangan korpuslar belgilash turi bo‘yicha metama’lumot va lingvistik izohlarga bo‘linadi. *Lingvistik izohlarga*, asosan, morfologik, sintaktik, semantik va stilistik, prosodik, anaforik va diskurs izohlar kiradi<sup>88</sup>. *Metama’lumot* (metalingvistik ma’lumot / ekstrama’lumot / metadata; metatext) – matn (manba)ning o‘zi haqidagi ma’lumot: nomi, muallifi, nashr yili, yaratilgan vaqt, qaysi asar tarkibi ekanligi; matn xususiyatlari: janr, tipi, uslubi; qo‘llanilish sohasi, salohiyat darjasи, auditoriya yoshi kabi ma’lumotlar hisoblanadi. Zero, shunda korpus menejeri yordamida maxsus qidiruvni amalga oshirish imkoniyatini yaratish mumkin bo‘ladi. Natijada korpusda matnlarni belgilangan davr (hatto yili bo‘yicha), janr, uslub yoki nomi, muallifi bo‘yicha tanlab olish imkoniyati yuzaga keladi. Turli mavzu va janrdagi matnlar bilan korpusning doimiy boyitilishi korpusning asosiy xususiyatidan biri hisoblanib, u yo‘naltirilgan ta’lim imkoniyatlarini kengroq ochadi.

Lingvistik izoh va metama’lumotlar matnlar ustida ishlash, tadqiqotlar olib borish, til o‘rganish, statistik tahlillarni olish, maxsus qidiruvga erishish, muayyan so‘zshaklni topish, gap bo‘lagi sifatida biror turkumni belgilab uning konkordansini olish kabi imkoniyatlarni beradi. Bu esa, o‘z navbatida, korpuslar, jumladan, mualliflik korpuslarining ta’lim jarayoni va ilmiy tadqiqotlardagi ahamiyatini oshiradi. Shuning uchun korpus deganda matnlarni kompyuterda o‘qiy oladigan holatda, tizimli, belgili (lingvistik izohli), ishonchli, filologik jihatdan mukammal ishlangan til majmuasi hamda tilshunoslikka oid muayyan ma’lumotlar beruvchi xazina tushuniladi.

---

<sup>88</sup> Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 30-31.

Korpuslarning mavjud talablar asosida yaratilishi ularning ahamiyati va zaruratini belgilab beradi. Masalan, reprezentatsiyalangan Britaniya milliy korpusi dunyoda mashhur bo‘lib, boshqa tillarning milliy korpuslari uning asosida ishlangan. Korpuslarning o‘ziga xos ikki muhim xususiyati mavjud. Birinchi xususiyat korpusning me’yorlashtirilgan muayyan tarkibga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Ya’ni korpusga tilning yoki ijodkorning barcha turdagи matnlari (turli badiiy janrlar: publitsistik, o‘quv, ilmiy, ish yuritish, so‘zlashuv, sheva kabi)ni imkon darajasida proporsional holda kiritish maqsadga muvofiq. Qoniqarli darajada bo‘lishi uchun korpusning hajmiga e’tibor qaratish zarur. Shuning uchun rus tili milliy korpusi (RTMK)ga ikki yuz million so‘z kiritish rejalashtirilgan. Ikkinchidan, korpus unga kiritilayotgan matnlarning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida muhim qo‘sishimcha ma’lumotlarni saqlaydi (bular annotatsiya yoki izoh ko‘rinishidagi matnlardir)<sup>89</sup>. Bir jihatdan MK Milliy korpusning xususiy/tarkibiy korpusi (subkorpusi) hisoblanadi. Shu bois Milliy korpuslarga qo‘yilgan talablar mualliflik korpuslariga ham tegishli hisoblanadi. Mualliflik korpuslarida muayyan ijodkor asarlari semantik teglanishi o‘quvchi dunyoqarashini o‘sirish, tafakkuri va bilimini oshirish, estetik olamini kengaytirishga yordam beradi.

Korpusni qurish maqsadi uning turini belgilaydi<sup>90</sup>. Korpus turlarida (matn tiplari bo‘yicha xoslangan korpuslar; dinamik/monitor va statik korpuslar; tadqiqotga moslangan va illyustrativ korpuslar; umumiylar va mualliflik korpuslari; bir tilli va parallel korpuslar; adabiy va dialektal korpuslar; multimediyali korpuslar; og‘zaki, yozma va aralash matnli korpuslar; urg‘uli matnli korpuslar, izohlangan va izohlanmagan korpuslar) matn korpuslarini shakllantirishning eng muhim umumiylar prinsipi ularning ishonchli, ya’ni tahrir qilingan va lingvistik izohlanganligi bo‘yicha keng qamrovli bo‘lishi kerak.

---

<sup>89</sup> Pirmatov A., Qurbonova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Urganch. 2019. – 58 b.

<sup>90</sup> Mcenery T., Hardy A. Corpus linguistics. Method, theory and practice. Cambridge, 2011. – P. 296.

Korpus matnlari mutanosibligi jihatdan ham ajralib turadi. Bu shuni anglatadiki, korpusda, imkoni boricha, ma'lum bir tilda taqdim etilgan yozma va og'zaki matnlarning barcha turlari (turli janrlardagi badiiy adabiyotlar, publitsistik, o'quv, ilmiy, me'yoriy hujjatlar, so'zlashuv, dialektal va boshqalar) kiritilishi korpusning ahamiyatlilik darajasini oshiradi. Shunda tilning so'z boyligi va grammatikasi, turli davrlar tilini qamrab olishi natijasida tilda yuz bergen lingvistik o'zgarish jarayonlarini ilmiy tadqiq etish imkoni yuzaga keladi.

Korpus quyidagi turdag'i matnlardan iborat bo'lishi mumkin:

- ma'lum bir yozuvchining matnlari;
- ma'lum davrdagi o'n yillik yoki yuz yillik (asriy) matnlar;
- muayyan sohaga oid matnlar;
- xalq tilini va jamiyat xususiyatlarini konkret tarzda aks ettirib turuvchi matnlar;
- uslubiy xoslangan matnlar;
- og'zaki yoki yozma matnlar kabi.

Yuqorida til korpuslarining ahamiyati, zarurati va mualliflik korpuslarini yaratish omillari yoritildi. Tubanda mualliflik korpuslari borasida yanada aniqroq xususiyatlar beriladi.

### **Mualliflik korpusshunosligining asosiy vazifasi nima va mualliflik korpuslaridan foydalanish sababi nimada?**

- muayyan ijodkor shaxsini o'rganish;
- adib uslubini tadqiq etish;
- muayyan shoir ijodini lingvopoetik tahlil qilish;
- ijodkorning so'z qo'llash imkoniyati va mahoratini tadqiq etish;
- mualliflik lug'atlarini yaratish;
- mualliflik iboralarini jamlash;
- MKdagi ijodkor shaxsi va uslubini namoyon etuvchi parametrlar orqali anonim asarlar muallifini topish;

– mualliflik parafraza, parema, hikmatlarini jamlash; tasviriy ifodalarning qo'llanilish ko'lmini ijodkor kontekstidan aniqlash mumkin bo'ladi. Mualliflik korpusshunosligida muayyan muallif korpusini yaratish, uning bazasini shakllantirish maqsadida ushbu vazifalar bajariladi.

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi barcha g‘azallarda Navoiy hikmatlari o‘rin olgan. Shu bois Alisher Navoiy MK bazasiga E.Ochilovning “Navoiy hikmatlari” jamlanmasidagi “Badoye’ ul-vasat” devonidan joy olgan g‘azallarga mazmunan singdirilgan turli mavzulardagi ikki yuz o‘ttiz to‘qqizta<sup>91</sup> hikmatlar kiritilgan bo‘lib, korpusning semantik teglari (izohtalab so‘z ma’nolari) o‘ziga xosligi natijasida bayt mazmunini oson bilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Hikmatlar orqali o‘quvchi olam va odam haqidagi, shaxs va jamiyat, hayot mohiyati va mazmuni, tiriklik va o‘lim, ma’rifat va jaholat, haqiqat va yolg‘on, yaxshilik va yomonlik, do‘slik va dushmanlik, muhabbat va sadoqat, diyonat va xiyonat, savob va gunoh, halol va harom, saxiylik va baxillik, samimiyat va riyo, qo‘yingki, insoniyat ko‘nglini band etib kelgan barcha azaliy va adabiy mavzular, qadriyat hamda tushunchalar, fazilat va illatlar haqidagi shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy yuksak mushohadalarni topishi, shubhasiz<sup>92</sup>. Navoiy asarlarining xalqchilligini ta’milagan jihatlardan biri deyarli barcha g‘azallarda betakror hikmatlardan foydalangan:

Tutay jahonda Sulaymon seni va yo Jamshid,  
Ne munga jom vafo qildi, ne anga uzuk. (331-g‘azal, 6-bayt)

Shoir sultonlarni ta’riflar ekan, rostlik, halollik,adolat bilan davlatni boshqarishi amr etilganligiga alohida urg‘u beradi. Jamshid va uning jahonnamo jomi, Sulaymon payg‘ambar va uzuk bilan bog‘liq qissalar mavjud bo‘lib, qadah Jamshidga, uzuk Sulaymon payg‘ambarga in’om etilgan. Lekin bu narsalar ularga vafo qilgani yo‘q, bu dunyoda boqiy qolishiga yordam bera olmadilar, deya

---

<sup>91</sup> Ochilov E. Navoiy hikmatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 110-141.

<sup>92</sup> Ochilov E. Navoiy hikmatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 2.

dunyoning o‘tkinchiligiga ishora qiladi. *Sulaymon* va *Jamshid* baytda talmeh san’atini yuzaga keltirgan. Yana bir baytda tabiatdan olingan tasviriy ifodalar orqali obrazlilikni kuchaytirib, mazmun ta’sirchanligini oshirmoqda:

Jahon osoyishin ollingda mushkil qilmakim, bordur

Tutay mushkil desang – mushkil va gar oson desang – oson. (452-g‘azal, 7-bayt)

Yuqoridagi baytda olam rohatini sen o‘zing uchun mushkul qilib olma, bu dunyoni sen mushkul desang mushkul, oson desang oson bo‘ladi. Inson boshiga taqdirdan kelgan qiyinchiliklarni sinov deb bilib, sinovlarning berilishi yaxshiliklar uchunligini anglasa, har qanday mushkulliklar ham oson o‘tadi, deydi shoir.

Quyidagi bayt ham o‘quvchi uchun hikmat manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Baytning mazmuni shunday: agar sen ochko‘zlikni tark qilsang, bu ulug‘ ishdir, bunda olam ahli bir taraf-u sen bir taraf bo‘lasan. Mazkur baytda inson nafshi, dunyodan ortiqcha narsalar kutishni to‘xtatsa, bu o‘sha kishi uchun ulkan ish (saodat) ekanligini ta’kidlaydi va boylik to‘plashga jon-jahdi bilan berilishga nisbatan qanoat qilishni, izzat-nafsga ega bo‘lishni, har qanday qiyin sharoitda ham pastlik qilmaslikni, muhtojlikni shu yo‘l bilan yengishni targ‘ib qiladi:

Sen agar tarki tama’ qilsang, ulug‘ ishdur bukim,

Olam ahli barcha bo‘lg‘ay bir taraf, sen bir taraf.

**MKning tarixiy ahamiyati.** Navoiy g‘azallari MKning afzallik jihatlaridan yana biri shundaki, g‘azallarida tarixiy, adabiy, mifik shaxslar, geografik va etnik joy nomlari ishtirok etgan baytlar juda ko‘p uchraydi, bu badiiy nuqtayi nazardan talmeh san’atini yuzaga keltiradi. Asosiy jihat esa o‘quvchi baytdagi izohtalab so‘zlarning mazmunini aniqlash jarayonida tarixiy, badiiy shaxslar, va geografik, etnik joy nomlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Shoir quyidagi baytda *Hotam*, *Qorun*, *Afridun kabi* tarixiy shaxslar va afsonaviy

qahramon – *Jamshid* obrazlari orqali o‘quvchiga tarbiyaviy ahamiyatga ega fikrlar bilan birga tarixiy ma’lumotlarni taqdim etmoqda:

Qani Hotam, qani Qorun, qani Jamshid-u Afridun?

Bas ehson qil sanga gardundin adno e’tibor o‘lg‘ach<sup>93</sup>.

*Hotam* – saxiyligi va olivyjanobligi bilan Sharq mamalakatlarida dong taratgan shaxs. Yamandagi toy qabilasidan bo‘lganligi uchun Hotami Toy nomi bilan shuhrat qozongan. *Qorun* – Muso paygambar (a) zamonida yashagan xasis boyning nomi. Sehr-jodu tufayli juda ko‘p boylikka ega bo‘lib, Muso (a)ga qarshi fitna uyuştiradi<sup>94</sup>. Muso (a) duosi tufayli yer qa’riga kirib ketadi. Rivoyatlarga ko‘ra, bugun topilayotgan oltin konlari aslida Qorun xazinasi bo‘lgan ekan<sup>95</sup>. *Jamshid* – qadimgi Eronning afsonaviy podshohi. U “Jomi jahonnamo” – jahonni ko‘rsatuvchi jom ixtiro qilgan bo‘lib, unda dunyodagi nafaqat hozirgi, balki o‘tmishda yuz bergen va kelajakda sodir bo‘ladigan voqaelarni ham aks etar ekan. *Afridun* (*Fariyun*) – qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub oltinchi hukmdor. U adolat timsoli hisoblanadi. Ularga mana shunday ulug‘ marhamatlar: toj-u taxt, behisob mol-u davlat in’om etilgan edi, lekin ular ham bu foni yunyoda mangu qolmadilar, olamdan o‘tdilar. Bayt mazmuniga shunday xulosa qilish mumkinki, Olloh insonni mukofotlab mol-u davlat bilan siylasa, muhtojlarga ehson qilib, hamisha yaxshilik sari intilish, ezgu amallar qilish uning nomini manguga muhrraydi.

**MKning lingistik ahamiyati.** MKda muallif tilini to‘liq, keng, obyektiv ko‘rsatish imkoniyati bor, shuning uchun bunday korpuslar boshqa axborot bankidan afzalligi bilan ajralib turadi. Korpus turli xildagi tadqiqot uchun asos, manba, vosita vazifasini o‘tay oladi. Bunday korpuslarning afzalligi yana shundaki, ular yordamida nafaqat biron bir so‘z yoki jumlaning, balki butun boshli

---

<sup>94</sup> Ochilov E. Navoiy hikmatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 23.

<sup>95</sup> Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – B. 721.

asar tilini bilish imkoniyati mavjud<sup>96</sup>. Ta’kidlash joizki, mualliflik korpuslari tadqiqotchilar uchun eng qulay axborot manbayi hisoblanishi bilan bugungi kunning nazariy hamda amaliy sohalarining uzviy ajralmas va muhim qismiga tayanib ulgurdi. Fanga oid tadqiqotlar hamisha dalillar asosida ish ko‘rishni, muayyan tadqiq mavzusi doirasida faktlar yig‘ishni, to‘plangan materiallarni sistemaga solishni taqozo etadi. Bunday katta hajmli ishni bajarishda mualliflik korpuslari tadqiqotchining vaqtini, mehnatini tejaydigan bebahो ish qurolidir. Aslida, mualliflik korpuslari texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo‘libgina qolmay, muayyan muallif asarlarining axborot tizimiga kiritilgan, ijodkor uslubini o‘rganishga, muallif haqidagi kutilmagan savollarga ham javob topishga yordam bera oladigan tizimdir.

Navoiy MKdan mutafakkir so‘z birliklarining barcha lingvistik xususiyatlari, undagi o‘zgarishlar – o‘sha davr nuqtayi nazarida tildagi yangilanish va bugungi ijtimoiy hayotda so‘zlarning iste’moldan chiqishi, faollashish va passivlashish holatlari hamda lingvistik hodisalari haqida tezkor, aniq va to‘liq ma‘lumotlarni oladi, osonlik bilan turli tipdagi katta hajmli akademik lug‘atlar tuzish, matnlarga avtomatik ishlov berish imkoniyatini yaratadi. Mualliflik korpuslaridagi ma‘lumotlarning ilmiy manbalar asosida tahrir qilinganligi korpusning ishonchlilagini kafolatlaydi. Lingvistik hodisalarning butun spektrini to‘liq aks ettirishi – zaruriy ma‘lumotlarni har tomonlama va obyektiv o‘rganishga imkon beradi<sup>97</sup>. Katta hajmdagi ma’naviy xazina joylashgan korpusdan tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy va chog‘ishtirma-tipologik tadqiqotlarida, leksikografik izlanishlarni olib borishda, Alisher Navoiy asarlari yordamida XV asr chastotali lug‘atlarini yaratishda, istorizm va arxaizmlarni jamlashda, so‘zlar etimologiyasiga oid tadqiqotlarni olib borishda, bugungi

---

<sup>96</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 156.

<sup>97</sup> Волков С., Герд А., Гринbaum Н., Захаров П., Муратов А., Панков И. Корпус текстов как особый тип лингвистической электронной библиотеки / Словарь русского языка XIX века. Проблемы. Исследования. Перспективы. СПб.: Наука, 2003. – С. 86.

zamon o‘quvchisi tushunishi qiyin bo‘lgan so‘zlar izohini korpusdagi tezkor ravishda taqdim etilgan kontekstual misollar massivi yordamida tushunishga, uning semantik izohini topishda yordamchi vosita hisoblanadi. Bu esa auditoriya yoshidan qat’i nazar mumtoz adabiyotimizga qiziquvchilar, Navoiy davri tilini tushunuvchilar va uning asarlarini mutolaa qilib Navoiy ma’naviy xazinasidan bahramand bo‘luvchilar safining oshishiga xizmat qiladi. MKning lingvistik asosi “so‘z – leksemadan uning mazmuniga qarab borish” hisoblanadi. Bunda tarjima tilning morfologik, sintaktik va semantik tahlili, lug‘atlar, grammatic qoidalar, matnlar korpusiga asoslanib amalga oshiriladi<sup>98</sup>.

**MKning ta’limiy ahamiyati.** MK ta’lim jarayonida muallif asarlarining ta’limiy, ijtimoiy, tarixiy, lingvodidaktik, ahamiyatini yoritib berishda, muallif asarlarida qo‘llanilgan so‘zlarning dialektal xususiyatlarini tasniflashda, Milliy tilning semantik xususiyatlarini, integral va differensial semalarni o‘rganishda muhim sanaladi.

MK materialidan ta’limiy maqsadda foydalanish o‘ta ahamiyatli masala. Darhaqiqat, til korpuslari ta’lim jarayonida eng muhim o‘quv quroli. Sababi mavzulashtirilgan matn ta’lim jarayonida o‘quv materiali tayyorlashda qulay axborot manbayi vazifasini bajaradi. Lingvodidaktikada MKning ahamiyati shundan iboratki, o‘qituvchi uchun korpus tensiz xazina, undan o‘quv mashg‘uloti uchun serqirra, mazmunli o‘quv materialini tayyorlashi mumkin. XV asr til uslubini bugungi tilga qiyosan o‘quvchilarga o‘rgatish mumkin. Badiiy matnlarning statistik tahlili natijasida matnda tez-tez qo‘llaniluvchi til birliklari (otlar, sifatlar, kalit so‘zlar, fe’llar, grammatic shakllar, jumla qurilishi, bir so‘z bilan aytganda, yozuvchining uslubi – o‘ziga xos yozish uslubini ko‘rsatuvchi vositalar) lingvostatistik tahlil yordamida aniqlanadi. Turli matnlardan olingan dalillarning qiyosiy tahlili bizga o‘scha matnning mazmun-mundarijasini, matn tuzilgan davrni, dalillarni argumentlash xarakterini va hatto mualliflikni

---

<sup>98</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 78.

aniqlashga imkon beradi<sup>99</sup>. Alisher Navoiy MK semantik bazasini shakllantirishda bugungi kunda iste'moldan chiqqan, tarixiy va arxaik so'zlar, kam qo'llanilgan izohtalab so'zlarga asosiy e'tibor qaratilgan. Navoiy shaxsi va XV asr davr tilini foydalanuvchiga anglatish uchun aynan shunday leksik birliklarning semantik bazasi yaratildi<sup>100</sup>. Izohtalab so'zlarning mazmunini anglamasdan turib g'azallarning chin ma'nosini tushunish oddiy kitobxon uchun mushkul. Navoiyning "Badoye' ul-vasat" devonidan joy olgan g'azallardagi izohtalab so'zlarning izohli lug'atlar asosidagi semantik teglar bazasi asosida yaratilgan Alisher Navoiy MK tez va qulay, ishonchli ma'lumotlarni beradi. Korpusda baytlar, misralar Navoiy yashagan davr mulohazalari bilan yondashilgan, izohtalab so'zlar manbalar asosida tahlil qilingan. Navoiy g'azallarida bugungi kunda iste'moldan chiqqan, talaffuzi va ma'nosi mutlaqo o'zgarib ketgan so'z va so'z birikmalar ko'p sonni tashkil etadi. Jumladan:

<b>Navoiy g'azallaridagi bugungi kunda iste'moldan chiqqan so'zlar</b>	<b>Navoiy g'azallaridagi bugungi kunda iste'moldan chiqqan so'zlarning zamonaviy o'zbek tilshunosligidagi ifodasi</b>
joma	to'n, kiyim
ajmal	eng go'zal, juda chiroqli
azhar	juda ochiq, eng porloq
baso	ko'p, ancha
dark	idrok, aql, fahmlash
deh	qishloq
zardak	sabzi

Ta'lim jarayonida adabiyot darg'alari ijodiga bot-bot murojaat qilishning asosiy sababi ijodkor iste'dodining serqirraligi, teran mulohazaga yetaklovchi yuksak saviyadagi asarlarining mavjudligi, shuningdek, ularga berilgan jahoniy e'tiroflar, asarlaridagi badiiy-estetik g'oyalarning san'atkorona ifodalari bilan

<sup>99</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011. – B 154.

<sup>100</sup> Abjalova M., G'ulomova N., Rashidov H. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun Navoiyning "Badoye' ul-vasat" devonidagi g'azallarning semantik bazasi. Guvohnoma № BGU 00583. – Toshkent, 2022.

bog‘liq. Shu bois uzluksiz ta’lim tizimida yangi davr Milliy o‘quv dasturida Alisher Navoiy hayoti va ijodini ta’lim va tarbiya berishda o‘rganish boshlang‘ich hamda yuqori sinf o‘quvchilarida milliy g‘ururni yuksaltiradi. Milliy g‘urur insonni ma’naviy jihatdan shakllantirishning bosh omili hisoblanadi. O‘quvchilarning Navoiyona aks etuvchi nodir adabiy durdonalarning falsafiy, ilohiy-irfoniy mohiyatini his qilishda, mag‘zini anglashda umumta’lim maktablari uchun yaratilayotgan o‘quv dasturlarining ahamiyati katta hisoblanadi. Zero, misralar mag‘ziga chuqur mulohazasiz yetish imkondan tashqaridir<sup>101</sup>.

Shu o‘rinda 3-sinfdan 11-sinfgacha amaldagi dasturlarda Alisher Navoiyning ijodiga ajratilgan vaqt va mavzularga e’tibor qaratish o‘rinli. Buning uchun, avvalo, umumiyl o‘rta ta’lim maktablari uchun 2021-2022-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja va dasturiga murojaat qilindi<sup>102</sup>. Unga ko‘ra Alisher Navoiyning hayoti va ijodi o‘quv reja va dastur asosida quyidagicha mavzu va soatlarda o‘rganiladi:

Sinf	O‘rganiladigan mavzu nomi	Soat
<b>3-sinf</b>	“Donolarning donosi” (matn)	1 soat
<b>4-sinf</b>	“Alisherning yoshligi” (matn)	1 soat
<b>5-sinf</b>	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. “Hayrat ul-abror” dostonida berilgan “Sher va Durroj” hikoyatini o‘qish. “Sher va Durroj” hikoyatini tahlil qilish. “Hayrat ul-abror” dostonidagi egrilik va to‘g‘rilik tushunchalari yuzasidan suhbat.	3 soat
<b>6-sinf</b>	Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi hikmatlar va hikmatli so‘zlar matni ustida ishslash. Hikmatli so‘zlarning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati.	3 soat
<b>7-sinf</b>	Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. “Mehr va Suhayl”. (“Sab’ai sayyor” dan). “Mehr va Suhayl” she’riy san’atlar haqida. Nazorat ishi (insho) “Suhayl timsoliga tavsif”.	4 soat
<b>8-sinf</b>	Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Ruboiylari tahlili. Nazariy ma’lumot: ruboiy. Tuyuqlari	4 soat,

<sup>101</sup> Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006. – B. 255.

<sup>102</sup> Xalq ta’limi vazirligining “Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari uchun 2021-2022-o‘quv yiliga mo‘jallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 297-buyrug‘i. 2020-yil. 9-dekabr.

	tahlili. Fardlarni o‘qib, tahlil qilish. Nazariy ma’lumot: fard.	
<b>9-sinf</b>	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Xamsachilik tarixi. “Farhod va Shirin” dostonidan o‘qish. Doston matni ustida ishlash. Doston timsollari tahlili. Nazariy ma’lumot: komil inson. Nazorat ishi (insho)	12 soat
<b>10-sinf</b>	Alisher Navoiy lirikasi. Alisher Navoiy haqida uning zamondoshlari. Navoiy g‘azallar tahlili. Navoiy qit’alari tahlili. Navoiy ruboiylari tahlili. Nazorat ishi (insho) “Navoiy lirikasining badiyati” mavzusida.	5 soat
<b>11-sinf</b>	Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni. Saddi Iskandariy” dostonining ma’rifiy va adabiy ahamiyati. Dostonning poetik xususiyatlari. Nazorat ishi (insho) “Saddi Iskandariy” dostonida adolatli hukmdor sifatidagi qarashlarning aks etishi”.	6 soat

Ushbu mavzularni o‘quvchilarga mazmunli yetkazish, Navoiy tilini tushuntirish uchun ham korpus asosiy elektron majmua bo‘la oladi. Uzluksiz ta’lim tizimida Navoiyning hayoti va ijod namunalarini o‘quvchi yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda o‘rgatilishi samarali ta’limga erishishning yo‘llaridan biri hisoblanadi.

**MKning ijtimoiy ahamiyati.** MKlari o‘quvchilarning izlanuvchanlik salohiyatini o‘stirib, kichik tadqiqotlarni ishonchli dalillar asosida bajarishiga imkoniyat beradi. Ta’kidlash joizki, mualliflik korpuslarining ijtimoiy ahamiyati – keng qamrovli hisoblanib, undan lingvistik, etnopsixolingvistik, sotsiologik tadqiqotlarda, ona tili, adabiyot, xorijiy til ta’limida, matnga avtomatik ishlov berish, tarjima dasturlarini tuzishda foydalanish mumkin. Mualliflik korpuslaridan “ish quroli – so‘z” bo‘lgan barcha soha vakillari: tilshunos, tarjimon, o‘qituvchi, dasturchi, jurnalist, muharrir kundalik faoliyati jarayonida keng foydalanishlari mumkin<sup>103</sup>. Muayyan muallifga tegishli bo‘lgan parafraza, parema, hikmatli so‘zlar nutqiy ko‘nikmalarning rivojlanishiga yordam beradi. Mualliflik korpuslari tilning lug‘at boyligida bo‘layotgan o‘zgarishlar (neologizm, istorizm,

---

<sup>103</sup> Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Монография. – 2020. – Б. 62.

arxaizm hodisalari)ni kuzatishning eng qulay vositasi hamdir. Muallif qo'llagan so'zlarning leksik-semantik birikish imkoniyatini tahlil qilish jarayonida qadimiy va yangi avlod lug'atlarini, grammatikasini taqqoslash imkoniyati kengayadi. MK vositasida muallif so'zining serqirraligi va bir vaqtning o'zida bir necha semantik kategoriyaga mansub bo'la olishini farqlashda amaliy yordam beradi. Mualliflik korpuslari orqali shoirming lisoniy qarashlari bilan bir qatorda, ijtimoiy sohalarga munosabatini, siyosiy masalalarga qarashlarini ham bilish imkoniyati bo'ladi. N.Mallayev Navoiy g'azallarining ijtimoiy ahamiyati haqida fikr yuritib, shunday deydi: "Navoiy haroratli ishqiy g'azallar bilan birga ijtimoiy-siyosiy mavzularda ham g'azallar bitdi, oshiq, raqib va rind obrazlari bilan chegaralanib qolmadi, obrazlar turkumiga mutafakkir va murabbiy obrazlarini hamda shohlarni, shayxzohid va vozlarni kiritdi"<sup>104</sup>. Shoir har bir g'azalidagi ma'no va g'oyaga mos tarzda ohangdorlik hamda joziba yarata oldi. Navoiyning g'azaliyoti bilan birga o'zbek lirikasiga birinchi marta ishqiy tematikadan tashqari, falsafiy-didaktik va ijtimoiy muammolar ham muhim mavqeni egallaydi<sup>105</sup>. Navoiyning barcha lirik merosi inson va jamiyat haqidagi qarashlar desak, mubolag'a bo'lmaydi.

**Mualliflik korpuslarining tarbiyaviy ahamiyati.** Ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, o'quvchilarda ajodolar ruhini ulug'lash ko'nikmalarini rivojlantirish, mutolaa madaniyatini oshirish, ulug' ijodkorlar merosi va o'zbek mumtoz adabiyotini o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy-ta'limiy mavzuda Ibrohim Haqqul shunday mulohaza yuritadi: "Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini o'shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so'zлari diliga o'rashgan odam, o'zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi va kuch qudratini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o'z-o'zidan xalq dardi – tashvishlarini yengillatishga bel bog'laydi. Fikrni fikrsizlikka, ilm-ma'rifatni

---

<sup>104</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, 1965. – Б. 399.

<sup>105</sup> Husan M. Oshiq sharhi holi ifodasida badiiy san'atlarning o'rni. // <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/husan-maqsud-oshiq-sharhi-holi-ifodasida-badiiy-sanatlarning-orni.html>. 2015.

nodonlikka va jaholatga qarshi qurol o‘rnida ishlatadi. Navoiyni yetarli darajada bilish-adolat, diyonat, imon-e’tiqodning kuchiga ishonch demakdir”<sup>106</sup>.

Umuman, Alisher Navoiy o‘ta keng qamrovli ijod mahsuliga ega bo‘lib, Alisher Navoiy MK o‘quvchiga Navoiydagি komillik fazilatlarini, asarlaridagi falsafiy, ishqiy, ta’limiy, tarbiyaviy, axloqiy, ijtimoiy, lingvistik kabi ma’lumotlarni anglashga yordam beradi, foydalanuvchini mushohada yuritishga undaydi.

### **1.3. Mualliflik korpuslarida reprezentatsiya masalasi**

Korpus lingvistikasining eng muhim tushunchasi reprezentativlikdir. Reprezentativlik deganda korpus matnlariga berilgan zaruriy (yoki yetarli) va mutanosib tavsif tushuniladi<sup>107</sup>. Har qanday korpus yaratishning eng birinchi sharti korpusning reprezentativlik xususiyatlarini kengroq yoritib berish hisoblanadi. Mualliflik korpuslarining asosiy e’tiborli tomoni muallif tili, ijod uslubi va ijod mahsuli sifatida tadqiq etilayotgan asarlarining reprezentativligini korpusda aks ettirishga erishish sanaladi. Reprezentatsiyani aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud. Aytish mumkinki, umumiyl til (milliy) korpusiga nisbatan bu konsepsiyanı aniq matematik tarzda hisoblash va tavsiflash mumkin emas, ammo milliy va mualliflik korpuslarida ham loyihalash bosqichida foydalanish mumkin. Korpus kompyuter dasturi shaklida tilning barcha jihatlarini yoritib bera oladi. Shuning uchun ham korpus lingvistikasi tilning xususiyatlarini e’tiborga olgan holda uni qayta ishlashni nazarda tutadi<sup>108</sup>. Reprezentativlik talablariga to‘liq javob beradigan korpusni yaratish qiyin masala, ammo ahamiyatliligi o‘ta muhim, bunday korpuslar hatto ideal sanaladi. Bunday

---

<sup>106</sup> Ibrohim H. Navoiyga qaytish. – Toshkent: – 2007. – B. 10.

<sup>107</sup> Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – С. 5.

<sup>108</sup> Valiyev T. Kibernetik leksikografiya va til korpusi muammolariga doir // Ilmiy axborotnoma. – Samarqand, 2016. №2 (96). – B. 68.

korpuslar tilshunoslar qatorida boshqa mutaxassislarga ham tilni (va til orqali xalq madaniyatini) o‘rganish uchun kuchli vosita hisoblanadi<sup>109</sup>.

Korpus lingvistikasi o‘zining predmeti sifatida lingvistik tadqiqotlar uchun mo‘ljallangan lingvistik ma’lumotlarning reprezentativ massivlarini yaratish va ulardan foydalanishning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlarini keng foydalanuvchilar manfaatlari uchun xizmat qilishni maqsad qiladi<sup>110</sup>. Reprezentativlik imkoniyatlari keng yoritilgan korpuslardan foydalanuvchilar o‘zlariga kerakli bo‘lgan ma’lumotni qulay tarzda oladilar. Korpuslar maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturi orqali amalga oshirilgan bo‘lib, zaruriy ravishda so‘zlarni aks ettirishni o‘z zimmasiga oladi. Asosiysi, korpus qidiruv tizimiga berilgan so‘zni tadqiq etadi, korpusdagi misollar statistikasini aniqlaydi va bog‘liqlik chastotasini hisoblaydi, maxsus qidiruv bo‘yicha misollarni taqdim etadi, bundan foydalanuvchi keyingi tadqiqotlarni davom ettira olish imkoniga ega bo‘ladi<sup>111</sup>. Reprezentatsiya ma’lumotni korpusdan qidirish natijasida har qanday so‘z uchun muvofiqlikni yaratishga imkon beradi. Korpus asosida so‘z shakllari, leksemalar, grammatik kategoriyalarning chastotasi haqida ma’lumotlar olish, chastota va kontekstlarning turli davrlardagi o‘zgarishini kuzatish, leksik birliklarning birgalikda (unigramma, bigramma, trigramma)<sup>112</sup> kelishi haqida ma’lumotlar olish mumkin. Muayyan davr uchun lingvistik ma’lumotlarning reprezentativlik majmuasi<sup>113</sup> tilning lug‘aviy tarkibidagi o‘zgarish jarayonlari dinamikasini o‘rganish, turli janrlarda va turli mualliflar tomonidan leksik va grammatik xususiyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu bois korpusni yaratishda e’tiborga olish kerak bo‘lgan asosiy jihat korpus reprezentatsiyasi hisoblanadi. U korpus hajmini, ya’ni korpusga kiritilishi kerak bo‘lgan

---

<sup>109</sup> Лаврентьев А.М. Корпусная лингвистика: идеология, методы, технологии. <file:///C:/Users/User/Desktop/KORPUS.pdf>

<sup>110</sup> Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – С. 5.

<sup>111</sup> Valiyev T. Kibernetik leksikografiya va til korpusi muammolariga doir // Ilmiy axborotnoma. – Samarqand, 2016. №2 (96). – B. 68.

<sup>112</sup> Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturining lingvistik modullari [Matn]: monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 75.

<sup>113</sup> Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – С. 4.

matnlarning soni va turlarini, bitta matndagi so‘zlar sonini va korpusdagi so‘zlarning umumiy sonini, shuningdek, ma’lumotlarning turlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi<sup>114</sup>. Mualliflik korpuslarini yaratishda ham, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun muallif uslubi va uning asarlarining reprezentativlik xususiyatlariga e’tibor qaratish kerak.

Ma’lumki, har qanday korpus insonning nutqiy faolligi – murakkab semiotik obyektni aks ettiradi. Ushbu masalani hal qilish, korpus materiali bo‘yicha olingan ma’lumotlarning ishonchlilagini ta’minalash reprezentativlik va muvozanat<sup>115</sup> kabi mezonlar bilan belgilanadi. Mualliflik korpuslarida muallif hamda uning asarlariga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni to‘liq va izchil keltirish muhim. Korpus yaratuvchilarining vazifasi imkon qadar ko‘proq mavzuga tegishli ma’lumotlarni to‘plash, saralash va matnga ishlov berish hisoblanadi. Ammo bunday jarayonning asosiy mohiyati nafaqat til materiali miqdorida ko‘rinadi, balki matnlarning o‘zaro mutanosibligida ham namoyon bo‘ladi.

Korpusning reprezentativligi va mutanosibligi turli davrlar, janrlar, uslublar, mualliflar matnlarining korpusda yetarli va mutanosib tavsiflanishini, ya’ni til yoki subtilning barcha xususiyatlarini aks ettiradi. Ular korpus materiali bo‘yicha olingan natijalarining ishonchlilagini ta’minalaydi<sup>116</sup>. Matnlari reprezentatsiyalangan mualliflik korpuslarida muallif asarlari tilini hamda yozuvchi uslubini to‘liq va aniq holda, qulay va qisqa vaqt ichida ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Shuning uchun reprezentatsiya talabiga asosan muayyan muallifning barcha asarlari adabiy janrlar bo‘yicha mutanosib ravishda olinishi va katta hajmdagi asarlarning korpus bazasiga kiritilishi lozim. Ushbu

---

<sup>114</sup> Koder – A multi-register corpus for investigating register variation in contemporary German. ISSN 2243-4712. Asociación Española de Lingüística de Corpus (AELINCO) DOI 10.32714/rcl.07.04. – pp. 69-83.

<sup>115</sup> Богоявленская Ю.В. Сопоставительный объектно-ориентированный корпус: определение понятия и принципы формирования. Уральский государственный педагогический университет, Екатеринбург, Россия УДК 81’42(045) – С. 13.

<sup>116</sup> Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика. – СПб. Санкт-Петербургский ГУ, 2020. – С. 23.

talabga binoan keyingi tadqiqotlarda Alisher Navoiyning boshqa asarlari janrlar xilma-xilligida semantik teglanib, korpusga kiritilishi rejalashtirilgan.

Mualliflik korpuslari bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda muallif ijodini har taraflama o‘rganish uchun tadqiqot manbayi va asosiy vosita vazifasini o‘tay oladi. MK muallif tilining kompyuter dasturlari asosida ishlangan, sayqallangan modeli sifatida uning o‘qishlilagini ta’minlaydi va mumtoz asarlarni tushunishga yordam beradi. MKni yaratishda muallif asarlarining matnlarini sinchkovlik bilan tahlil qilish, o‘rganish juda muhim. V.Rikov korpuslar ma’lumotlarning ishonchlilagini belgilaydi, shu sababdan bu masalani “matnlarning katta massivlarini yoki nutq faoliyatining boshqa qismlarini yetarli darajada aks ettirish, moslashtirish yoki birlashtirish muammosi sifatida” ko‘rib chiqish mumkinligini ta’kidlaydi<sup>117</sup>. I.F.Ganiyeva reprezentativlik – bu materialning hajmi emas, balki namoyish etilgan til fragmentining mutanosiblidir,<sup>118</sup> deydi. Ammo korpusning o‘ziga xos jihatlaridan biri katta o‘lchamning (o‘n millionlab so‘z qo‘llanishlari) mavjudligi va aniq lingvistik izohlangan matn materialiga egaligi hisoblanadi. A.M.Lavrentev “Корпусная лингвистика: идеология, методы, технологии” maqolasida korpus va matnlar to‘plami (yoki kutubxonasi) o‘rtasida farq mavjudligini, katta o‘lchamlar va lingvistik belgilarning mavjudligi, ko‘pincha, korpusning xarakterli belgilari sifatida tilga olinishini aytib, korpusning o‘ziga xos xususiyati, eng avvalo, uning reprezentativlik xususiyatida ekanligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, reprezentativlik talabiga javob beradigan korpus hajmining kattaligi u mo‘ljallangan tadqiqot turiga bog‘liqligini ta’kidlaydi<sup>119</sup>. Mualliflik korpuslari muallif hayoti va ijodi (nasriy, nazmiy, dramatik turdagи asarlari)ni lingvistik tadqiqotlar asosida ishlangan matnlar massividan iborat bo‘lib, elektron

---

<sup>117</sup> Рыков В.В. Корпус текстов как реализация объектно-ориентированной парадигмы. 2002. <https://www.dialog-21.ru/digest/2002/articles/rykov/>

<sup>118</sup> Ганиева И.Ф. Об использовании корпусов в лингвистических исследованиях. Статья. //Вестник Башкирского университета. 2007. Т.12, № 4. <https://www.twirpx.com/file/483985/>

<sup>119</sup>Лаврентьев А.М. Корпусная лингвистика: идеология, методы, технологии. <file:///C:/Users/User/Desktop/KORPUS.pdf>

kutubxonadan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Mualliflik korpuslari, eng avvalo, tilshunoslar va tadqiqotchilar uchun muhim bo‘lgani bois matnlar matn tipi yoki janrlar bo‘yicha mutanosib tarzda, katta hajmda bazadan joy olishi zarur.

MKnii tuzish loyihasi va bosqichlarini keyinchalik kengaytirib, takomillashtirib, to‘ldirib borish jarayonlarini qamrab olishi mukammal mualliflik korpuslarini yaratishning asosiy bosqichidir. Mualliflik korpuslarini tuzishda va undan ommaviy foydalanish imkoniyatini yaratishda internet tarmog‘i salmoqli ahamiyat kasb etadi. Internet tarmog‘i yordamida MKga muallif qalamiga mansub kundalik yozishmalar va publisistik namunalarini ham topib, korpusga kiritish mumkin bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan korpusning hajmi va tarkibi o‘zgarishi mumkin, ammo bu o‘zgarishlar uning reprezentativligiga ta’sir etmasligi kerak<sup>120</sup>. Mualliflik korpuslarining reprezentativligida muallifga tegishli ma’lumotlarning xilma-xilligi, ammo aniqligi o‘ta muhim. V.P.Zaxarov va S.Yu.Bogdanovaning fikricha, korpusning janriy-mavzuiy tuzilishi ko‘rib chiqilayotganda korpus matni sifatida qanday birlikning olinishi muammofiga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi<sup>121</sup>.

Tadqiqot obyekti hisoblanmish Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoni idagi g‘azallarni elektron bazaga joylashtirishda reprezentativlik masalasi o‘ziga xoslik kasb etdi. Devondagi g‘azallar yaxlit manba sifatida olinadimi yoki ularni baytma-bayt, misrama-misra, so‘z birikmasi va so‘zshakl holatida bir matnga birlashtirish lozimmi? Bu savolga MKga kiritilgan ma’lumotlar ko‘lami va bajaradigan vazifasidan kelib chiqib javob berish mumkin. MKning hajmini kengaytirish, muallif asarlarining turli janrlarini qamrab olish, tahlil qilish natijasida reprezentativlik masalasiga amaliy yondashishi mumkin.


Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoni asosida yaratilgan MKda korpus bazasi uchun reprezentatsiyalashga tanlangan matn g‘azal janri (650 g‘azal)

---

<sup>120</sup> Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – С. 5.

<sup>121</sup> Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. – С. 36.

hisoblanib, ta'kidlanganidek, keyinchalik devondagi yana yettita lirik janrlar (registr)ning qamrab olinishi nazarda tutilgan. Kelgusida Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoni MKda reprezentatsiya qilingan quyidagi janrlari joy oladi<sup>122</sup>:



Mualliflik korpuslarida muallifga tegishli janrlar xilma-xilligi qanchalik ko‘p bo‘lmasisin, reprezentatsiya jarayonida ularga oid ma’lumotlarni ikki tomonidan tasnif qilish muhim hisoblanadi:

1. Korpusga kiritilgan manba nomi, muallifi, yaratilgan vaqt, voqeа joyi, uslubi, janri, shoir yashagan davr tilshunosligi (tilning ma’lum davriga xosligi) nuqtayi nazaridan ilmiy yondashish shoirning badiiy so‘z qo‘llash uslubi va mahorati (xalq og‘zaki ijodi namunalari: maqol, matal, topishmoq, turli qochirimlar, hikmatli so‘zlar, iboralar)ni chuqur o‘rganishga, janrning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatini yoritishga, janrlarni tahlil qilish jarayonida mazmunan qaysi auditoriya yoshiga mosligini aniqlashga imkon beradi.

2. Lingvistik xususiyatlariga ko‘ra tasniflashda so‘zshaklning grammatik ma’no (*fonetik, leksik, morfologik va sintaktik*) birliklarining nutqni shakllantiruvchi umumiylar ma’nolari, qo‘sishimchalar (*affiks, preffiks*), unda har bir so‘zning turkumi va shu turkumga tegishli kategoriyalari (*fe'l, ot, sifatlar va*

<sup>122</sup> Алишер Навоий. Бадоев ул васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б. 746-748.

*boshqalar*), arxaizm, istorizm so‘zlar haqidagi ma’lumotlar *teglar* ko‘rinishida korpusga qo‘shilishi MKning o‘qishliligini oshirish bilan birga foydalanuvchilarga ulkan ma’lumotlar tezaurusi vazifasini o‘taydi.

Korpusni yaratish nafaqat reprezentativlik va mutanosiblik tamoyillariga, balki qiyosiylik tamoyil (miqdoriy va sifat mezonlari)ga asoslanishi kerak. Ushbu tamoyillarning izchil amalga oshirilishi o‘rganilayotgan obyekt haqidagi ma’lumotlarning ishonchlilagini ta’minlaydi<sup>123</sup>.

Korpus matnlarida turli lingvistik va ekstralinguistik ma’lumotlarning aniq bo‘lishi talab qilinadi. *Izohlash* (tegflash) matnlar va ularning tarkibiy qismlariga maxsus teglar (teg, teglar) qo‘yishdan iborat va u ikki xil bo‘ladi.

Birinchisi, *ekstralinguistik izohlash* – muallif va matn haqidagi ma’lumotlar: muallifi, nomi, nashr etilgan yili va joyi, janri; muallif haqidagi ma’lumotlar nafaqat uning ismini, balki yoshi, jinsi, hayot yillari va boshqalarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Bu ma’lumotni *metabelgilash* / *metaizohlash* ham deyiladi.

Ikkinchi turida so‘z (shakl)ning leksik, grammatik, semantik va boshqa xususiyatlari izohlanadi. Bunday ma’lumotlar *lingvistik izoh* hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlarni tanlashda tadqiqot maqsadlari va tilshunoslarning ehtiyojlarini, shuningdek, matnga ma’lum qo‘srimcha xususiyatlarni kiritish imkoniyatlarini hisobga olish kerak<sup>124</sup>.

MKdagi matnlarning reprezentativlik xususiyatini to‘la namoyon etish uchun meta va lingvistik izohlarning berilishi zarur. Semantik teglar bazasida izohtalab so‘zlar (identifikatsiyalangan so‘z)ning izohini qidiruv tizimi orqali izlash jarayonida aynan teglangan semantik izoh yordamida ko‘rsatiladi va unga manba haqida metama’lumot (ekstralinguistik / metalingvistik ma’lumot /

---

<sup>123</sup> Богоявленская Ю.В. Сопоставительный объектно-ориентированный корпус: определение понятия и принципы формирования Уральский государственный педагогический университет, Екатеринбург, Россия УДК 81‘42045 – С. 16.

<sup>124</sup> Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – С. 6.

metadata) taqdim etiladi. Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoni asosida tuzilgan MKda har bir g‘azal uchun quyidagi metama'lumotlar taqdim etildi:

- 1) asar nomi (“*Badoye’ ul-vasat*”);
- 2) muallifi (Alisher Navoiy)
- 3) muallif jinsi (*erkak*);
- 4) muallifning tug‘ilgan yili (1441-yil, 9-fevral);
- 5) muallifning vafot etgan yili (1501-yil, 3-yanvar);
- 6) devon yaratilgan vaqt (1492-1498-yillar)
- 7) nashr yili (2011-yil);
- 8) nashr parametri (*adadi*);
- 9) nashriyoti (“*Tamaddun*” MChJ nashriyoti);
- 10) qo‘llanish sohasi (*adabiyotshunoslik*);
- 11) adabiy turi (*lirik*);
- 12) janri (g‘azal);
- 13) voqeya vaqt va joyi (*Hirot*);
- 14) matn uslubi (*badiiy*)
- 15) matn tipi (*orifona, oshiqona, rindona*);
- 16) auditoriya yoshi (15+, 18+ yosh);
- 17) auditorianing salohiyati (*keng omma uchun*);
- 18) ichki korpus turi (*mualliflik*);
- 19) so‘zshakl miqdori (66 539);
- 20) teglovchi (*G‘ulomova N.*)

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallar mavzu doirasining xilma-xilligi, so‘zshakllar miqdorining hajman turlicha ekanligi va baytlar soniga ko‘ra farqlanishi jihatidan metama'lumotlarning turlicha bo‘lishiga olib keladi. Shu bois har bir g‘azalga mos ravishda ma'lumotlar qo‘lda kiritilishi muvofiq sanaladi. Alisher Navoiy MKda har bir g‘azal haqidagi metama'lumotga g‘azal matni so‘ngida joylashgan “*Batafsil*” so‘zidagi giperhavola orqali o‘tiladi.

Metama'lumot bo'yicha g'azallarning bir-biridan asosiy farqi g'azal matni va uning ekstrama'lumotida. Korpus bazasiga kiritilgan 650 ta g'azalning har birida yuqoridagi tartibda keltirilgan g'azal to'g'risida umumiylar ma'lumot beruvchi 20 turdag'i metama'lumotlar jamlanmasi mavjud. "Korpus bo'yicha qidiruv" ruknidan hamda har bir g'azal matniga murojaat qilinganda quyi qismidagi "Batafsil" tugmasini bosish natijasida bu ma'lumotlarni o'qish mumkin. Metama'lumotlarda g'azalning mazmuni va g'oyasiga ko'ra matn tipi, foydalanuvchilar auditoriyasining yoshi hamda g'azaldagi so'zshakllar miqdori har bir g'azal uchun alohida berilgan. Masalan, devondagi 15-g'azalning ("Javru zulmung garchi o'lmaklik nishonidur manga") matn tipi – oshiqona, auditoriya yoshi 18+, so'z miqdori 141; 22-g'azalning ("Seningdek bute yo'qturur Chin aro") matn tipi – orifona, auditoriya yoshi 16+, so'z miqdori 95; 53-g'azalning ("Kuydi ko'nglum, shu'la o'tlug" dostonidin tushub") matn tipi – rindona, auditoriya yoshi 17+, so'z miqdori 139; 74-g'azal ("Boshim chu gard-u ko'zum ko'r sensiz o'lmadi bot") matn tipi – orifona, auditoriya yoshi 15+, so'z miqdori 112; 99-g'azalning ("Chiqti bog'lab yana ul kofiri xunrez qilich") matn tipi – oshiqona, auditoriya yoshi 17+, so'z miqdori 111 LBdan iborat.

Mavjud lug'atlarda, elektron kutubxonalarda saqlanayotgan g'azallar yuqorida ko'rsatilgan metama'lumotga ega bo'lmaganligi bois o'quvchiga g'azal haqida to'liq ma'lumotni olish imkoniyati bo'lmaydi. Ushbu ma'lumotlar korpus reprezentativligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, korpusda maxsus qidiruvni amalga oshirish imkoniyati bo'ladi.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosalar**

1. Kompyuter texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish, tilni lingvistik, lingvodidaktik, leksikografik tadqiq qilish natijasida korpus lingvistikasi sohasining ilmiy-nazariy asoslari yaratildi va amaliyotga joriy etildi. Natijada til korpuslarining maqsadi va vazifasilariga ko'ra bir qancha turlari

vujudga keldi. Tilning ko‘p asrlik boy milliy merosidan foydalanish imkoniyatini oshirish, ularni saqlab kelgusi avlodlarga to‘liqligicha yetkazib berish maqsadida yaxlit bir elektron korpus ko‘rinishiga keltirish nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki butun jahonda dolzARB masala hisoblanadi.

2. Bugungi kunda jahonda Mualliflik korpuslarini yaratish va qo‘llash ijtimoiy talabga aylanib bormoqda. Mualliflik korpuslari taddiqotchilar uchun eng qulay axborot manbayi hisoblanishi bilan zamonaviy tilshunoslikda nazariy hamda amaliy sohalarining muhim qismiga aylanib ulgurdi. Mualliflik korpuslari texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo‘libgina qolmay, muayyan muallif tilining turli shakllari axborot tizimiga kiritilgan, muallif haqidagi kutilmagan savollarga ham javob bera oladigan innovatsion tizimdir.

3. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi umumta’lim maktablarining barcha bosqichlarida o‘rganiladi. Mutafakkir MKdan dars jarayonlarida foydalanish Alisher Navoiy MKning ta’limiy ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, mazkur MKdan ta’lim jarayonida o‘quv materiali tayyorlashda qulay axborot manbayi vazifasini bajaradi, o‘qituvchi o‘quv mashg‘uloti uchun tez fursatda serqirra, mazmunli, ishonchli, o‘quv materialini tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

4. Navoiy MK foydalanuvchiga mutafakkir qo‘llagan so‘z birliklarining barcha lingistik xususiyatlari haqida aniq va to‘liq ma‘lumotni olishda xizmat qiladi. Osonlik bilan g‘azallarda uchragan izohtalab so‘zlar izohini topib, g‘azal mazmunini anglashga, tushunishga yordam beradi

5. Mualliflik korpuslaridagi ma’lumotlarning ilmiy manbalar, Navoiy asarlari tilini o‘rganish bo‘yicha yaratilgan izohli lug‘atlar asosida tahrir qilinganligi unda berilgan ma’lumotlarning aniqliligi va ishonchliligin kafolatlaydi.

6. Mualliflik korpuslarida matnlarning reprezentativlik xususiyatini to‘la namoyon etish uchun meta va lingistik izohlarning berilishi zarur sanaladi.

Semantik teglar bazasida izohtalab so‘zlar (identifikatsiyalangan so‘z)ning izohi qidiruv tizimi orqali izlash jarayonida aynan teglangan semantik izoh yordamida ko‘rsatiladi va unga manba haqida metama'lumot (ekstralivingistik / metalingvistik ma'lumot / metadata) taqdim etiladi.

## **II BOB. ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSINI LOYIHALASHNING METODOLOGIK ASOSI**

### **2.1. Mualliflik korpusi uchun muallif shaxsi va uning uslubi tadqiqi masalasi**

Azal-azaldan matnlarni lingvistik tahlil qilish jarayoniga asosiy filologik masala sifatida qarab kelingan bo‘lib, bu vazifani yillar davomida insonlar amalga oshirib kelishgan. Bugungi kunga kelib zamonaviy texnologiya rivojlanishi natijasida ko‘plab rivojlangan davlatlarda lingvistik tahlil jarayonlari avtomatlashtirilmoqda<sup>125</sup>. Maqsadga erishishda nafaqat filologlar, balki informatik va dasturchilarning ham o‘rni beqiyos. Filolog tabiiy til qonuniyatları, adabiy tahlillarni lingvistik ta’minotda jamlab beradi, informatik ularning algoritmini tuzadi, dasturchi uni yagona ishchi dastur holatiga keltiradi. Bir jumla bilan aytilgan ushbu jarayon ko‘p mashaqqat, sinchkovlik va vaqt ni talab qiladi. Filologik dasturlar kichik hajmli matnlarning statistik tahlilini amalga oshirish imkoniyati bilan yaratilgan. Bugungi kunda avtomatik tahlil dasturini yaratishda turli xil adabiy parametrlarni hisobga olgan holda ushbu muammoni hal etishning yanada samarali usullaridan foydalanish mumkin bo‘ldi.

70-yillarning o‘rtalariga kelib, muallifi noma’lum maqola muallifini topish vazifasini amalga oshirish uchun kompyuter texnologiyasidan foydalanish harakatlari boshlangan. Ammo ushbu jarayon maqola matnlarini kompyuter tiliga aylantirishga juda ko‘p vaqt sarflanishi bilan qiyinlashgan, o‘sha vaqtda raqamli kodlar zanjirida manba matnlari qo‘lda kodlashtirilgan, bu esa natijalarning muvaffaqiyatsiz chiqishiga olib kelgan va yangi parametrlarni kiritish qiyin bo‘lgan, shuningdek, natijalarni tekshirishni murakkablashtirgan. 1978-yilda elektron texnologiya yordamida bir necha lingvostistik tadqiqotlarni amalga

---

<sup>125</sup> Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturining lingvistik modullari [Matn]: monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 18.

oshirgan Geir Xetso boshchiligidagi norvegialik olimlar guruhi 38 ta matnni tahlil qilishga kirishadi.

Matnning 26 tasi F.M.Dostoyevskiyga tegishli bo‘lib, qolgan 12 ta maqola ham ba’zi tadqiqotchilar tomonidan o‘sha yozuvchiga tegishli, deb taxmin qilingan edi<sup>126</sup>. Ushbu matnlarni kompyuterda tarjima qilish, kerakli chastotali lug‘at va statistik ma’lumotlarini olish ishlari olti oy davom etgan, bunda tadqiqot doirasidagi jumlalar 10 parametr bilan cheklangan diapazonda qo‘lda kodlashlashtirilgan<sup>127</sup>. Shunday qilib, 1970-yillarning o‘rtalariga kelib, muallifi noma’lum maqolalar mualliflarini aniqlash vazifasini amalga oshirish uchun kompyuter texnologiyasidan foydalanish harakatlari boshlangan.

Lingvistik-statistik jihatdan matnlarning ishonchliliginani aniqlash, Dostoyevskiyning so‘z tanlash imkoniyatini yorituvchi manbalarni o‘rganish maqsadida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borildi. Dostoyevskiyning 1860-yillar boshidagi asarlari matnining o‘ziga xos xususiyati ularda juda ko‘p so‘roq va undov belgilari mayjud. Dostoyevskiyning til uslubini publisist sifatida o‘rganmoqchi bo‘lgan tadqiqotchi uchun aniq manbalarsiz ish qilish qiyin. Shuning uchun Dostoyevskiy matnlaridan ko‘proq jumlalar tanlab olingan, unga tegishli matnlardan material tanlangan. Dostoyevskiy qalamiga mansub bo‘lgan barcha matnlarni kompyuter tiliga o‘tkazish uchun lingvostatistik parametrlarga moslashtirilgan.

Umuman, MK uchun muallif shaxsi va uning yozish uslubini aniqlash, nafaqat anonim materiallar muallifini topish, balki shu asosda korpusda atributlarni belgilash natijasida korpus yordamida ijodkor hayoti va ijodiga mansub ilmiy tadqiqot ishlarida ishonchli ma’lumotlarni olish mumkin bo‘ladi.

---

<sup>126</sup> Гейр Хетсо. Принадлежность Достоевскому: к вопросу об атрибуции Ф.М. Достоевскому анонимных статей в журналах “Время” и “Эпоха”. (Электрон ресурс) SOLUMFORLAGA.S.: OSLO. 1986.

<sup>127</sup> Суровцова Т. Г., Чистяков С. П. О построении статистических критериев для атрибуции авторства литературных текстов / Т. Г. Суровцова // Вестник Санкт Петербургского университета. – 2009. – Вып. 3. – С. 137-142.

Ma'lumki, sharqda devon tuzish shoirning yetuklik belgisi hisoblanib, shoirlar o'z devonlarining mazmunan va shaklan rang-barang bo'lishiga katta ahamiyat berishgan. Navoiy devonlaridagi g'azallarning taqsimlanishi xronologik jihatdan nisbiy bo'lsa-da, shoir ularning umumiyligi ruhiyatini devonlar tartibiga moslashtirishga harakat qilgan. Bu holat uning tabiat tasviri bilan bog'liq g'azallari tahlilida ham namoyon bo'ladi. Navoiyning bu yo'nalishdagi g'azallarining deyarli barchasi bahor va bahordagi yomg'irli tong payti tasviri bilan bog'liq. Ularda tabiat tasviri faqat estetik funksiyani bajaribgina qolmay, muhim ijtimoiy-axloqiy vazifani ham ado etadi. Har bir g'azal o'zining muayyan xarakterli belgilari bilan inson uchun ibrat sifatida xizmat qiladi<sup>128</sup>. Navoiyning o'zigagina xos mutolaa usuli bo'lgani aniq. Shulardan biri yodlash qobiliyati edi. Ikkinchisi – material yig'ish mahorati. Shoir o'qiganlari asosida ijodiy niyatiga mos ravishda ko'p materiallar yig'ib borgan. Uchinchisi – saralash salohiyati. Shoir o'qigan va yig'gan materiallarini jiddiy saralagan<sup>129</sup>. Navoiy keyingi ikki xususiyati haqida "Majolis un-nafois" muqaddimasida shunday yozadi: "Jam' qililg'ay va har qaysining natoyiji tab'idin biror nima nishona yo'sunluq yozilg'ay"<sup>130</sup>. Navoiy shakl va mazmunning birligi uchun kurashgan va g'azallarining mazmuniga mos hamda muvofiq tizim yaratgan<sup>131</sup>. Olim H.Sulaymonovning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, Navoiy "Xazoyin ul-maoniyligi" kulliyotini tuzish ustida bir necha yil tinimsiz mehnat qilgan va 1498-yildagina tugal tarzda yakunlagan. Navoiy kulliyot devonlarini o'zaro ichki mustahkam bog'liq holda va qat'i mutanosiblikda tuzadiki, ularga keyinchalik birorta g'azal kiritish yoki devonlar tarkibidan tushirib qoldirish va hatto ichki o'rnini almashtirish ham mumkin bo'limgan<sup>132</sup>.

---

<sup>128</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – B. 46.

<sup>129</sup> Sultonmurod O. Navoiy qanday mutolaa qilgan. // Tafakkur jurnali. 2017. 2-son.

<sup>130</sup> Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. – Б. 2. [Alisher Navoiy. Majolisun-nafois.pdf](#).

<sup>131</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи. 1965. – Б. 399.

<sup>132</sup> Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. 1-4-жиллар. – Тошкент: Фан, 1959-1960.

Navoiy g‘azallarida ifodalangan turli xil mazmundagi motivlarning yuzaga kelishi turli davrlarda turlicha hayotiy sharoit taqozosi bilan bog‘liq, deb hisoblanadi. Jumladan, ilk davrda bekaslik, yigitlik davrida darbadarlik, hijron bilan bog‘liq bo‘lib, biografik asos muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda (1469-yildan keyingi o‘rtta yosh va keksalik davrlarida) faqat shaxsiy taqdir emas, balki ijtimoiy muhit – mamlakat va xalq taqdiri haqidagi mulohazalar, keng ijtimoiy asos yetakchi omil bo‘lib qoladi. Biografik asos ham jamiyat masalalari tarkibida chuqur ijtimoiy mohiyat kasb etadi.<sup>133</sup> Navoiyning o‘rtta yosh g‘azallarida esa uning hukmdor va xalq, jamiyat munosabatiga doir qarashlari, fikr-mulohazalari ramziy ko‘rinishdagi imo-ishora tarzida ifodalanadi:

Zulm ila el jonig‘a o‘t yoqma, eykim, shohsen,  
Gar desang do‘zax o‘tig‘a jonni mahrur etmayin. (“Badoye’ ul-vasat”,  
504-g‘azal).

“Badoye’ ul-vasat” devonidan o‘rin olgan yuqoridagi bayt ham muallifning shaxsi va ijod uslubi tadqiqini yorituvchi g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan. Navoiy zulm va zolimlarni qoralab, adolatni, xalqparvarlikni ulug‘laydi, davlat arbobi sifatida jamiyat, zamon ahli borasida chuqur mulohazalar yuritsa, insoniy kamolotdan dalolat beruvchi yuksak fazilatlarni ulug‘lab, insonparvar murabbiy qiyofasida gavdalananadi.<sup>134</sup> Fikrimizni yorqinroq ifodalash maqsadida “Badoye ul-vasat” devonidagi 96-g‘azalning 8-baytiga murojaat etamiz:

Zamon ahli vafosizliq bila gar qildilar qatlim,  
Farah topqay magar ruhum, alar da’bi vafo bo‘lg‘ach.

Hazrat Navoiyning aksariyat g‘azallarida vafo, sadoqat kabi chin insoniy fazilatlar ulug‘lanadi. Mazkur baytda ham Navoiy zamona ahlidan vafo istab, vafosizlikdan kuyunib so‘zlaydi: “Zamondoshlarim meni vafosizliklari sabab “o‘ldirdilar”, agar ular vafoni yana odat qilsalar, mening ruhim shod bo‘ladi”.

---

<sup>133</sup> Исақов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 109.

<sup>134</sup> Исақов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 43.

Ma'lumki, Navoiy turli lavozimlarda faoliyat yuritdi, vaziyat taqozosi sabab turli toifadagi insonlar bilan muloqotda bo'lib, ularni o'ziga do'st, birodar deb bildi, chin odamiylikni hamisha odat qildi. Ba'zan o'z manfaatini ko'zlovchi riyokor kimsalardan vafosizlik ham ko'rdi, lekin Navoiy hamisha ikkiyuzlamachi, riyokor insonlarning insofga qaytishidan, sadoqatidan umidvor yashadi.

Navbatdagi baytda ham Navoiyning o'ziga xos hayotiy qarashlarini, hayotiy munosabatlarini kuzatish mumkin:

Navoiyo, tila faqr-u riyoyi eldin qoch

Ki, odamilar erur o'zga, dog'i o'zga masux.

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi 107-g‘azalning 7-baytida hazrat Navoiyni chin oriflik maqomiga erishgan shaxs timsolida ko‘ramiz. Orifona ruhda yozilgan ushbu g‘azalda foniy dunyoning hasham va mol-dunyosidan voz kechib, faqirlik yo‘lini tutish, nafs o‘tini so‘ndirish kabi fazilatlar ulug‘lansa, “masux”, ya’ni bemaza, bema’ni odatlar qoralanadi. Navoiy bunday “masux” insonlardan uzoq bo‘lish lozimligini uqtiradi va faqirlik yo‘lini tanlagan insonlar boshqa-yu, odam shakliga kirgan dunyoparast, riyokorlar boshqa, deydi. Albatta, Navoiyning o‘z davrida ilgari surgan bu kabi g‘oyalari bugungi zamonimiz uchun ham xos va mosdir.

Devondan tanlangan baytlarning barchasida komil inson axloqiga oid qarashlar aks ettirilganligini ko‘ramiz. Bu baytlar insonlarni yaxshiliklar, ezgu amallar sari undaydi, yomon illatlardan qaytaradi:

Agarchi men yomonmen, yaxshidurkim mu’tarifdurmen,

O‘zin yaxshi tasavvur aylagan mendin yomon ermish. (259-g‘azal, 7-bayt)

Bayt tahlili: agar men yomon bo‘lsam, buni tan olaman, iqrorman (*mu’tarifmen*). Kamchiliklarini bilib tan olgan kishi, o‘z nuqsonlarini ko‘rolmagan, qalbi ko‘r kimsalardan yaxshiroqdir. Navoiyning qilgan barcha ezgu amallari: yaratgan beqiyos adabiy merosi, obodonchiliklari, yo‘qsil

kishilarga, beva-bechoralarga ko‘rsatgan beminnat xizmatlari barcha dunyo xalqlariga ma’lum. Shunday bo‘lsa-da, mutafakkir yaxshi insonman deya olamga jar solmadi, ammo qilgan ezgu amallari Navoiyni mangulikka daxldor etdi. Tadqiqot obyekti sifatida keng qamrovda o‘rganilayotgan “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda nihoyatda keng va ko‘p qirrali Navoiyning inson haqidagi qarashlari, jamiyatning deyarli barcha tabaqalari uchun fikr-mulohazalari bayon etilgan. Maqsud Shayxzoda Navoiy g‘azallaridagi ana shunday xususiyatni badiiy usul sifatida baholagan. U muayyan g‘azallar tahlili asosida shunday xulosalar chiqaradi: “G‘azalda ma’lum voqeа (keng ma’noda) yarata bilish, baytlarni ma’nан, fikran va suratan bog‘lash, u yoki bu darajada Navoiy lirkasiga xos bo‘lgan birinchi badiiy usuldир”<sup>135</sup>. Navoiyning har bir g‘azalida, u qanday tipda bo‘lishidan qat’i nazar, shoirning shaxsiy munosabati u yoki bu darajada o‘z aksini topadi.

Kelajakda Alisher Navoiy MK orqali Navoiy ijod uslubini aniqlashga yordam beruvchi grammatik parametrlar quyidagicha berildi:

- I. Umumiy grammatik guruhlash:
  1. Leksema: tub (1); yasama (2).
  2. Ilmiy termin.
  3. Leksemaning noaniq shakli: unli tovush bilan tugagan (1); undosh tovush bilan tugagan (2). “k” tovushi bilan tugagan (3); “q” tovushi bilan tugagan (4); “g” tovushi bilan tugagan (5).
  4. Uslub doirasida qo‘llanilishi: rasmiy-idoraviy (1); publitsistik (2); ilmiy (3); badiiy (4); so‘zlashuv uslubi (5).
  5. So‘z turkumi: Fe’l (1); Ot (2); Sifat (3); Son (4); Olmosh (5); Ravish (6); Sifatdosh (7); Ravishdosh (8); Harakat nomi (9); Undov so‘zlar (10); Modal so‘z (11); Taqlid so‘z (12); Bog‘lovchi (13); Yuklama (14); Ko‘makchi (15);

---

<sup>135</sup> Шайхзода М. Асарлар. 4-том. – Тошкент, 1972. – Б. 205.

6. Otlashadi (otga xos grammatik kategoriyalar bilan keladi) (1); otlashmaydi (2).

7. Ko‘plik kategoriysi: oladi (1); olmaydi (2).

8. Juft so‘z.

9. Qo‘shma so‘z.

## II. Ot turkumi

10. Otning ma’no turi. Turdosh: shaxs oti (1); narsa oti (2); o‘rin-joy oti (3); faoliyat oti (4); jarayon oti (5); mavhum ot (6);

11. Atoqli: shaxs nomi (1); geografik nom (2); joy nomlari (3); asar (4), unvonlar nomi (5); suv havzasi (6); inshoot (7); tarixiy sana, bayram nomi (8); hayvon nomi, (9);

12. Kelishik: oladi (1); olmaydi (2);

13. Egalik kategoriysi: 1-guruh (1); 2-guruh (2);

14. Qarashlilik affiksi: 1-guruh (1); 2-guruh (2);

15. Ot shakllari: o‘rin-joy shakli affiksi (1); chegara shakli affiksi (2).

16. Soni: faqat birlikda qo‘llaniladi (1); ko‘plikka ega (2);

17. Hosila so‘z “k”, “q” tovushlari bilan tugagan, egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda o‘zgarishga uchramaydigan so‘zlar (1); grammatik kategoriyalarni olganda asosda o‘zgarish sodir bo‘lmaydigan yasamalar (2); grammatik kategoriyalarni olganda asosda o‘zgarish sodir bo‘ladigan shakllar (3).

## III. Sifat turkumi

18. Sifat LGMsi: xususiyat bildiruvchi (1); shakl bildiruvchi (2); rang-tus bildiruvchi (3); maza-ta’m (4); hid bildiruvchi (5); o‘lchov bildiruvchi (6); o‘rin bildiruvchi (7); payt bildiruvchi (8); holat bildiruvchi (9).

19. Qiyoslash darajasi: oddiy (1); qiyosiy (2); orttirma (3); ozaytirma (4).

20. Egalik kategoriyasini biriktiradi: ha (1); yo‘q (2). Kelishik kategoriyasini ergashtiradi (3).

21. Kesimlik kategoriyasini oladi: o‘tgan zamon (1); hozirgi zamon (2); kelasi zamon (3).

22. Kesimlik qo‘shimchalarini oladi: -men, - sen, -miz, -siz, dir (1);

23. Fonetik usulda yasalgan qiyosiy daraja hosilasi: affiksni biriktiradi (1); affiksni biriktirmaydi (2);

24. Orttirma darajani hosil qiluvchi so‘z: affiksni biriktiradi (1); affiksni biriktirmaydi (2).

#### IV. Son turkumi

25. Son turlari: sanoq son: 1-guruh (1); 2-guruh (2); chama son (3); jamlovchi son (4); taqsim son (5); hisob so‘zlar (6).

#### V. Ravish turkumi

26. Ravishning lug‘aviy ma’no turi: holat (1); o‘rin (2); payt (3); daraja-miqdor (4); maqsad (5); sabab (6).

27. Ravish darajasi: ega (1); ega emas (2).

#### VI. Olmosh turkumi

28. Olmoshning grammatik ma’no turi: kishilik (1); o‘zlik (2); ko‘rsatish (3); so‘roq (4); belgilash-jamlash (5); bo‘lishsizlik (6); gumon (7).

29. Grammatik o‘zgarish:

#### VII. Fe’l turkumi

30. Fe’lning grammatik ma’no turi: o‘timli (1); o‘timsiz (2).

31. Fe’l nisbati: aniq (1); o‘zlik 1-guruh (2); o‘zlik 2-guruh (3); majhul 1-guruh (4); majhul 2-guruh (5); orttirma (6); birgalik 1-guruh (7); birgalik 2-guruh (8); nisbatlar kombinatsiyasi (9).

32. Vazifa shakllari: sifatdosh (1); ravishdosh 1-guruh (2); ravishdosh 2-guruh (3); harakat nomi 1-guruh (4); harakat nomi 2-guruh (5).

33. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi: ko‘makchi fe’l (1); yetakchi fe’l (2).

34. To‘liqsiz fe’l: 1-guruh (1) (*erdi, ermish, ekan*); 2-guruh (2) (faqat yuklama).

35. Fe'lning bo'lishsiz shakllari. (-ma, -masdan, -maslik, -mayin).
36. Mayl: buyruq-istak (1); shart (2); maqsad (3), xabar (4);
37. Zamon: o'tgan zamon (1); hozirgi zamon (2); kelasi zamon (3).
38. Shaxs-son:
39. Shakl: (1. Oddiy; 2. murakkab)
40. Modal so'zlarning ma'nolari bo'yicha: (1. Ishonch; 2. Noaniqlik; 3. Tasdiq; 4. Guman kabi)
41. Hissiy so'zlar: (1. Hissiy; 2. Emotsional-hissiy emas; 3. Axloqiy)
42. Tili: (1. Turkiy; 2. Forsiy; 3. Arabcha)
43. Iqtibos: (1. Nasriy; 2. She'riy)
44. Matn (g'azal)ning 1-satri.

“Sintaktik tahlil” modulining asosiy vazifasi Navoiy tilining sintaktik birliklarning strukturasi va grammatik ma'nosini tahlil qilish hamda qurilish turini aniqlashdan iborat. Sintaktik tahlil predmeti jumlalardir, shuning uchun ushbu modul foydalanuvchiga jumlaning turi (sodda yoki qo'shma), gapning maqsadga ko'ra turi (darak, so'roq, buyruq, istak) va boshqa parametrlarini belgilash imkonini beradi. Bunday parametrlar soni jumlaning tuzilishiga bog'liq, ammo oddiy jumlalar uchun kamida 20 parametrni tanlash mumkin. Parametrlarning to'liq ro'yxati quyidagicha bo'lishi ko'zda tutilgan:

1. Leksema.
2. Sinonimlar.
3. Antonimi.
4. Paronimi.
5. Omonimi.
6. Gap bo'lagi vazifasida: kesim (1); ega (2); aniqlovchi (3); to'ldiruvchi (4); hol (5); gap bo'lagi vazifasida kelmaydi (6).
7. Iboralar tarkibida.
8. Uyadosh so'zlari.

9. Maqollar.
10. Murojaat (bor, yo‘q)
11. Kirish so‘zlari (bor, yo‘q)
12. Kirish gaplari (bor, yo‘q)
13. Gapning maqsadga ko‘ra turi (darak, buyruq, so‘roq, istak)
14. Oddiy / murakkab gaplar
15. Bir qisqli / ikki qisqli (oddiy)
16. Umumiy / tarqalmagan (oddiy)
17. To‘g‘ridan-to‘g‘ri nutq (oddiy)
18. Jumla soni (kompleks uchun)
19. Oddiy / murakkab
20. Mavzu uchun so‘z taqsimotning miqdori

Til ijtimoiy hodisa hisoblanib, axborot texnologiyalarining taraqqiy etishi, ijtimoiy-siyosiy sohalarning rivojlanishi bilan tillarning lug‘at tarkibida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi: yangi so‘zlar, atamalar kirib keladi, so‘zlarning qo‘llanilish ko‘لامи o‘zgaradi, ma’no torayadi yoxud kengayadi, shuningdek, nutqda qo‘llanilmaydigan so‘zlar iste’moldan chiqadi. Tilshunos tilda sodir bo‘lgan bunday o‘zgarishlarni muntazam o‘rganib, tahlil qilib borishi va ma’lumotlarni qayta ishlash dasturlari lingvistik bazalarini takomillashtirish ustida ishlashi lozim. Dastlab kichik hajmli matn (mikromatn)larning statistik tahlilini amalga oshirishga mo‘ljallangan filologik dasturlar bugungi kunda yirik hajmli matnlar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni avtomatik chiqarish uchun turli lingvistik parametrlarni hisobga olgan holda yanada samarali usullaridan foydalanishni taqazo etadi. Bunda muallif qo‘llagan so‘zlar ko‘lamini, mazmuni va mohiyatini aniqlash muhim hisoblanadi.

## **2.2. Alisher Navoiy mualliflik korpusini loyihalashning konseptual asosi**

Korpus uchun matnlarni qayta ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda insonning sun’iy intellekt tizimiga oid vositalar bilan muloqoti til tizimi va lisoniy faoliyat tadqiqiga butunlay yangicha yondashuvni talab qiladi<sup>136</sup>. Zamonaviy texnologiya rivojlanib borayotgan ayni vaqtida lingvistik masalalarni avtomatlashtirish ko‘plab davlatlarda rivojlangan. Tajribali mutaxassisning fidoyiligisiz ishning muammoli vaziyatlarida uning yechimini topish, mashaqqatli jarayonlaridan o‘tish qiyin kechadi. Mualliflik korpuslarini yaratish ham xuddi shunday sinchkovlik va teran mushohada, chuqur bilimni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Bunda filolog muayyan muallifning asarlari matnining elektron bazasini jamlaydi, muallifgagina xos ijod usullarini, muallif qo‘llagan so‘z ko‘laming leksik, grammatik, morfologik, semantik jihatlarini o‘rganadi, muallif asarlarida ifodalangan so‘zlarning semantik teglari bazasini yaratadi, bunda mutaxassis o‘z bilimi va metodik mahoratidan kelib chiqib asarning o‘qishli hamda tushunarli bo‘lishini ta’minalashga qaratilgan ma’lumotlar bazasini shakllantiradi; dasturchi mavjud ma’lumotlar asosida algoritm tuzadi, zarur ma’lumotlarni identifikatsiyalaydi, dastur uchun kod yoziladi va dastur biznes jarayoni modellaridan foydalilanigan holda korpusning dasturiy ta’moti yaratiladi. Shuning uchun MK leksemaning butun mohiyatini tezkorlik bilan o‘quvchiga yetkazish imkoniyatini beradi.

Korpus ikkita ta’mot asosida ishlaydi: 1) texnik ta’mot; 2) lingvistik ta’mot<sup>137</sup>. Bu taminotlar o‘zaro bir-birini taqozo qilgani uchun kompyuter va tilshunoslik fanlari hamkorligi natijasida kompyuter lingvistikasi yuzaga kelgan. Lingvistik ta’mot lingvistik dasturlarning lisoniy xotirasi, deyish mumkin. Sh.Safarov lisoniy xotira – nafaqat til birliklari va kategoriyalari haqidagi axborotni saqllovchi psixik tuzilma, balki nutqiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ushbu turdagи axborotni tezda topish, qo‘llash imkonini yaratuvchi manba

---

<sup>136</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 7.

<sup>137</sup> Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: [Matn] monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 19.

ekanligini ta'kidlaydi<sup>138</sup>. Lisoniy xotira negizini “ichki leksikon”, ya’ni xotiradagi lug‘at zaxirasi tashkil etadi. Ye.S.Kubryakova esa ichki leksikon ma’lum sharoitda zarur bo‘lgan birlikni izlab topish imkonini ta’minlovchi majmuaviy “ombor” bo‘lishi bilan birga harakatdagi tizim sifatida har bir birlikning faollashuv imkoniyatlari, ular qo‘llanilishining pragmatik, semantik va formal ko‘rsatkichlari qayd qilingan<sup>139</sup>. Shu bois dasturiy ta’minotning lisoniy xotirasi – lingvistik ta’minotni yaratish, lingvistik modullarni mukammal ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi<sup>140</sup>.

Alisher Navoiy MK uchun semantik teglar bazasi “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining “Badoye’ ul-vasat” devonidan boshlangan bo‘lib, korpus xotirasiga ushbu devondagi barcha g‘azallarning semantik teglari bazasi joylangan. Kulliyotning ichki tuzilishi jihatidan nihoyatda mustahkam tarzda tartib berilganligidan ko‘rish mumkinki, Alisher Navoiy undagi to‘rt devonning har biriga teng miqdorda g‘azal joylashtiribgina qolmay, balki shu g‘azallarning qofiyalanishiga ko‘ra har bir devonda o‘zaro teng va qat’iy mutanosib bo‘lishiga jiddiy ahamiyat bergen. Bunda g‘azallarning arab alifbosida yozilganligiga ko‘ra tahlil qilinadi: “alif” harfi bilan tugallanuvchi g‘azallar to‘rtala devonda ham 39 tadan, “be” harfi bilan tugallanuvchi g‘azallar 27 tadan, teng tarzda uchraydi. Navoiy “Ze” harfiga “Zebolarning ziynati” yoki “Nun” harfiga “Nozaninlarning nozi” singari sarlavhalar qo‘yganki, bu adabiyotshunoslikda alliteratsiya, ya’ni tavze mavjudligini namoyon qiladi<sup>141</sup>. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida hammasi bo‘lib “Ango” radifli 12 ta g‘azal mavjud<sup>142</sup>. Bu g‘azallar to‘rtala devonga uchtadan teng tarzda taqsimlangan va har bir devonning 8-9-10-o‘rinlariga joylashtirilgan. Navoiy qofiyaga g‘oyaviy-estetik funksiya tashuvchi vosita

---

<sup>138</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 25.

<sup>139</sup> Кубрякова Е.С. Память и ее роль в исследовании речевой деятельности // Текст в коммуникации. – М.: И-т Языкоznания, 1991. – С. 18.

<sup>140</sup> Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: [Matn] monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – В. 20.

<sup>141</sup> <https://uzhurriyat.uz/author/behzod/?lang=lat>. So‘zimizning olmos qirralari.

<sup>142</sup> Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977.

sifatida yondashib, g‘azalda uning katta imkoniyatlarini namoyish qildi<sup>143</sup>. Bularning barchasi “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining nihoyatda mustahkam tartibda o‘zaro mutanosib holatda tuzilganligini ko‘rsatadi<sup>144</sup>. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”<sup>145</sup> asarida: “Badoye’ ul-vasat” devonidurkim, umr avsatida xayolim xomasi aning zebig‘a naqshbandlig‘ va ziynatiga‘a sihrpayvandlig‘ qilibdurkim, ul badi’lar vositasidin shaydo ko‘ngullar eshigin ishq toshi birla qoqibmen va ul uyga fitna va ofat o‘tin yoqibmen, ya’ni “Badoye’ ul-vasat” (“O‘rta yosh badialari”) devoni – buni xayolim qalami umrimning o‘rtalarida bezashga naqqoshlik va pardozlashga sehrbozlik qilgandirki, u badialar orqali shaydo ko‘ngillar eshigini ishq toshi bilan qoqibman va u uyga fitna va to‘palon o‘tini yoqibman”, – deydi. Devondan o‘rin olgan g‘azallarda bahor faslining muvaqqat va g‘animat ekanligi olam va odam umrining o‘tkinchiliga bog‘liq holda falsafiy-ijtimoiy mohiyat kasb etadi<sup>146</sup>.

“Badoye’ ul-vasat” devonida g‘azallar jami 5001 bayt – 10002 misra, 66539 ta so‘zdan iborat bo‘lib, g‘azallar hajmi 6 baytdan 13 baytgacha: *6 baytli – 1 ta, 7 baytli – 437 ta, 8 baytli – 8 ta, 9 baytli – 187 ta, 10 baytli – 1 ta, 11 baytli – 14 ta, 12 baytli – 1 ta, 13 baytli – 1 tani tashkil* etadi. Alisher Navoiy MKni bu kabi statistik tahlillar, muhim hisoblanib, foydalanuvchiga aniq hisobni beradi va ma’lumotlar bazasi ustida ishslash qamrovini ko‘rsatadi. “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning yozilish vaqtি, asosan, Navoiy ijodining yetuklik davriga to‘g‘ri keladi va g‘azallarda bitilgan ma’noni teranroq anglab, chuqurroq tushunish oddiy o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘dirishi, tabiiy. Devondan o‘rin olgan g‘azallardagi har bir izohtalab so‘z va so‘z birikmalari Navoiy asarlari tilini o‘rganish bo‘yicha tuzilgan izohli lug‘atlar asosida tahlil qilinib, izohtalab so‘zlarning elektron bazasi yaratilishi natijasida Alisher Navoiy MK ishlab

<sup>143</sup> Исоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 65.

<sup>144</sup> Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. 1-4-жиллар. – Тошкент: Фан, 1959-1960.

<sup>145</sup> Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent: Tafakkur, 2014. – B. 13.

<sup>146</sup> O‘sha asar – B. 46.

chiqildi. O‘quvchiga Nizomiddin Alisher Navoiy qarashlarini qulay tarzda chuqr va teranroq anglash imkonini beradi.

Navoiy tilining o‘ziga xos uslubi, so‘z va iboralarni qo‘llash imkoniyatlarini namoyish etishda, o‘zlashtirishda, tahlil qilingan baytning ma’no va mazmun-mohiyatini anglay olishda mutafakkir g‘azallari MKni yaratish nihoyatda dolzarb hisoblanadi va katta ahamiyat kasb etadi. “Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallarining semantik teglari bazasi esa izohli lug‘at asosida tushunarsiz leksemalar (so‘z va so‘z birikmasi) asl ma’nolarini, ularning grammatik, leksik xususiyati (ma’nodosh, shakldosh, o‘zakdosh) barcha g‘azallar uchun umumiy chastotani o‘z ichiga qamrab oladi. Shakldoshlik holatida raqamlar indekslar shaklida qo‘shiladi, so‘zlarga izoh beriladi. Nafaqat ma’nodosh, shakldosh, o‘zakdosh, balki eskirgan so‘zlar ham izohlanadi.

G‘azal matnlarini tahlil qilishda asosiy vosita aynan konkordans hisoblanadi. Konkordanslarning har biri tanlangan ma’lumot turiga ko‘ra korpus materialini (bir xil shakdagisi so‘zlar) maxsus tarzda guruhlaydi. Matnni avtomatik joylashtirish, so‘zlarning tartibli ro‘yxatini yaratish, matndagi so‘zlarning uzunligi va chastotasiga ko‘ra taqsimlanishi tahlili, konkordans yaratish kabilar uchun mo‘jallangan dasturlar mavjud<sup>147</sup>. Muayyan turdagisi ma’lumotni tanlashda, talab qilinadigan izohli lug‘atga muvofiq, uning har bir elementi uchun olish mumkin bo‘lgan kontekstlari ro‘yxati hamda uning chastotasi haqida ma’lumot, manzili, ya’ni uning konteksti olingan g‘azal haqida aniq ma’lumot beradi. Umuman, *konkordans* qidiruv satriga yozilgan so‘z bo‘yicha matnlar bazasidan shu so‘z ishtirok etgan jumla (abzas) yoki misra (bayt)ni uning manbasiga havola bilan taqdim etadi. Bunda qidirilayotgan so‘zning avtomat tarzida tartiblanishi va manbaga havolaning taqdim etilgani konkordansning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. MKni loyihalashda korpusning bu jihatlariga e’tibor qaratish korpusdan foydalanishni osonlashtiradi.

---

<sup>147</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 69.

MKda lingvistik va ekstralinguistik ma'lumotlarning berilishi ham muhim sanaladi. Ushbu ma'lumotlarni yaratishda tadqiqot maqsadlari va tilshunoslarning ehtiyojlarini, shuningdek matnga ma'lum qo'shimcha xususiyatlarni kiritish imkoniyatlarini hisobga olish kerak<sup>148</sup>.

Alisher Navoiy MKda metama'lumotni ko'rish imkoniyati g'azalning quyi qismidagi "Batafsil" tugmasini bosish orqali o'tilishi avtomatlashtirildi.

Korpus orqali muallif til uslubini obyektiv o'rganish, tushunish qiyin bo'lgan tarixiy, eskirgan va iste'moldan chiqarilgan so'zlar ma'nosini anglash, qo'llanilish doirasi toraygan, morfologik o'zgarishga uchragan leksemalarni mazmunan farqlay olishda o'quvchiga yordam beradi. Turli izohli lug'atlarsiz osonlik bilan tizim orqali ma'lumot olish, har qanday izohtalab so'zni tizimdan qidirib topish, so'zni dinamik saralash va guruhash, so'z shakllarni turli ma'nolarda ko'rish, lug'atdan matn korpusiga tezda o'tish, turli formatlarda ma'lumot olish qulayliklarini yaratadi. Navoiy MKning shakli hajman cheklanmaganligi bazaga shoir ijodiga mansub bo'lgan devonlardagi g'azallarni va boshqa janrlarni kiritib, bazani to'ldirib, boyitib borish imkoniyatini beradi.


### **Korpusda mavjud bo'lgan axborot turlari**

Radiflarining oxiri arab alifbosidagi harflar bilan tugashiga qarab qat'iy ketma-ketlikda tartiblangan "Badoye" ul-vasat" devonidagi g'azallar quyidagicha semantik teglandi:

2.2.1-jadval

---

<sup>148</sup> Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – С. 6.




1. Izohtalab so‘zlar aniqlandi.
2. Izohtalab so‘z birikmasi semantik teglandi.
3. Izohtalab so‘z va so‘z birikmalarining izohi (bugungi kunda iste’molda bo‘lgan leksik ma’no) berildi.
4. Izohtalab so‘z va so‘z birikmalarining izohi (bugungi kunda iste’molda bo‘limgan leksik ma’no) ko‘rsatildi.
5. Izohtalab qadimiylar qidimiy geografik va etnik nomlar ko‘tsatkichlari, ya’ni o‘rining joy, makon nomlari bazasi shakllantirildi.
6. Tarixiy, adabiy va mifik shaxslar nomi ko‘rsatkichlari (Payg‘ambarlar, podshohliklar, asar qahramonlari va hokazo) semantik teglandi.
7. So‘zlarining shakldosh variantlari orqali kontekstlar bilan ishslash va g‘azalning to‘liq matniga o‘tish imkoniyati yaratildi. Bu jarayonni amalga oshirishda quyidagi turdagи harakatlar amalga oshiriladi: lug‘atlar bilan ishslash, matnlar bilan ishslash, tushunish qiyin bo‘lgan so‘z va so‘z birikmasi bilan ishslash, shuningdek, kontekstlar bilan ishlanadi.

Alisher Navoiy g‘azallarining MKni tuzishda, global tarmoqda mavjud bo‘lgan ingliz tilidagi Shekspir, rus tilidagi A.P.Chexov, A.S.Pushkin, F.M.Dostoyevskiy korpuslari, fors-tojik mumtoz adabiyoti vakillari Rudakiy,

Firdavsiy, Sa'diy Sheroziy, Mavlono Rumiy, Hofiz Sheroziy va zamonaviy adabiyot vakillari: Loyiqali Sherali, Mo'min Qanoat, Habibillo Fayzullolarning mualliflik korpuslari arxitekturasi va algoritmi tahlil qilindi. Algoritm termini "ibtido" tushunchasini anglatib, bu so'zning etimologiyasi Al-Xorazmiy bilan bog'liq. Ma'lum bir tipga oid hamma masalalarni yechishda qo'llaniladigan jarayonlar tizimining muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida yoki qoidalar tizimi<sup>149</sup> *algoritm* hisoblanadi. Masalan, tuvakka gulni ekish uchun avval gul tanasi yoki bargidan tomirlatiladi, so'ng tuvakka o'g'itli tuproq solinadi. Nishona gul tuvakka solinib, atrofi tuproq bilan yopiladi. Keyin suv quyiladi.

Shekspir korpusining tuzilishi, tarkibi, ma'lumotlar bazasining o'ziga xos tuzilish algoritmi mavjud, A.Chexov, M.Dostoyevskiy, tojik adiblari MKning arxitekturasi va algoritmi ham o'zgacha jihatlari bilan farqlanadi. Yuqoridagi mualliflik korpuslarining algoritmlarini tahlil qilish asnosida Alisher Navoiy MKning arxitekturasi, korpusning ishslash algoritmi, tarkibiy tuzilishlari loyihalashtirildi.

Alisher Navoiy MKda ish jarayoni quyidagi biznes-jarayon modelga ega (2.2.2-rasm):



<sup>149</sup>Фалсафа. Кискача изохли луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.18.

## *2.2.2-rasm. Alisher Navoiy MK biznes-jarayon modeli.*

So‘zshaklning grammatik izohi, so‘zning qo‘llanish holati (kontekst), manba haqidagi ma’lumotlar MKning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Umuman, MKni yaratish uchun quyidagi jarayonlar muhim sanaladi:

1. Mualliflik korpuslarini yaratishda ish, dastlab, muallifga tegishli ma’lumotlarni tasniflash, to‘plash va saralashdan boshlanadi (muallif biografiyasi, asarlari, yodnomalari, kundalik yozuvlari, publitsistik chiqishlari va boshq.).
2. Avtomatik ravishda ma’lumot beruvchi xususiyatlar ajratib olinadi<sup>150</sup>.
3. Muallifga tegishli matnlar bazasi shakllantiriladi.
4. Asarlarga ekstralingvistik ma’lumotlar beriladi
5. Matn birliklari grammatik teglanadi (yarimavtomat tarzda).
6. Alisher Navoiy MK uchun izohtalab so‘zlarning semantik teglari bazasi shakllantiriladi.
7. Navoiy asarlarida mavjud tarixiy va eskirgan so‘zlar bazasi, hikmatlar va she’riy san’atlar bazasi yaratiladi.
8. Mavjud mualliflik korpuslari asosida Alisher Navoiy MK yaratish konsepsiysi ishlab chiqiladi.
9. Milliy qadriyatlar asosida MK tarkibiy qismlari dizayni kompyuter grafikasida yaratiladi.

Interfeys – foydalanuvchi va dastur o‘rtasida muloqot ko‘prigi; korpus haqidagi ilk taassurotni uyg‘otuvchi oyna. Uni yaratishda milliy xususiyatlarni hisobga olish muhim. Interfeysning umumiyligi ko‘rinishida milliy koloritning ifodalanishi, muallifning surati, fonda milliylikni aks ettiruvchi bezaklar hamda mumtoz yoki zamonaviylikni namoyon etuvchi belgilarning bo‘lishi korpusning o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi va foydalanuvchi diqqatini tortuvchi asosiy omillardan sanaladi. MK zamonaviy dizayni katta ahamiyatga ega, shu bois u

---

<sup>150</sup> Sebastiani. Machine learning in automated text categorization. Association for Computing Machinery (ACM) Computing Surveys, 2002. – 34 (1):1-47.

noyob interfeysga ega bo‘lishi kerak<sup>151</sup>. Interfeysning qulayligini hisobga olish ham e’tiborli masala sanaladi. Korpus interfeysida ijodkor yaratgan asarlar tartib bilan izchillikda joylashtirilishi talab etiladi. Tadqiqot jarayonida Alisher Navoiy “Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallari asosida MK tarkibiy qism (rukni)larining to‘g‘ri, mazmunan ketma-ketlikda joylashtirilishi, korpusning umumiy mohiyati, materiali, korpus materialini teglash kabi asosiy jarayonlar bilan bir qatorda korpus interfeysini loyihalash, grafik dizaynini va dasturiy ta’motni yaratishga ham alohida e’tibor qaratildi (2.2.3-rasm)<sup>152</sup>. Tizimli tarzda joylashtirilgan materiallar korpusdan elektron kutubxona sifatida ham foydalanishga imkon beradi. Korpus interfeysi milliy va zamonaviy xususiyatlarni inobatga olgan holda hamda jahon tajribasida MK tuzishning umumiy tamoyillari asosida loyihalashtirildi.



<sup>151</sup>Toirova G. Importance of Interface in Creating Corpus. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019.

<sup>152</sup> <http://navoikorpusi.uz/>

### *2.2.3-rasm. Alisher Navoiy MK interfeysi.*

Ingliz millati Uilyam Shekspir nomini, beba ho ijodiy merosini buyuk qadriyat hisoblaydi. Uning shoh asarlari asrlar osha necha avlod o‘quvchilari qalbini sehrlab, larzaga solib kelmoqda. Daho adib qalamiga mansub she’riyat, tragediya va komediylar, hikmatlar kelgusi avlodlar uchun ham yuksak san’at namunasi vazifasini o‘tashida Britaniya milliy korpusi tarkibidagi Shekspir mualliflik korpusning ahamiyati juda katta. Shekspir korpusining yaratilish dizayni boshqalarnikiga qaraganda ancha farq qiladi<sup>153</sup>. Shekspir korpusi ijodkorning nasriy, tarixiy, nazmiy, dramatik asarlarining elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlar bazasi hisoblanib, avtomatik tahrirlash va tarjima qilish orqali ma’lumotlarni qayta ishlash, turli xil belgilarni qidirish imkoniyalariga ega ekanligi bilan dunyoda mashhur. Shekspir MK matnni avtomatik ravishda qayta ishlaydi (tarjima qiladi) va turli xil qidiruv imkoniyatlariga ega. Ushbu korpus, shuningdek, muvofiqlik, qidiruv tizimi va asosiy foydalanish statistikasi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Sayt vaqt o‘tishi bilan ko‘p funksionallikka ega bo‘ldi: 2005-yilda chiqarilgan “Versiya 2.0”ga foydalanuvchilarga so‘z asoslarini yoki fonetik izlash hamda qidiruv natijalarini saqlash va chop etish imkoniyatlari qo‘sildi. 2009-yil o‘rtalarida “Shekspir ochiq manbali mobil” deb nomlangan portativ qurilmalar uchun mo‘ljallangan sayt versiyasi taqdim etildi. Shekspir MK ochiq manbali notijorat veb-sayt<sup>154</sup> bo‘lib, Uilyam Shekspiring to‘liq asarlarini qidirish mumkin. Undan foydalanish bepul. Sayt Moby Shekspir yordamida yaratilgan bo‘lib, u to‘liq asarlarning 1864-yilgi Globe nashriga asoslangan. Shekspir asarlari bo‘yicha 6 so‘zdan iborat birikmagacha qidiruvni amalga oshirish mumkin. Sayt tili ingliz tili.

---

<sup>153</sup> Toirova G. Importance of Interface in Creating Corpus. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. <https://www.opensourceshakespeare.org/>

<sup>154</sup><https://www.opensourceshakespeare.org/>

Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Axborot va kommunikatsion texnologiyalari maktabi hamkorligida Tojik tili milliy korpusi yaratilgan<sup>155</sup>. Korpus interfeysida ruknlar soni yetta bo‘lib, barcha ruknlarni tojik, rus, inglez tillarida o‘qish imkoniyati mavjud:

1. **Maktab haqida** deb nomlangan ruknda: *tarix, texnik ta’minot, yangiliklar, fotosuratlar, o‘quvchilar, o‘qituvchilar* bo‘limlari bor.

2. **Manbalar ruknida:** o‘quv dasturi, onlayn darslar, testlar, lug‘at va atamalar, elektron kitoblar, kutubxona bo‘limlari mavjud.


3. **Korpuslar ruknida** korpusni yaratuvchilarning korpus tuzilishi, yaratilishi haqidagi fikr-mulohazalari berilgan. Unga ko‘ra, korpusdan, birinchi navbatda, zamonaviy tojik tilining faol lug‘atini aks ettiruvchi manbalar o‘rin olishi, zamonaviy tojik tilining barcha jabhalarini qamrab oluvchi turli matnlar, xususan, mumtoz adabiyotning eng mashhur va sevimli shoirlari: Rudakiy, Firdavsiy, Xayyom, Hofiz, Rumiy va boshqalar<sup>156</sup> meroslaridan matn namunalari, zamonaviy adabiyot nasri va she’riyatining turli janrlari, tojik radio va televideniya dasturlarida efirga uzatiladigan matnlar, gazeta va axborot matnlari, jurnal matnlari, ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar, o‘quv matnlari, rasmiy, ma’muriy va yuridik ish yuritish matnlari, mashhur tojikcha izohli lug‘atlar va ikki tilli lug‘atlar, kundalik foydalanish uchun matnlar (xat yozishmalar, aloqa) kiritilishi qayd etilgan. Fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyandalari va zamonaviy adiblar asarlari jamlanmasini tashkil etgan korpus interfeysi o‘ziga xos dizaynga ega hisoblanib, bosh korpus tarkibiga mualliflar korpusi alohida<sup>157</sup> jamlangan (2.2.4-rasm).

---

<sup>155</sup> Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Монография – Тошкент: 2020. – В. 59.

<sup>156</sup> [http://www.cit.tj/index.php?menu=corpus&page=ind\\_corpus&language=ru](http://www.cit.tj/index.php?menu=corpus&page=ind_corpus&language=ru)

<sup>157</sup> [www.sit.tj](http://www.sit.tj)



## 2.2.4-rasm. Fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyandalari va zamonaviy adiblar korpusi.

Rudakiy merosini yaxlit ko‘rinishda to‘plash, rudakiyshunoslikni rivojlantirish hamda yangi tadqiqotlar olib borish uchun qulaylik yaratish maqsadida shoir tavalludining 1150 yilligiga tayyorgarlik jarayonida Rudakiy korpusiga asos solindi. Korpusga Rudakiyning beshta janrdagi: *qasida*, *g’azal*, *qit’ा*, *masnaviy* ijodiy merosidan matn namunalari va *onlayn testlari* mavjud bo‘lib<sup>158</sup>, Rudakiy she’riyati muxlislari korpus yordamida uning nodir ijodiy merosidan erkin tanishish imkoniga ega bo‘lishadi. Ushbu korpusni tashkil etishda Axborot va kommunikatsion texnologiyalari maktabining 12-18 yoshli a’zolaridan iborat yoshlar qizg‘in faollik ko‘rsatishgan. Ushbu korpus elektron kutubxona shaklida faoliyat ko‘rsatadi, razmetkalanmagan bo‘lsa-da, ayni bir ijodkor merosi, shu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish maqsadida foydalanish uchun juda qulay axborot manbayi hisoblanadi. Hofiz Sheraziy korpusida ham shoir haqida *ma ’lumot*, *o ’ttiz bitta g ’azallari matni*, *rasmlari*, *8328 so ’zshaklning izohli lug ’ati kiritilgan*<sup>159</sup>. Chastotali lug‘atdan qiziquvchilar bemalol foydalanishlari mumkin. Korpusda Firdavsiy, Sa’diy Sheraziy, Mavlono Rumiy

<sup>158</sup> <http://www.cit.tj/index.php?menu=materials&page=arudaki&lange=ru>

<sup>159</sup> [http://www.cit.tj/index.php?menu=corpus&page=hofiz\\_lugat&lange=ru](http://www.cit.tj/index.php?menu=corpus&page=hofiz_lugat&lange=ru)

kabilar mumtoz adabiyot vakillari hayoti va ijodiy merosi haqida ham ma'lumotlar razmetkalanmagan holatda berilgan.

Zamonaviy adabiyot vakillaridan Loyiqali Sheralining (1941-2000) MK 6 rukndan: *tarjimayi holi, she'rlari, fotosuratlari, yigirma bitta she'rlarning muallif ovozi bilan aytilgan mp3 formatdagi yozuvi* (“Ustoz ovozi”), Loyiqali Sheralining ijodini aks ettiruvchi beshta *videolavhalar* va *21536 so'zshakldan iborat lug'atni o'z ichiga oladi*<sup>160</sup>.

4. **Kutubxona bo'limida**<sup>161</sup> o'quv jarayonida talabalar uchun qiziqarli va hajman kichik bo'lgan kitoblar maxsus formatda joylashtirilgan. Ba'zi kitoblar *pdf* formatida, ba'zilari esa *djvu* formatida dasturlangan bo'lib, barcha kitoblar WinRAR dasturi orqali arxivlangan. Kutubxona bo'limida elektron kitoblar mazmun-mohiyati, qo'llanilish sohasiga ko'ra, (Apparat, OS Windows, Linux, MS Office dasturlari, dasturlash tillari, veb dasturlash tillari, grafik paketlar bo'yicha hujjatlar va qo'llanmalar) jami 54 ta kitob jamlangan.

5. **Bizning ishlarimiz** ruknida o'quvchilarning ijodiy ishlaridan namunalar berilgan.

6. **Ma'muriyat bilan aloqalar** ruknida maktab koordinatalari, hamkor va do'stlar kabi ma'lumotlar kiritilgan.

7. **Sayt havolasi** mavjud.

Rus adabiyoti vakillaridan A.Chexov MKda asarlari ilmiy tadqiq etilmagan, asarlar majmuasi mavjud bo'lib, Chexov asarlari korpusi 36 153 lemma yoki leksemani qamrab olgan. F.M.Dostoyevskiy MK ijodkor til xususiyati o'rghanishga mo'ljallanmagan, elektron korpus sifatida ma'lumot beruvchi baza hisoblanadi. A.Pushkin MK ham shoir ijodining tili, asar matnlarining grammatic, morfemik va stilistik xususiyatlari, so'z hamda iboralarning turli janrli matnlarda qo'llanilishi, o'ziga xosligi yaxlit tizim sifatida o'rganilmagan.

---

<sup>160</sup> <http://www.cit.tj/index.php?menu=corpus&page=loiq&lange=tj>

<sup>161</sup> [http://www.cit.tj/index.php?menu=corpus&page=ind\\_corpus&lange=ru](http://www.cit.tj/index.php?menu=corpus&page=ind_corpus&lange=ru)

Har bir mualliflik korpuslarining interfeysida namoyon bo‘lgan ma’lumotlari, ruknlari, kirish imkoniyatlari, ularni yaratishda foydalanilgan maxsus dasturlar, ma’lumotlarni lingvistik izohlash, so‘zshakllarni teglash xususiyatlari, korpus hajmi, tarkibi, xronologik ma’lumotlarini tahlil qilish natijasida Alisher Navoiy MK loyihalashtirilib, uning dastlabki versiyasi yaratildi<sup>162</sup>.

### **2.3. Mualliflik korpusi uchun matnlarni grammatik teglash xususiyatlari**

Grammatika haqida qadimiy sharq va g‘arb olimlari yaratgan asarlar mavjud bo‘lib, ular, asosan, so‘z shaklini o‘zgartirish uchun xizmat qiladigan vositalalar (turli qo‘srimchalar, affikslarni) va gap tuzish tartib-qoidalarini tadqiq qilganlar. Navoiyning buyuk xizmatlari soyasida XV asrdagi turkiy adabiy tilning ichki struktura elementlari – grammatikasi, fonetika tomoni va leksikasi, uslubiyati va ularning normalari yanada puxtalashdi, kengaydi hamda ancha takomillashdi: adabiy tilning, ayniqsa, leksik boyligi va stilistik imkoniyatlari ortdi<sup>163</sup>.

XIX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodga asoslanishning ommalashishi natijasida tillardagi ko‘pgina grammatik xususiyatlarni chuqurroq o‘rganish mumkin bo‘ldi. Endilikda grammatika tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, u tildagi barcha grammatik vositalarni – so‘zni kichik ma’nodor bo‘laklarga bo‘lish va so‘z yasovchi hamda so‘z o‘zgartiruvchi turli qo‘srimchalar – affikslar (prefiks, infiks va postifikslar) hamda so‘z tartibini, gapning maqsadga ko‘ra turlarini o‘rganmoqda<sup>164</sup>.

---

<sup>162</sup> <http://navoiykorpusi.uz/gazalgazal>

<sup>163</sup> Шамсиев П., Иброҳимов С. Алишер Навоий асарлари лугати. – Тошкент, Ғафур Ғулом, 1972. – Б. 8.

<sup>164</sup> Abduaizizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent.: Sharq, 2010. – В. 97.

Korpus lingvistikasida teglar tizimini soddalashtirish annotatsiyalash (teglesh) amaliyotini osonlashtiradi. Sh.Xamroyeva Abdulla Qahhor korpusi uchun “Bemor” hikoyasi matnini grammatic teglesh muammolarini o‘rganar ekan, hikoyaning morfologik, sintaktik hamda semantik teglar tizimini ishlab chiqadi<sup>165</sup>.

Badiiy matnlarning grammatic tahlili natijasida muallif til uslubi, tez-tez qo‘llanuvchi til birliklari (otlar, sifatlar, kalit so‘zlar, fe’llar, grammatic shakllar, jumla qurilishi, bir so‘z bilan aytganda, yozuvchining o‘ziga xos uslubini ko‘rsatuvchi vositalar) lingvostatistik tahlil yordamida aniqlanadi<sup>166</sup>.

**Grammatik ma’no va grammatic shakl.** Ma’lumki, grammatic ma’no ifodalashning turli vositasi mavjud. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalar shular jumlasidan. Demak, grammatic ma’noni faqat so‘z yoki so‘zshaklga nisbat berish ma’qul emas. Nutqni shakllantiruvchi barcha lisoniy birlik grammatic ahamiyat kasb etishi mumkin. Grammatik ma’no deganda til birliklari (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik)ning nutqni shakllantiruvchi umumlashma ma’nolari tushuniladi. Alisher Navoiy asarlarining lug‘at boyligini o‘rganish va ma’nolar xazinasini talqin qilish bo‘yicha ham asrlar davomida bir qator diqqatga sazovor ishlar amalgalashirilgan<sup>167</sup>.

Navoiy asarlari tilining fonetikasi hozirgi zamon o‘zbek tili va X-XIII asr yodnomalari tilining fonetikasidan o‘zining ba’zi xususiyatlari bilan farq qiladi. Navoiy tilining fonetik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar hali to‘la-to‘kis ravishda hal qilingani yo‘q. Navoiy nutqining fonetik bo‘laklari haqida tilshunoslarimiz bir-biriga mos kelmaydigan turli fikrlarni bayon qilganlar<sup>168</sup>.

Navoiy o‘zbek tilida 100 ta fe’lni yuzaga kelishi sabablarini ko‘rsatadi va ularning tahlilini beradi. Bunday fe’llarning ko‘plari fors tilida uchramasligini

<sup>165</sup> Хамроева ІІІ. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Монография. – Тошкент. 2020. – 165 б.

<sup>166</sup>Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari - Т.: Akademnashr, 2011. – В. 154.

<sup>167</sup>Курбонбеков А., Маннонов А., Имомназаров М. Алишер Навоий асарлари бўйича конкорданс тузиш қўлланмаси. – Т.: Фан ва технология. 2015. – Б. 3.

<sup>168</sup>Абдурахмонов F., Рустамов А. Навоий тилининг grammatic хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984, – Б. 6-7.

qayd etadi, u qator fe'llardagi sinonimlarni misol keltiradi. Navoiy asarlari tili singarmonizmsiz shevalarga asoslangan, deb qaraladi. E.D.Polivanov esa uning asarlari O'rta Osiyo tilida yozilganligini qayd etadi<sup>169</sup>. N.Rajabov Navoiy tili va umuman, o'zbek tili ustida olib borgan kuzatishlari natijasida o'zbek nutqining, shu jumladan, Navoiy nutqining ham fonetik bo'laklari jumla, sintagma, takt, bo'g'in va tovushlardan iboratligini, jumla eng yirik fonetik birlik bo'lib, nutqning ikki pauza orasidagi maxsus intonatsiyaga ega bo'lgan bo'lagi ekanligini ta'kidlaydi.

Mualliflik korpuslarini lingvistik tadqiqotlar uchun yanada foydali qilish, korpusning ta'limiy, ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini oshirish, uning o'qishliligi, tushunarligini oshirish uchun ular, albatta, annotatsiyalanadi. Korpusga izoh berishning oddiy misoli so'z turkumlarini *izohlash – teglashdir*, unda har bir so'zning turkumi (masalan, *fe'l*) va shu turkumga tegishli kategoriyalari (*fe'lning zamon, mayl, nisbat, shaxs-son* kabi) haqidagi ma'lumotlar *teglar* ko'rinishida korpusga qo'shiladi. MKlarida har bir so'zning lemma (asos / normal shakl) shaklini ko'rsatish juda muhim, agar korpusning tili undan foydalanadigan tadqiqotchilar ishlaydigan til bo'lmasa, izohni ikki tilli qilish uchun chiziqlararo nashrlash qo'llaniladi<sup>170</sup>. Grammatik teglash quyidagi turlarga bo'linadi: **morfologik, sintaktik va semantik teglash.** Morfologik teglashda lemmatizatsiya<sup>171</sup> va stemming jarayonlari aniq bo'lishi uchun so'zlarning morfo-sintaktik (har bir so'z shakli uchun morfologik struktura) yoki so'z turkumini teglash (asoslarni ajratib ko'rsatish, uning turkumi va grammatik kategoriyalarning belgilarini aniqlash) jarayonlari bajariladi; sintaktik teglashda sintaktik aloqaning xususiyati, gap turi, gap bo'lagi va boshqalar aniqlanadi,

---

<sup>169</sup> Поливанов Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков. Вып. 1. Происхождение и наименование узбеков – Ташкент: 1925. – С. 13.

<sup>170</sup>[https://uz.wikipedia.org/wiki/Matn\\_korpusi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Matn_korpusi)

<sup>171</sup> Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturining lingvistik modullari [Matn]: monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 25-26.

semantik teglashda esa semantik omonimiyanı aniqlash, anafora va izohlarni taqdim etish, matn tuzilishini aniqlash kabi amallar bajariladi.

Shekspir MKda so‘zshakl (wordforms) uchun quyidagi xususiyatlar belgilab berilgan<sup>172</sup>:

<b>WordFormID</b>	– Har bir so‘zshakl uchun unikal identifikator
<b>PlainText</b> (Oddiy matn)	– Ingliz tilidagi bosh harflarda berilgan asliy tarjima
<b>PhonetikText</b> (Fonetik matn)	– So‘zshaklning fonetik belgilari
<b>StemText</b> (Asosiy matn)	– So‘zshakl ifodalagan asosiy ma’no
<b>Occurrences</b> (Holat)	– So‘zshaklning asarlarda uchrash holati (statistikasi)

Alisher Navoiy MKda Navoiy davri tilini tushunish, XV arsga oid mumtoz manbalarning kitobxonlarini oshirish maqsadida Navoiy asarlaridagi izohtalab so‘zlar foydalanuvchilarga amaldagi o‘zbek adabiy tilida qisqa izoh tarzida taqdim etiladi. Buning uchun Navoiy asarlarini grammatik va semantik teglash muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mumtoz asarlarda qo‘llanilgan so‘zlarni ta’lim tizimida o‘quvchilarga anglatish, o‘zbek xalqining barcha davrlarga oid milliy-adabiy merosini raqamli texnologiyaga kiritish, asrlar davomida yashab kelayotgan davlat tilining formal shaklini yaratish, lingvistik tarjimon va matnlarni tahlil qilish dasturlari hamda Alisher Navoiy asarlari parallel korpusini yaratish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Shu bois Navoiy so‘zliklarini grammatik teglash ahamiyatli hisoblanadi.

Alisher Navoiy “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning semantik teglari bazasini yaratishda asarda qo‘llanilgan izohtalab so‘zlarning grammatik va semantik izohi tarixiy grammatika, ya’ni ma’lum bir tilning grammatik qurilishida ro‘y bergen o‘zgarishlar asosida tahlil qilindi. So‘z – umumlashtiruvchi ma’noga ega. Masalan, “*ummohot*” so‘zi Alisher Navoiy

---

<sup>172</sup> [https://www.opensourceshakespeare.org/info/database\\_structure.php](https://www.opensourceshakespeare.org/info/database_structure.php)

asarlarida ham *onalar*, ham *to 'rt unsur* (*quyosh, havo, suv, tuproq*) kabi leksik ma'nolarni ifodalaydi:

Bahona *ummahot* o'ldi-yu obo yo'qsa sun'ungdin,  
Ato birla anog'a ne atov-u ne ano paydo.

Baytda ummohot so'zi *onalar* leksik ma'nosini ifodalab kelgan bo'lsa, quyidagi baytda *to 'rt unsur* ma'nosini ifodalamoqda:

Obo chu bularg'a ot bo'ldi,  
Ul to'rt ham ummahot bo'ldi.

Grammatik ma'no o'z mazmuniga ega bo'lib, bir guruhdagi barcha so'zlarning biror belgisini ko'rsatadi va umumiylig belgisiga ega bo'ladi. Grammatik ma'no leksik ma'noga qaraganda ancha mavhumroq ekanligi uning biror guruhdagi so'zning umumiy belgisini ifodalashi bilan izohlanadi. Grammatik ma'noni grammatik vositalarsiz aniqlab bo'lmaydi. Masalan: *mehr, mehrni, mehrda, mehrdin* kabi so'z shakllari qiyoslanganda, ulardagi kelishik qo'shimchalari (-ni, -da, -din) yoki *bo'ldi, bo'lur, bo'lar* kabi fe'l shakllarini qiyoslasak, ulardagi zamonga tegishli qo'shimchalar (-di, -ur, -ar) grammatik ma'noni ifodalovchi vositalar hisoblanadi.

Morfema (bu yerda affiks/qo'shimcha haqida) til qurilishining leksemadan keyingi asosiy birligi bo'lib, leksemadan farqli holda grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Leksema ham, morfema ham til birligi (lisoniy birlik) sifatida qismga teng. Leksema o'z turkumi nuqtayi nazaridan grammatik tavsif olganidan keyingina butun holatiga o'tadi va nutqqa chiqadi. Morfema ham, odatda, o'zi mansub turkum leksemasiga qo'shilgan holda nutqqa chiqadi. Leksema – yetakchi birlik, morfema – leksemaga qo'shiladigan birlik (shu xususiyatiga ko'ra, morfemada *affiks / qo'shimcha / formant* nazarda tutiladi).

So'zni morfem tahlil qilishda so'zning barcha morfemalari (ham yetakchi morfema, ham ko'makchi morfema) alohida tahlil qilinadi. Masalan, *nomehribonim* so'zini morfem tahlil qilganda *mehribon* – yetakchi (asos

morfema), no-, -bon ko‘makchi morfema, vazifasiga ko‘ra so‘z yasovchi morfema; -im – ko‘makchi morfema, vazifasiga ko‘ra shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi morfema sanaladi. Demak, *nomehribonim* so‘zi to‘rtta ma’noli qismga bo‘linadi: bitta yetakchi morfemaga va uchta ko‘makchi morfema. Shunday tahlillar jadvalda quyidagicha ko‘rinish hosil qiladi:

So‘z	Yetakchi morfema	Ko‘makchi morfema		
		So‘z yasovchi morfema	Shakl yasovchi morfema	Sintaktik shakl yasovchi
dilistonim	dil	-iston	-	-im
bemiqdor	miqdar	be-	-	-
xabarsiz	xabar	-siz	-	-
oqara	oq (sifat)	-ar	-a	-
yo‘llanmoq	yo‘l	-la	-n, -moq	-
kulgu (kulgi)	kul (fe'l)	-gu (-gi)	-	-
yig‘latadur	yig‘i (ot) (unli fonema tushishi)	-la	-t,	-adur (-adi)
bekaslik	kas	be-, -lik	-	-
qilibon	qil (moq)	-	-ibon (-ib)	-
orazingni	oraz	-	-	-ing, -ni

Yuqoridagi jadvaldagi *yig‘latadur* so‘zining tahlilida shu jihatni e’tiborga olish kerakki, asl turkiy, o‘zbekcha so‘zlar asosida fuziya (yoki fleksiya – tovush o‘zgarishlari) hodisasi kuzatilmaydi. Bu so‘zda esa fuziya so‘z asosida kuzatilmoga, -adur shakli ham arxaik shakl sifatida tahlil qilinadi.

Quyidagi baytda ham shunga o‘xhash holatlarni kuzatishimiz mumkin:

Labki xandon qilibon qosh-u ko‘zin o‘ynatadur,

O‘ynay-o‘ynay meni bechorani qon yig‘latadur.

So‘z	Yetakchi morfema	Ko‘makchi morfema		
		So‘z yasovchi morfema	shakl yasovchi morfema	Sintaktik shakl yasovchi
o‘ynatadur	o‘yin	-a	-t	-adur (arxaik)

xandong‘a	xanda	-n	-	-g‘a (arxaik)
-----------	-------	----	---	---------------

**So‘z yasalish tahlili** (yasalma) har doim ikki qismdan iborat (bunda shakl yasovchi qo‘srimchalar e’tiborga olinmaydi. 1. Yasashga asos qism. 2. Yasovchi vosita.

Yasalma	Yasashga asos qism	Yasovchi vosita
bekaslik	bekas	-lik
notavon	tavon	no-
ta’limgoh	ta’lim	-goh
odamiy	odam	-iy

Agar so‘zda birdan ortiq yasovchi qo‘srimcha bo‘lsa, eng oxirgi yasovchi qo‘srimcha – yasovchi vosita sanaladi, qolgan yasovchi qo‘srimchalar esa yasashga asos qism tarkibiga kiradi:

Yasalma	Yasashga asos qism	Yasovchi vosita
bekaslik	bekas	-lik
mehribonliq	mehribon	-liq

Alisher Navoiy so‘z yasalishi bo‘yicha maxsus to‘xtalmagani, affikslarning ma’no ifodalash imkoniyatlari va bunday imkoniyatning sort (fors) tilida cheklanganligini, qo‘yingki, ikki til bahsini grammatik sathda olib borganligi tufayli, bugungi kunda so‘z yasalishi, shakl yasalishi atamalari bilan farqlanuvchi yasalishlarni bir-biridan ajratmaydi<sup>173</sup>. Nutqni ravon, ta’sirchan, emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor bo‘lib chiqishida zid ma’noli qo‘srimchalardan foydalanishning ahamiyati katta. Masalan, *-li* qo‘srimchasi *-siz*, *be-*, *no-* qo‘srimchalariga nisbatan qarama-qarshi qo‘yiladi<sup>174</sup>. Navoiy g‘azallarni emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdorligini, ohangdorligini oshirishda so‘z yasalishidagi *suffiks*, *prefiks* qo‘srimchalardan unumli foydalangan.

<sup>173</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 92.

<sup>174</sup>Anorbekova A., Sh. Mirzayeva. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Noshir, 2011. – B. 82.

*Bekaslik, behad, notavon, bemehr, bemiqdor, ta'limgoh, noshukur, bekas, nomehribonim, benavo, badmast, bedod, beshak, bexabar, behushu, nohush, bekaslik, behadu, notavon, bemehr, bevafodur, bemiqdor, bedor nopok, nomusulmon – prefiks asosida yasalgan so‘zlar.*

*Zahrxand, tanburachi, dardman, odamiy, yorsiz, xabarsiz, xiradmand, dilistonim, sensiz, uchqun, surma, shirinkor, ta'makor, xiradmand, zahrxand, shakarxand, dardmand, odamiy, gulzor, xabarsiz, diliston, oqara, otashnok, otashgoh – suffiks asosida yasalgan so‘zlar.*

Navoiy sintaktik usul orqali yasalgan qo‘shma va juft so‘zlardan ham foydalanib sermahsul ijod qilgan. Masalan, *ta'limgoh, garonjondur, oshuftaro 'zgar, dilxasta, mehnatobod, shakarguftor, devsiyrat, hamishabahor, malaksiymo, mayxona, otashpora, navjuvon, jonbaxsh, gulbarg* – kompozitsiya usuli bilan yasalgan so‘zlar.

Alisher Navoiy dalil uchun keltirilgan leksemalarning har qaysisini she’r ichida ishlatadi va bu so‘zlarning matn tarkibidagi badiiy-estetik rolini ko‘rsatib beradi.<sup>175</sup>

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda bir semantik ma’noli va ko‘p semantik ma’noli leksemalarni uchratishimiz mumkin (Qarang: 2.3.1-jadval). Bir necha semantik tegga ega so‘zlar orqali o‘quvchi, umuman, foydalanuvchi bir asosli, ammo ma’nolari turlicha so‘zlarni ajrata olish imkoniga ega bo‘ladi (Qarang: 2.3.2-jadval). Alisher Navoiy ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zni omonim (tajnis)dan farqlaydi. Bir so‘zning ichidagi turli ma’no nozikliklari haqida alohida fikr yuritadi. Tajnis – bu jinsdosh, ya’ni moddiy tomoni (ifoda tomoni) bir xil bo‘lgan turli so‘zlar ekanligini yaxshi anglaydi<sup>176</sup>. Ko‘p ma’nolilik qadimgi turkiy tilga ham xos xususiyatlardan biridir. Navoiy asarlarida qo‘llagan **kayfiyat**<sup>177</sup> so‘zining qadimgi turkiy tilda quyidagi ma’nolari bor:

---

<sup>175</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 89.

<sup>176</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи.– Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 90.

<sup>177</sup> Tursunov U. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – Б. 91.

## **1. Hol, ahvol, holat, qandaylik:**

Shah oldinda hamisha hozir o'lsam,  
Bu ish kayfiyatig'a nozir o'lsam.

## **2. Kayf qilishlik, xursandchilik:**

Agarchi kayfiyat ichra ko'runibon bir nav'  
Va lek kayfiyat andin ko'ngulga yuz turluk.

**3. Sifat, xususiyat:** Andoqkim, aning kayfiyatidin falonekim tab'ining diqqat va latofati jonbaxshliqda Masiho erur.

## **4. Haqiqiy ishq:**

Kayfiyatini aylading mafhum,  
Bo'ldimu bu ish haqiqati ma'lum.

Yoki **karam**<sup>178</sup> so'zi:

### **1.Yaxshilik, ehson:**

Chun karam bahri mavjzan etti,  
Mehmon arzi iltimos etti.

### **2. Mehribonlik, saxiylik:**

Nazar etmay zamona g'amlarig'a,  
Shukr deb tengrining karamlarig'a.

### **3. Marhamat:**

Shahr eli andin erdi sharmanda,  
Karami barchani qilib banda.

**4. Karam, poliz ekini, rezavorning bir turi:** Bu davrda karam sabzasi tarrafurush do'konidin o'zga yerda topilmas.

Karam so'zi bu ma'nolaridan tashqari, qo'shma fe'l shaklida ham bir qator ma'nolar hosil qiladi. Bu ma'nolar qo'shma fe'lning yetakchi fe'l qismi natijasida paydo bo'lgan:

---

<sup>178</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 2-жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 98.

**Karam ayla** – yaxshilik qilmoq, saxiylik qilmoq, marhamat qilmoq:

Karam aylab, ey mug‘, manga boda tutting,

Qachon shayx ko‘rguzdi mundoq karomat.

**Karam xomasin chek** – baxshish qilmoq, afv qilmoq:

Qoshingda tuzub afv hangomasin,

Gunohingg‘a chektuk karam xomasin.

*Karam* so‘z birikmasi tarkibida qo‘llanganda, birikma bir ma’noni ifodalaydi:

**Karam ahli** – saxiylar, olivjanoblar, marhamatlilar: Karam bashar ta’bida noyob va nobuddur, bu sababdin karam ahli nopaydo va nomavjuddur.

Misollardan ko‘rinadiki, *karam* so‘zining ezgu munosabatni ifodalashi jihatidan integral sememalari ko‘p ma’nolilikni, poliz ekini ma’nosini bilan esa omonimlilikni yuzaga keltirmoqda. Ma’nolar esa kontekstda yuzaga chiqadi<sup>179</sup>.

Alisher Navoiy Sharq tilshunosligida mavjud bo‘lgan leksikadagi bilimlar bilan qurollangan. Ana shu bilim asosida turk tilining lug‘at boyligini ko‘rsatishga harakat qiladi. Buning uchun xalq tilidan forsiy ekvivalenti bo‘lmagan bir qancha so‘zlarni topadi. Ana shunday so‘zlarga turk tilidan yuzta fe’lni keltiradi. Bu fe’llar Alisher Navoiyning o‘zbek tili imkoniyatlarini ko‘rsatmoq uchun xalq tilini qanchalar sinchkovlik bilan chuqur o‘rganganligini isbotlovchi dalillardir. Navoiy yuqoridagi fe’llarning ba’zilari integral/birlashtiruvchi sememasi bilan bir paradigmmani hosil qilsa ham, ba’zilari differensial/farqlovchi sememaga ham ega ekanligini ko‘rsatadi<sup>180</sup>. Masalan, Navoiy “Badoye’ ul-vasat” devonida *tabassum*, *xandon otmoq*, *shakarxand*, *no ‘shxand*, *kulgi* so‘zлari “kulmoq” umumlashtiruvchi sememasi bilan bir xil ma’noga ega bo‘lsa ham, ammo ularning har qaysisi kulgining turli xil ko‘rinishlarini ifodalaydi. Bu so‘zlarning umumiyyati ma’nosini bir bo‘lsa-da, lekin ular kulgining sifatlariga ko‘ra farqlanadi. Yuqoridagi

---

<sup>179</sup> Tursunov U. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – B. 91.

<sup>180</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 91.

tahlillarga namuna sifatida “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallardan baytlar keltirildi:

Xas kebi bo‘lsa Navoiyg‘a sarig‘ yuz, kulma,

Ko‘rguzur gulni dog‘i bog‘da gulzor sarig‘. (297-g‘azal, 7-bayt)

Baytda *kulgi* “masxara qilib kulmoq” ma’nosida kelib, Navoiy insonning tashqi ko‘rinishiga qarab baho bermaslik kerakligini, tashqaridan qaraganda go‘zal ko‘rinmagan insonning qalb olami go‘zal bo‘lishi mumkinligi haqida aytadi. Navbatdagi baytda esa “*xandon qilibon*” fe’lini “*kulma*” fe’liga zid qo‘yadi, ya’ni *xandon otib* kulganidan ma’shuqaning *qosh-u ko‘zi o‘ynab ketishini* aytadi. *Xandon otib* kulishidan *qosh-u ko‘zning o‘ynash* holati mubolag‘a san’atini vujudga keltirmoqda:

Labki xandon qilibon qosh-u ko‘zin o‘ynatadur,

O‘ynay-o‘ynay meni bechorani qon yig‘latadur.

Navbatdagi baytda “*tabassum*” so‘zi “*xandon*” so‘ziga nisbatan mazmun bo‘yoqdorligiga ko‘ra kuchsizroq ma’noda qo‘llanilgan:

Gah biyik, gah past giryon ko‘rsangiz ushshoqni,

Fosh kulmassiz, nihon bore tabassum aylangiz. (217-g‘azal, 2-bayt)

Oshiqlarni goh buyuk, goh past nazarda ko‘rsangiz, oshkor *kulmasangiz* ham yashirin *tabassum* qilib qo‘ying deydi.

Labingning shakkari aylab tabassum,

Guli xandonga ko‘rguzdi shakarxand<sup>181</sup>. (116-g‘azal, 5-bayt)

*Shakarxand* so‘zi “*shirin kulgi*”, “*yoqimli kulgi*” ma’nolarini bildirib xandon bilan birga ma’noni kuchaytirib, uslubiy bo‘yoqdorlikni oshiradi.

Yor shirin la’lidin har lahza aylar no‘shxand,

---

<sup>181</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 2 жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985.– Б. 495.

Ishqidin har dam Navoiy garchi yig‘lar zor talx<sup>182</sup>. (110-g‘azal, 9-bayt)

*No ‘shxand* <sup>183</sup> – “*chiroyli kulgi*” ma’nosini bildirib, “*shakarxand*” sememasi bilan parallel ma’noda ishlatilgan. Quyidagi baytda ham kulgi leksemasi bilan bog‘liq tahliliy qarashlar mavjud:

Holima qolur taajjubdin el og‘zi ochilib,

Yo‘qsa ahvolim jahon ahlig‘a kulgu aylading.

Yana *kulgi* lafzi ham borligi va u boshqa paradigma a’zolaridan farqli belgiga ega bo‘lib, “*mazax*” bo‘lish ma’nosida qo‘llanilganligi bayon qilinadi. Navoiy turk tilida bu kabi sinonimlar g‘oyat ko‘pligi va bu she’riyatda so‘z o‘ynoqilagini oshirish uchun qulay imkoniyat yaratishini ta’kidlaydi.

Navoiy g‘azallarining nutqiy ohangdorligini oshirish maqsadida izofalardan unumli foydalangan. Izofa ikki otning aniqlovchilik munosabatiga kirishuvi hisoblanib, bunday munosabatda biror shaxs, predmet yoki tushunchaning boshqa bir shaxs, predmet yoki tushunchaga qarashliligi ko‘rsatiladi. Ikki ot orasidagi bunday munosabat maxsus affikslar orqali ifodalanadi. Bu xil izofalar eski o‘zbek tilida keng qo‘llangan<sup>184</sup>. Xususan, “Badoye’ ul-vasat” devonida: *xatu xol, jonu jahon, labu xoling, oqilu farzona, shulayi oh, bodayi la'l, bati dayr, axtari naxs, xayli malakut, lofu fusun, dog'i hijron, dog'i nihon, labhu nisyon, toqi ayvon, sirri xafiy, gulbodau ahzar* kabi izofalar uchraydi.

15-g‘azal, 4-bayt – Tanda har kun yuz tuman *dog'i nihonidur manga*;

79-g‘azal, 3-bayt – Derki: boqqilkim, erur ul *toqi ayvonimda* sabt;

252-g‘azal, 5-bayt – Bilsam edikim, *lutfi izofat* bo‘lur ermish;

344-g‘azal, 5-bayt – Netib naxli umidimdin *guli vasl* orzu aylay.

---

<sup>182</sup> O‘sha asar. – Б. 495.

<sup>183</sup> O‘sha asar. – Б. 495.

<sup>184</sup> Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Maxmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008. – Б. 333-337.

491-g‘azal, 2-bayt – Har qonki tomar *dog ‘i nihoni* yurakimdin;

Bunday izofalardan g‘azallarining ta’sirchanligini oshirish hamda qo‘shimchalarning har baytda takror qo‘llanmasligi uchun xizmat qilgan.

Navoiy o‘z asarlarida qadimgi turkiy, arab, fors tillariga oid so‘zlardan mohirona foydalangan. Alisher Navoiy ijodining o‘zgacha jihatni yana shundaki, fors-tojik va turkiy so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shish yo‘li bilan g‘azallar ohangdorligini va mazmunini boyitgan. Devondagi 276-g‘azalda<sup>185</sup> uch tilning mazmuniy ohangdorligini ko‘rishimiz mumkin. Shoir mazkur g‘azalda arabiyligi, forsiy va turkiy so‘zlardan katta mahorat bilan foydalanganki, misralarni o‘qisangiz xuddi turkiy so‘zlarning mutolaasidek tuyuladi. G‘azalda qofiyadosh so‘zlar, asosan, arabcha so‘zlardir. Eng asosiysi va kishini hayratga soladigan jihatni, g‘azaldagi 14 ta: *mabda, murtoz, fayoz, zoye’, ubju, muolij, amroz, e’roz, kavnay, ig‘moz, bayoz, illalloh, miqroz, kajkuli* so‘zlari devondagi boshqa g‘azallarning hech birida uchramaydi:

Fayz taqvida chun yo‘q, bil, kim erur, ey murtoz,

Mabdai fayz ko‘pu maykada piri fayyozi.

G‘azalning birinchi baytida arabiyligi, forsiy va turkiy so‘zlar qatnashgan *mayka*<sup>186</sup> – *mayxona, haqiqiy ishq mayxonasi; pir*<sup>187</sup> – *ustoz, boshliq, tasavvuf tariqatining boshlig‘i; mayxona*<sup>188</sup> – *may sotiladigan, ichiladigan joy* (ramziy ma’noda Ollohnning uyi). *Fayz* – arabcha so‘z bo‘lib, ko‘p ma‘nolidir: a) fayz – *bahra, dilxushlik, quvonch*; b) fayz – *baraka, mo‘llik*; c) fayz – *ko‘rkamlik, nuroniylilik*<sup>189</sup>; d) fayz – *halovat, joziba, osoyishtalik, tinchlik*.<sup>190</sup>; e) fayz – *saxovat, muruvvat*<sup>191</sup>.

<sup>185</sup> Алишер Навоий. Бадоев ул-васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б. 279.


<sup>186</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 2-жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 211.

<sup>188</sup> O‘sha asar. – B. 212.

<sup>189</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 2-жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 211.

<sup>190</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. / А. Мадвалиев таҳрири остида. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон милллий энциклопедияси, 2000-2006. – Б. 319.

<sup>191</sup> O‘sha asar. – B. 319.



Manbalardan ma'lumki, Alisher Navoiy o‘z ijodida 26 035 dan ortiq so‘zni ishlatgan. Bu so‘zlarning aksariyatidan hozir kundalik faoliyatimizda, so‘zlashuv nutqimizda umuman foydalanmaymiz. Alisher Navoiy MK uchun g‘azallar tahlilida arxaik va tarixiy so‘zlarni mazmunan yoritib berish ham juda muhim sanaladi. Tilimizning ma'lum davrida qo‘llanilib, hozirgi kunda foydalanimaydigan so‘zlar eskirgan so‘zlar hisoblanadi, bunday so‘zlarning izohini bilmasdan Navoiy asarlarini o‘qish, tushunish haqiqatdan yiroq bo‘lgan holatdir. Ma'lumki, so‘zlarning eskirishi ikki yo‘l bilan amalga oshadi:

1. So‘z o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birligida eskiradi. Bunday so‘zlarga **tarixiy so‘z (istorizm)lar** deyiladi. Bu so‘zlar yaqin o‘tmishda qo‘llanib kelgan so‘z, so‘z birikmasi, qo‘shimchalardir: *mingboshi, qozi, faqir, arshi a’lo* kabi.

2. So‘z eskiradi, tushuncha saqlanadi va u boshqa so‘z bilan nomlanadi. Ular **arxaik so‘zlar** deyiladi. Arxaizmlar o‘tgan davrlarda qo‘llanilib, hozirgi kunda iste’moldan chiqqan so‘z, so‘z birikmasi va qo‘shimchalardir: *ashu (qizil tuproq), ashuq (temir qalpoq, dubulg‘a), aqru (sekin)*.

Arxaik va tarixiy so‘zlar, qo‘shimchalar badiiy va ommaviy uslublarni hosil qiladi. Arxaizm va tarixiy so‘zlar yozma adabiyotda tarixiy davrni tasvirlash

uchun, uslubiy ma'noda esa asar qahramonini ta'riflash, uning eskilikka moyilligini ko'rsatish, mazax, kulgi mazmunida qo'llaniladi<sup>192</sup>. Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonida qo’llangan arxaizm va istorizm so‘zlarni tahlil qilish MKni yaratish jarayonida g‘azaldagi bayt va misralarni semantik teglashda muhimdir:

<b>Arxaizm</b>	<b>Ma‘nosi</b>	<b>Istorizm</b>	<b>Ma‘nosi</b>
<b>oraz</b>	chehra, yuz	<b>haramiyalar</b>	haramdagilar
<b>paykon</b>	o‘q	<b>xud</b>	dubulg‘a
<b>muqbil</b>	baxtli	<b>nol</b>	qalam ichidagi soch tolasi
<b>ganj</b>	xazina	<b>nahsvash kavokib</b>	nahs yulduzlar
<b>ahbob</b>	do‘sstar	<b>kungur</b>	qasr devorlarining tish shaklidagi yuqori qismi
<b>musallo</b>	joynamoz	<b>bodapolo</b>	mayni sof etuvchi
<b>day</b>	qish	<b>vasat</b>	e’tidol
<b>chug‘z</b>	boyqush, boyo‘g‘li	<b>usturlob</b>	munajjamlar asbobi
<b>livo</b>	bayroq	<b>murtoz</b>	riyoza chekuvchi, so‘fiy
<b>atfol</b>	bolalar	<b>ahli usul</b>	faqihlar
<b>vard</b>	gul	<b>mahmil</b>	mahoфа, kajava
<b>qosid</b>	ekchi	<b>porso</b>	taqvoli kishi
<b>ol</b>	qizil	<b>bayt ul-hazan</b>	g‘amxona
<b>payk</b>	elchi	<b>fatila</b>	pilik
<b>madfan</b>	qabr	<b>chalipo</b>	xoch
<b>sabuh</b>	sharob	<b>mijmar</b>	xushbo‘y giyohlar tutatiladigan idish, chog‘don
<b>bar</b>	meva	<b>igrim</b>	girdob
<b>noqa</b>	tuya	<b>g‘ul</b>	jin
<b>soyil</b>	gado	<b>muammar</b>	farmon beruvchi

<sup>192</sup> Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Noshir, 2011. – B. 71-72.

Devondagi g‘azallarda ma’no torayishiga uchragan yoki bugungi kunda iste’moldan chiqqan izohtalab so‘zlarning mavjudligi aynan Navoiy asarlarining semantik teglari bazasini yaratish zarurligini ko‘rsatadi:

<b>G‘azallarda uchraydiyan iste’moldan chiqqan leksemalar</b>	<b>Ma’nosi</b>
ilhon	kuylash, xush ovoz kuylar, ovozlar
imdon	ko‘mak
kisvat	kiyim, cho‘ntak, libos
majbul	yaratilgan, tug‘ma, tabiiy
ozmun, ozmoyish	sinash, imtihon
pardoxt	pardoz, bezak, sayqal, jilo
uzor	yuz, bet, chehra, jamol, sath, sahifa
filur	oltin, aqcha, tanga
shayba	qarilik, keksalik

Shunday so‘zlar borki, ular qadimgi turk yoki eski o‘zbek tilida hozirgi o‘zbek tilidagidan butunlay boshqa ma’noda qo‘llaniladi<sup>193</sup>. Bunday so‘zlar davr o‘tishi, ilm-fan va axborot texnologiyalaridagi o‘zgarishlar, kasb, soha turlarining yangilanishi va boshqa qator omillar sabab ma’no torayishiga uchrab, boshqa so‘z turkumiga aylangan. Bu so‘zlarning Navoiy asarlarida anglatgan lug‘aviy ma’nosini izohlash, tasniflash orqali bugungi tilimizdagi ma’nosini tushunib olish mumkin:

<b>Navoiy davrida</b>	<b>So‘z turkumi</b>	<b>Ma’nosi</b>	<b>Hozirgi kunda</b>	<b>So‘z turkumi</b>	<b>Ma’nosi</b>
dori <sup>194</sup>	fe’l	hozir bo‘lmoq, kelmoq, yo‘liqmoq	dori	ot	davo malhami
dori <sup>195</sup>	fe’l	xuruj qilmoq, hujum qilmoq			

<sup>193</sup> Berdaq Yu. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 6.

<sup>194</sup> O‘scha kitob. – B. 505.

<sup>195</sup> Бердак Ю. Навоий тили лугати. – Тошкент: Шарқ, 201. – Б. 471.

hakka <sup>196</sup>	fe'l	tirnash, qashish	hakka	ot	(zag‘izg‘on) qush turi
hoy-hoy <sup>197</sup>	fe'l	ovoz chiqarib yig‘lamoq	hoy-hoy	undov so‘z	chaqirish, haydash

Matn elementlarining grammatik teglanishi muhim sanalib, korpusning ahamiyatlilik darajasini oshiradi, uni arxiv tizim va elektron kutubxonadan farqlaydi. Navoiy ijodini o‘qishli jarayonga aylantirish, Navoiy falsafasini tushunish, XV asr tili grammatikasini o‘rganish va anglash uchun ham Navoiy asarlari matnini grammatik teglash zarur sanaladi. Mazkur tadqiqot jarayonida Alisher Navoiy MK uchun “Badoye’ ul-vasat” devonidagi 650 g‘azaldagi 21 226 ta izohtalab so‘z, besh mingdan ortiq arxaizm, 170 ta tarixiy so‘zlar, 43 ta maqol, 30 ta ibora, 236 ta talmeh san’atiga oid so‘zlar, 164 ta zid ma’noli so‘zlar (tazod), 806 ta tanosub, 124 ta tashbih she’riy san’atiga oid leksik birliklar teglandi. Mazkur ko‘rsatkichli bazalar yordamida Alisher Navoiy MK yaratildi.

### Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Matnlarni lingvistik tahlil qilish jarayoni filologik masala hisoblanib, bu vazifani yillar davomida insonlar amalga oshirib kelishgan. Bugun zamonaviy texnologiya rivojlanishi natijasida filologik tahlil jarayonlari kompyuter texnologiyasi yordamida avtomatlashtirilmoqda.

2. Ijodkorning uslubi, biografiyasi, o‘z asarlarida nisbatan ko‘p qo‘llaydigan leksik birliklari, adabiy til yoki sheva elementlarini qo‘llash darajasi, asar qahramonlari nutqini shakllantirish holati kabi ma’lumotlar muayyan belgilab olingan parametrlar asosida aniqlansa, MKning ahamiyati va qimmatini yanada oshiradi.

3. Alisher Navoiy MK uchun “Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallari semantik teglari bazasini yaratishda ingliz tilidagi Shekspir va fors tojik adabiyoti namoyandalarining mavjud mualliflik korpuslari hamda rus tilidagi A.Pushkin,

<sup>196</sup> O‘scha kitob. – B. 143.

<sup>197</sup> Мухаммад Х. Алишер Навоий асарлари лугати. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 407 б.

M.Dostoyevskiy, A.Chechov mualliflik korpuslari bo‘yicha qilingan tadqiqotlar asos bo‘ladi. Ushbu mualliflik korpuslarining interfeysi, ruknlari va ulardagi ma’lumotlar bazasi, korpusning tuzilish arxitekturasi, metodikasini o‘rganish hamda taqqoslash natijasida Alisher Navoiy MKni yaratish texnologiyasi ishlab chiqildi.

4. Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika ko‘p jihatlari bilan farqlanadi, xususan, g‘azallarda uchragan arxaizm, istorizmlarning hamda ma’no torayishiga uchragan izohtalab leksemalarning tushunarli, o‘qishli bo‘lishini ta’minlash uchun ularni semantik teglash va leksik, morfologik tahlil qilish lozim.

5. Alisher Navoiy g‘azallarining so‘zligini semantik teglashda g‘azallarda ko‘p o‘rinda qo‘llangan, omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan izohtalab so‘zlar va omonimlik xususiyati bo‘lmagan izohtalab so‘zlar tahlili ahamiyatlidir. Bunday so‘zlarni tahlil qilishda Alisher Navoiyning ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zlarini omonim (tajnis)dan farqlash kerakligi borasidagi qarashlarini ham chuqr o‘rganish muhim hisoblanadi.

6. Alisher Navoiy “Badoye” ul-vasat” devoni g‘azallarini grammatik va semantik teglash, muallifning til uslubi, lingvistik, lingvodidaktik jihatlarini yoritish natijasida MKni yaratish – mutafakkirning boy merosini foydalanuvchiga butun ko‘لامи bilan zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida ishonchli, qulay tarzda yetkazishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**III BOB. ALISHER NAVOIYNING “BADOYE’ UL-VASAT”**  
**DEVONIDAGI LEKSIK BIRLIKLARNI SEMANTIK TEGLASH**  
**ASOSLARI**

**3.1. Muallif asarlarini semantik teglash ahamiyati**

Tabiiy tilning ifodalari bilan haqiqiy yoki xayoliy olam o‘rtasidagi munosabatlar tilshunoslikning bir bo‘lagi bo‘lgan lingvistik semantika orqali o‘rganiladi. Semantik teglash jarayoni korpus matnlaridagi lingvistik birliklarni izohlashning bir ko‘rinishi bo‘lib, Navoiy g‘azallari matnidagi izohlatab so‘z va turg‘un birikmalar ID raqamlar va qisqa izohlar yordamida teglanadi. G‘azallarning har bir misrasiga qo‘yilgan maxsus ID raqam xususiy semantik ma’noni ifodalaydi. V.V.Kukanova so‘zlarni semantik teglash haqida shunday deydi: “Tilni tavsiflashda ikki tomondan: shakldan mazmunga hamda mazmundan shaklga qarab yondashish mumkin. Birinchi yondashuv ma’lum til birligining mavjud barcha ma’nosini aniq, to‘liq tavsiflashni, uning qo‘llanish kontekstini ko‘rsatadi. Ikkinci yondashuvda esa, aksincha, ayni bir mazmunni ifodalay oladigan barcha shakllarni bir nuqtaga yig‘ish maqsadga muvofiq. Ikkala yondashuv ham tilshunoslik va til ta’limi uchun birdek ahamiyatli hisoblanadi. O‘quvchi izohtalab so‘zlarni va izohli lug‘atlarni o‘rganar ekan, yuqoridagi ikki yondashuvga ham ehtiyoj sezadi. Mantdagi notanish so‘z yoki iboralar ma’nosini bilib olishda esa izohli lug‘atlarning o‘rni katta”<sup>198</sup>. Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonida mavjud g‘azallardagi notanish so‘z yoki birikmalarni semantik teglashda ham maxsus izohli lug‘atlarga murojaat qilinadi.

Milliy korpus uchun birliklarni semantik teglash, ma’nolar haqida izoh biriktirish, semantik ma’lumotlar bazasini shakllantirish bo‘yicha o‘zbek korpus tilshunosligida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. A.Eshmo‘minov milliy korpusning sinonim so‘zlar bazasini shakllantirish, sinonim so‘zlar izohining

---

<sup>198</sup> Куканова В.В. Принципы семантической разметки национального корпуса калмыцкого языка 2014;7(2):137-143. // [http://kalmcorpora.ru/sites/default/files/kukanova\\_25.pdf](http://kalmcorpora.ru/sites/default/files/kukanova_25.pdf)

korpusda berilishi, bazadan joy olishi, Sh.Xamroyeva semantik teglarni ishlab chiqishning umumiy tamoyillari, D.Axmedova o‘zbek tili milliy korpusida so‘zlararo leksik-semantik munosabatning ifodalanishi kabi dolzarb masalalarini o‘rgangan. D.Axmedova korpusda leksikaga semantik maydon nazariyasi asosidagi yondashuv bilan tushuncha orqali so‘zga borilsa, so‘zlararo leksik-semantik munosabat orqali so‘zdan tushuncha izohiga borish mumkin, deydi<sup>199</sup>.

D.Axmedova semantik teglashning “so‘zdan tushunchaga” tamoyilini ishlab chiqar ekan, so‘z ma’nolari izohi, leksik-semantik munosabatga kirishuvchi leksemalari: sinonim, antonim, giponim/giperonim, graduonimi, xolo/meronimi haqidagi izohlarni teg sifatida biriktirish yo‘llarini ko‘rsatadi. Semantik teglar tizimiga so‘zshakl, lemma, izohli lug‘atdagidek ma’nolari, mavjud sinonim, graduonim, giponim/giperonim, xolo/meronim, antonimlari haqidagi izoh kiritish lozimligini ta’kidlaydi<sup>200</sup>. Semantik munosabatlar borasidagi keng ko‘lamli tadqiqot M.Abjalova tadqiqotida ham berilgan<sup>201</sup>.

Mualliflik korpuslari muallif asalariga tegishli millionlab leksemalarni o‘z ichiga oladi, korpusga jamlangan matnlarni semantik teglash – bu so‘zlarning leksik ma’nolarda tez va oson anglash, turli xil erkin so‘z birikmalarining leksik muvofiqligi, ularning kombinatorlik qobiliyatini tahlil qilish, ma’lum bir sintaktik konstruksianing qabul qilinish/qilinmasligini tekshirish uchun foydalanishga imkon beradi.

Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoni dagi izohtalab so‘zlar semantik teglanib, korpusga jamlanishi milliy tilshunosligimizning yanada

---

<sup>199</sup> Ахмедова Д. Семаларнинг лексикографик талқини ва уларнинг корпусларда берилиши // «Таълим тизимида чет тилларни ўрганишнинг замонавий муаммолари ва истиқболлари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман. – Бухоро, 5-6 марта, 2020 йил. – В. 732-735.

<sup>200</sup> Ахмедова Д. Ҳамирова И. Семантик разметка тизими ва моделларини тузиш алгоритми // Тилшуносликдаги замонавий йўналишлар: муаммо ва ечимлар мавзусидаги халқаро илмий-амалий 1-онлайн конференция. – Андижон, 28 январь, 2020 йил. – В. 692-695.

<sup>201</sup> Abjalova M. O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiysi. [Matn] monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2022 (qayta nashri). – 212 b.

rivojlanishida vosita bo‘ladi. Navoiyshunos olim Aziz Qayumov “Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar” asarida: “Xazoyin ul-maoniy” devoni haqida “Bu she’rlar to‘plamida Navoiy yozgan she’rlarning barchasi jamlangan. Navoiy bu to‘plamni “Xazoyin ul-maoniy” deb atadi. Bu “Ma’nolar xazinasi” demakdir. “Xazoyin ul-maoniy”ga Navoiy kirish maqolasi yozgan. Unda shoir bu kitobning yaratilishi, unda she’rlarni joylashtirish tartibi, o‘zining she’r tuzilishiga oid fikr va mulohazalari to‘g‘risida so‘zlaydi. “Xazoyin ul-maoniy” she’rlar to‘plami Navoiyning she’riy merosini o‘rganishda eng asosiy manba hisoblanadi”<sup>202</sup>. Shu fikrga tayangan holda “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi “Badoye’ ul-vasat” devonidagi ayrim so‘zlarning semantik ma’nolari tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Bizga ma’lumki, tilshunoslikda so‘z ma’nosи va semantik tarkib tushunchalari, denotativ hamda konnotativ ma’nosи, shuningdek, integral va differensial ma’no kabi tushuncha, terminlar ustida bir qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda<sup>203</sup>. So‘z va uning ma’no tarkibini izchil o‘rganish tilga yaxlit bir tizim sifatida qaralgandagina amalga oshishi mumkin. So‘zning borliqdagi narsa, hodisalar haqidagi dastlabki ma’nosи leksik yoki denotativ ma’nosи hisoblansa, shu leksik ma’noning hissiy, turli munosabatni ifodalovchi qo‘s Shimcha ma’nosи – konnotativ ma’nosи hisoblanadi. Bir leksik semantik guruhga kiruvchi so‘zlarning ma’no va vazifalarini aniqlashda ular tarkibidagi integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalar muhim ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, so‘zning ma’nosи va ma’no tuzilishi turlicha integral va differensial semalar yig‘indisidan iborat. Mazkur devondagi g‘azallarni tahlil qilish jarayonida ko‘plab so‘zlarning denotativ ma’no bilan bir qatorda konnotativ ma’nolari aks etganligini yoki ayrim so‘zlar ma’noviy birliklarida integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalar kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Bularning barchasi

---

<sup>202</sup> Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 207.


<sup>203</sup> Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Buxoro: 2009. – B. 60.

Navoiyning tengsiz so‘z ustasi ekanligini isbotlasa, yana bir jihatni turkiy so‘z imkoniyatlarining naqadar keng ekanligidan dalolat beradi.

Devonda uchraydigan *avroq, ahl, dahr, mehr, la'l, lutf, quyosh, jins, jism, jola, jom, jon, bahra, mavzun, majma'*, *mazbut, mamlu, mezon, misol, nazar, nasm, na'l, naql, no'sh, naqsh, nesh, nigor, ovuch, odat, ozoda, ozor, oy, oyin, savod, sarv, safo, safha, saqat, siym, sin, sipah, sifat, timsol, tig*‘ kabi so‘zlarida ko‘p ma’nolilik hamda shakldoshlik xususiyatlari aks etgan.

Quyida ba’zi ko‘p ma’noli so‘zlar izohi bilan tanishamiz:

1. “Badoye’ ul-vasat” devonida izohtalab “*avroq*” so‘zi 14 o‘rinda qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘z turli xil semantik ma’nolarni ifodalab kelgan. E.Fozilov tahriri ostida nashr etilgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da “*avroq*” so‘zining 6 xil ma’nosini baytlar misolida izohlangan<sup>204</sup>:



Jumladan, 23-g‘azalda<sup>205</sup> “*avroq*” so‘zi *varaqlar* ma’nosida qo‘llangan:

Ishqim Farhod-u Majnun ishqicha bor edi, lekin zamona, falak bu ishq dostonimga yana “bir ikki fasl qo‘sidi”, ya’ni azoblangan oshiq izardobi aks etgan:

Zamon avroqi-yu ishqim edi Farhod-u Majnundin,

<sup>204</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 1 жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – В. 32.

<sup>205</sup> Алишер Навоий. Бадоев ул-васат. – Тошкент. Тамаддун, 2011. – Б. 13.

Falak bir-ikki fasl etti izofat dostonimg‘a.

– 69-g‘azalda “*avroq*”ning *majmua*, *yig‘indi* ma’nosiga ishora berilgan. Ya’ni hikmatli fikrlar majmuasi, donishmand insonning purhikmat so‘zлari, donishmandligi shu inson uchun go‘yoki mustahkam qanot bo‘lishi ta’kidlangan:

Sust himmatlig‘ bila uchmog‘ ne mumkin, ey hakim

Hikmat avroqi ikki egning uza par bo‘ldi, tut.

– 79-g‘azal sof ishqiy mazmunda bo‘lib, ma’shuqaning ishq yo‘lida oshiqqa qilgan sitamlari ko‘p ekanligi ma’nosida, “*avroq*” so‘zi ishq leksemasi bilan birga kelib, ishq yo‘lida, muhabbat ko‘yida ma’nosini ifodalaydi. (*Ishq avroqida, eykim, o‘qiding yuz ming balo*);


– devondagi 79-g‘azalning navbatdagi misrasi yuqoridagi fikrning davomi bo‘lib, bu qatorda *varaq* so‘zining ko‘pligi ifodalangan, o‘z ma’nosida emas, ko‘p ma’nolilik, ko‘chma ma’noda, ayni damda, hijrondagi varaqlar, hijronda ko‘rgan azoblar, dard varaqlari ma’nosи aks etgan. (*Yuz tuman oncha erur avroq hijronimda sabt*);

– 142-g‘azalning quyidagi bayti ishqи ilohiy mazmunda bo‘lib, bir qarashda murakkab tushunchalar yo‘qdek tuyulgan birgina baytda serqatlam botiniy-tasavvufiy ma’nolar mujassamlashganligining guvohi bo‘lamiz. Baytdagi badiiy mazmunni ta’minlab turuvchi “*avroq*” leksemasi “*sabr-u saloh*”, ya’ni “*sabr va zo ‘hd-u taqvo*” so‘zлari yaxlit mazmunni ifodalamoqda. Ishq yo‘lida sabr varaqlarini necha tartib aylasam ham boshimga ishq sargardonligidan junun, ya’ni savdoiylik yetgach, tartib aylagan sabr vaqaraqlarim yelga uchdi, deydi lirik qahramon:


Necha tartib aylasam sabr-u saloh avroqini

Sarsari ishq-u junun yetkach, borin barbod etar.

2. *Adad* so‘zi “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da bir nechta xil ma’nolarda ifodalab kelishi quyida ko‘rsatilgan<sup>206</sup>.



3. Navoiy o‘z lirikasida *alif*<sup>207</sup> so‘zidan o‘nga yaqin ma’nolarni ifodalalashda tasviriy vosita sifatida unumli foydalangan:



4. *Bisot* leksemasi ham arabcha so‘z bo‘lib, Navoiy g‘azallarida: to‘sama, gilam, palos; shaxmat, nard taxtasi; keng maydon; mato, asbob-anjom (*Olam*

<sup>206</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 1 жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – В. 32.

<sup>207</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 1 жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985.– Б. 79.

*bisoti – yer yuzi; Bisoti masof – jang maydoni*)<sup>208</sup>; o‘rin-joy, maqom; taraf, tomon; noz-ne’mat; dunyo, olam<sup>209</sup> kabi bir qancha ma’nolarni yoritishda foydalanilgan.

Devondagi g‘azallar so‘zligini teglashda ikki jihat e’tiborga olinadi: ko‘p o‘rinda, ya’ni bir necha marotaba qo‘llangan izohtalab so‘zlar (Qarang: 3.1.1-jadval) hamda faqat bir o‘rinda qo‘llangan izohtalab so‘zlar. Navoiy “Badoye” ul-vasat” devonidagi g‘azallarda ba’zi leksemalarga bir necha marotaba murojaat etgan bo‘lsa, aksincha, *murtoz*, *zumurrad*, *nafha*, *hasratoh*, *dilpazir*, *infiol* kabi so‘zlarni devon tarkibidagi g‘azallarda faqat bir marotaba qo‘llagan (Qarang: 3.1.2-jadval).

G‘azallarda qo‘llanilgan so‘zlarning semantik teglari bazasini yaratish jarayonida: *folkushoy* (qanot ochuvchi, yoyuvchi), *ko‘zanak* (ninachi), *mushkposh* (mushk sochuvchi), *emon* (emasman), *uqor* (turna), *do‘loshmoq* (o‘ralishmoq, aylanishmoq), *bag‘l* (xachir), *uyoqmoq* (botmoq, bedor bo‘lmoq, uyg‘onmoq), *angubin* (asal, bol) kabi leksemalarning izohi P.Shamsiyev, S.Ibrohimovlar hammuallifligida tuzilgan “Navoiy asarlari lug‘ati”<sup>210</sup> asosida teglandi.

Devondagi “To‘sh” radifli 253-g‘azalni badiiy tahlil qilish uchun, avvalo, *to‘sh* so‘zining baytdagi ma’nosini aniqlash lozim. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Navoiy g‘azallarida uchraydigan minglab (arabiy, forsiy, turkiy) so‘zlarning ma’nosini aniqlab, g‘azallarni badiiy tahlil qilish uchun to‘rt jildli “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” bilan cheklanib qolmasdan, mavjud barcha izohli lug‘atlarni o‘rganish, tahlil qilish zarur. Navoiy asarlari asosida tuzilgan izohli lug‘atlar bir-birini to‘ldirib turadi. P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlar tuzgan “Navoiy asarlari lug‘ati”da *to‘sh* so‘zi yonida, tomonida, qarshisida<sup>211</sup> deb izohlangan:

<sup>208</sup> Шамсиеев П., Иброҳимов С. Алишер Навоий асарлари лугати. – Тошкент: Фафур Ғулом, 1972. – В. 221.

<sup>209</sup> Бердак Ю. Навоий тили лугати. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 277

<sup>210</sup> Шамсиеев П., Иброҳимов С. Алишер Навоий асарлари лугати. – Тошкент: Фафур Ғулом, 1972. – 784 б.

<sup>211</sup> O‘sha asar. – В. 621.

Ey musavvir, lutf etib sizg‘il meni jonong‘a to‘sh,  
Uylakim, tushkay yuzi bu diydai hayrong‘a to‘sh<sup>212</sup>.

Baytning birinchi misrasida lirik qahramon rassomga murojaat etib, ey musavvir, marhamat etib mening suratimni chizadigan bo‘lsang, jononimni mening ro‘paramda, qarshimda tasvirlagin deydi. Ikkinci misrada oshiqning musavvirga murojaati kuchayadi, shunday mahorat bilan chizginki, hayron boqib turgan ko‘zlarimning qarshisida mashuqamning go‘zal yuzi tasvirlansin. Telba orzumand oshiq go‘zal ma’shuqa suratini o‘z surati bilan yonma-yon chizilishini orzu qiladi. Ko‘rinib turganidek, shoir o‘zgacha ruhiy bir holatda musavvir, oshiq va ma’shuqa ramziy obrazlari orqali bir necha mazmunlarni tarkibiga biriktira olgan mukammal baytni yaratgan. Navoiyning nafaqat yuqoridagi bayti, balki butun bir ijodi ma’no va mazmun rang-barangligi, fikrlarning o‘zaro mutanosibligi va mosligi asosida yaratilgan haqiqiy san’at asarlari desak, aslo adashmagan bo‘lamiz.

Devondagi g‘azallarda shoir tarixiy shaxslarning nomlarini ham zikr etadi. 91-g‘azalda *Sayid Jamoliddin* nomi keltirilib, Sayid Jamoliddinning shaxsiyati bilan qiziquvchilar bayt mazmunidan bu tarixiy shaxsning qaysi soha vakili ekanligini anglashlari mumkin:

Darsi ishqiningi, Navoiy, uyla der ushshoq aro,  
Kim, degay ilm ahlig‘a *Sayid Jamoliddin* hadis.

Baytda ey, Navoiy, oshiqlarga ishq darsing, Sayid Jamoliddinning ilm ahliga aytgan hadisi kabidir deydi. Sayid Jamoliddin muhaddis, ya’ni hadis ilmi olimi bo‘lganligi haqida Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ma’lumot keltiradi<sup>213</sup>.

Alisher Navoiy so‘z ko‘laming boyligi, grammatik shakllari, fonetik tuzilishi, lug‘at hajmining kengligi g‘azallarda qo‘llanilgan so‘z va iboralarning

---

<sup>212</sup> Алишер Навоий. Бадоев ул-васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011 – Б. 259.

<sup>213</sup> Алишер Навоий. “Насойим ул-мухаббат”. [Alisher Navoiy. Nasoimul muhabbat.pdf](#), 2008 – Б. 187.

uslub xususiyatlarini predmet, belgi, harakat kabilarni turli tomondan shaklan ixcham, qisqa va aniq ifodalashda ahamiyatga ega. Tilning aniqligi haqida shoirning o‘zi “Mahbub ul-qulub” asarida shunday fikr bildirgan: “Odamiy til birla soyir hayvondin mumtoz bo‘lur va ham aning birla soyir insonga sarafroz bo‘lur. Til – muncha sharaf bila nutqning qurolidir”<sup>214</sup>. Navoiy tilining lug‘at boyligi, lug‘aviy birliklarining turli uslubiy maqsadlarda qo‘llaganligini bilish tahlilda juda muhim ahamiyatga egadir.

Eng qadimiy lug‘atlardan biri hisoblangan Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida “ko‘z” leksemasi ilk bor tilga olingan<sup>215</sup>. “yoqimli ko‘z”, “xumor ko‘z”, “mastona ko‘z” kabi birikmalar faol ishlatilgan. “Badoye’ ul-vasat” devonida 400 dan ortiq o‘rinlarda bir necha xil leksik ma’nolarda qo‘llanilgan ko‘z leksemasi integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalar guruhini tashkil etadi. “Ko‘z” leksemasining integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalar hosil qilishi o‘zbek tili imkoniyatlarini yanada mazmunan boyitgan. “Ko‘z” sememasi bir qator so‘zlar bilan birga qo‘llanilib, turli

	IJOBIY BO‘YOQDORLIK	SALBIY BO‘YOQDORLIK	
<i>qotil</i>	shirin	afgor	birikmalarni hosil qilgan:
<i>ko‘z,</i>	diydor	giryon	<i>ko‘z,        ko‘zi</i> <i>sayyod,    shirin</i>
<i>kofir</i>	nargiz	xunrez	<i>ko‘z        tutmoq,</i> <i>pariy        ko‘z,</i> <i>ko‘z,        usruk</i>
	usruk	qotil	<i>ko‘z,        xunxor</i> <i>ko‘z,        xunrez</i> <i>ko‘z,        ayyor</i> <i>ko‘z,</i>

<sup>214</sup> Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. – B. 102.

<sup>215</sup> Mahmud Koшg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 91.

*minnatdor ko'z, bedor ko'z, bemor ko'z, afgor ko'z, giryon ko'z, diydor ko'z, shahlo ko'z, kofir koruxsor ko'z, nargis ko'z, zaxmin ko'z, shikastin ko'z.*

“Ko‘z”ning leksik-semantik guruhga oid sememalardagi semalar shu sememalar uchun umumiylar yoki xususiy ekaniga ko‘ra, umumiylar – birlashtiruvchi (integral) sema va farqlovchi (differensial) semalarni tashkil etadi. Ko‘z leksemasi turli so‘zlar bilan birikib, *ijobiy* (Qarang:3.1.3-jadval) hamda *salbiy* ma’no bo‘yoqdorligini aks ettirgan (Qarang:3.1.4-jadval).

Ma’lumki, so‘z – badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratish, uni individuallashtirishning muhim omillaridan biri sanaladi. So‘zsiz, ekspressivlikni ifodalovchi fonetik, morfologik, sintaktik vositalar ishtirokisiz obyektiv borliqdagilari narsa predmetlarni, hodisalarini aniqlash mumkin emas. Azal-azaldan so‘zlar vositasida ana shunday leksik-semantik guruhlar va turli xil ma’no ko‘chish yo‘llarini hosil qilishgan. Buning natijasi o‘laroq asar badiiy saviyasi oshgan va o‘z badiiy qimmatini saqlagan holda avlodlargacha yetib kelgan. Shoir lirikasi mavzu doirasining kengligi, g‘oyaviy-badiiy dunyosining boyligi, ayni paytda chuqur fikrlar silsilasining betakror ifodasini ta’min etgan yuksak badiiy fazilatlari bilan ham diqqatga sazovordir. Alisher Navoiy arabcha, forsiy va turkiy poeziyaning boy tajribalarini o‘zlashtirib ularni o‘z asarlarida aks ettirdi. So‘zning lingvistik va semantik xususiyatlarini keng yoritishga muvaffaq bo‘ldi.

Navoiy g‘azaliyotida nafaqat ma’lum ranglar, balki ularning o‘nlab tuslari ham poetik tasvir doirasiga jalb etilgan: qora, oq, sariq, qizil, arg‘uvoni, yashil, sabza, binafsha, simobiylari, savsaniy, siymgun, lolagun, gulgun, otashin, shafaqgun, qirmizi, gulnoriy, la’l gun singari atamalar behisob<sup>216</sup>. *La’l* so‘zining leksik ma’nosini qizil rangli tosh bo‘lgani uchun g‘azallarda, ko‘pincha, qizil rangga ishora etiladi. Jumladan, Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardashe” asarida:

La’l sang astu degi sangin sang,

---

<sup>216</sup> Исхоков Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – В. 149.

Lek andar miyon tafovutxost<sup>217</sup>.

Alar qoyilining maqsudining naqizi jonibidin so‘z boshlab dedilarki, shayxe aytibdurki, tosh qozon va la’l – ikkalasi toshdur va lekin oralarida tafovut bor. Tosh qozondin g‘ayri naf’ hech nima mutasavvar ermaskim, laziz va mulavvan at’ima anda pisharkim, xosu om andin muntafe’ bo‘lurlar va la’ldin xaloyiqqa anvoi zarar mutasavvardur. La’l ham tosh, qozon ham toshdan bo‘lgan. Tosh qozonda taom pishadi, undan barcha bahramand bo‘ladi, biroq la’ldan xalqqa zarar yetadi. Baytda la’l so‘zining o‘z ma’nosiga ishora etilib, uning qimmatbaholigiga xalqdan undirilayotgan soliqlar nazarda tutilgan<sup>218</sup>.

G‘azallarda juda ko‘p uchraydigan “la’l” so‘zi badiiy tasvir vositasi sifatida qo‘llanilib, bir qarashda bir xil ma’noda kelayotgandek ko‘rinsa-da, leksik jihatdan shakldoshlik (omonim) xususiyatlariga ham ega hisoblanadi. “Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallaridagi bir mazmuniy guruhga mansub leksemalarning semantik tarkiblaridagi integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalar leksemalarni o‘zaro birlashtirish va farqlash uchun xizmat qiladi. Devondagi g‘azallarda 183 marotaba badiiy tasvir vositasi sifatida qo‘llanilgan la’l so‘zida sema va semema xususiyatlarini kuzatish mumkin. Semantik guruuhlar esa la’l so‘zi bog‘lanib kelgan so‘zga aloqador. Masalan, g‘azallarda yor tasvirida kiyimlar, matolar tilga olinganda “libosi la’l gun”, “gulgun terlik” “gulrangi qabo”<sup>219</sup> birikmalar hosil qilingan. Shunga ko‘ra, la’l so‘zini quyidagi semantik guruhlarga ajratamiz. Bu guruhlarda la’l so‘zi bilan birlashib kelgan so‘zlar o‘zaro integral semantik guruhlarni tashkil etadi:

**I.** Kulib turgan yoki tabassumli lab holatiga ko‘ra: “la’li xandon”, “la’li shakkarxanda”, “shirin la’l”, “no’shi la’l”;

---

<sup>217</sup> Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. To‘la asarlar to‘plami. 10-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – B.14-15.

<sup>218</sup> Olimov F. Fazilatlar sohibi-Sayyid Xasan. – T.: 2021. – B. 161.


<sup>219</sup> Xo‘jayev T. Navoiy davri hayotini anglashga doir ba’zi mulohazalar. – T.:2021. – B. 52.

**II.** Rang-tusga ko‘ra: “*la’l gun*”, “*la’l rang*”, “*la’l lu yoqut*”, “*la’l li otashin*”, “*rangi la’li*”, “*labi la’li*”;

**III.** Hayotbaxshligiga ko‘ra: “*la’l li jonbaxsh*”, “*la’l li jonfizo*”, *la’l li ruhafzo*”, “*xotami la’l*”;

**IV.** Tasavvufiy mazmunga ko‘ra: “*bodayi la’l*”, “*la’ling mayi*”, “*mayi la’li*”, “*la’li jomi*”, “*la’li nob*”.

Ushbu so‘z birikmalari bitta mazmuniy guruhga birlashadi va shunga ko‘ra *integral (birlashtiruvchi) sememalar* sanaladi.



“*La’l*”ning leksik-semantik guruhiga oid sememalardagi semalar shu sememalar uchun umumiyligi yoki xususiy ekaniga ko‘ra, umumiyligi – birlashtiruvchi va farqlovchi semalarni tashkil etadi. G‘azallarda *la’l* leksemasi turli so‘zlar bilan birikib, *ijobi* (Qarang: 3.1.5-jadval) hamda *salbiy* ma’no bo‘yoqdorligini aks ettirgan (Qarang: 3.1.6-jadval). Ayni paytda keltirilgan leksemalarning ma’no tarkibida differensial semalar ham mavjud. Masalan, *la’l* so‘zi bilan bog‘liq holda bir paytning o‘zida ham jon bag‘ishlovchi – *jonfizo la’l*, ham jon oluvchi, qonga bo‘yalgan – *la’l gun* kabi ma’noda qarama-qarshi turuvchi jihatlar uchraydi. Navoiy o‘ziga xos tarzda *ko’z*, *la’l* leksemalarini *ijobi* va *salbiy* ma’nolarda keng qo‘llagan. Muayyan so‘zning turli ma’nolarda qo‘llanilish ko‘lami keng bo‘lgani uchun korpusda uni satrma-satr maxsus ID raqamlash orqali semantik teglash zarur hisoblanadi. Shundagina foydalanuvchiga so‘zning o‘z qo‘llanilish o‘rnini bo‘yicha kontekstual izohi taqdim etiladi. Buning uchun shoir ijodiga mansub har bir g‘azal o‘ziga xos tahvilni va alohida yondashuvni talab etadi. Sababi har bir

g‘azalda mutafakkirning o‘z ijod uslubiga xos alohida badiiy fikri va ruhiy holati ifodalananadi.

### **3.2. Navoiy g‘azallarini semantik teglash texnologiyasi**

Til milliy madaniyatning eng muhim tarkibiy qismidir, so‘z esa xalqning madaniyati, falsafasi va tarixini tushunishga imkon beruvchi vositadir. Buyuk so‘z san’atkorining tilini, so‘z boyligini o‘rganmay turib shu yozuvchi mansub bo‘lgan xalqning tilini mukammal bilib bo‘lmaydi. Rossiya tarixini Pushkin, Angliya tarixini Shekspir tili tahlilisiz bilish mumkin emas, o‘zbek xalqining tarixini tushunish uchun esa Alisher Navoiy tilini bilish juda zarur. Lug‘at – davr ko‘zgusi, dil aksi, javohirlar xazinasidir<sup>220</sup>. Tilni o‘rgatishda lug‘at boyligining kattaligini ko‘rsata olish, so‘zning qo‘llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik konstruksiya orqali tushuntirish uchun misollar massivini ko‘rsatishda korpus juda qo‘l keladi. Til ta’limi uchun muhim bo‘lgan misolning doimiy yangilanib borishi, buni aks ettirib turish xususiyati hamda imkoniyati faqat korpusda mavjud. O‘qituvchi Alisher Navoiy ijodidan yangi, cheksiz va xilma-xil misollarni korpusdan topa oladi hamda topshiriq, mashqlarni belgilashda qiyalmaydi va bir necha daqiqada mavzu bo‘yicha yangi-yangi misollardan iborat topshiriqlarni tayyorlay oladi. Korpusda mavjud matnlarni saralash imkonи bor, misolni barcha matnlardan emas, balki tadqiqotchi uchun kerakli bo‘lganini ajratish mumkin. Turli mavzu va janrdagi matnlar bilan korpusning doimiy boyitilishi korpusning asosiy xususiyatidan biri hisoblanib, u yo‘naltirilgan ta’lim imkoniyatlarini kengroq ochadi. Mashhur mualliflik korpuslarining, interfeyslari va undagi rukn, reprezentatsiya masalalari, korpuslarning tuzilishi, dizayni, ularning bir-biriga shaklan o‘xshash va mazmunan farqli tomonlari o‘rganildi, tahlil qilindi. Mualliflik korpuslarini tahlil qilish jarayonida, bugun shiddat bilan rivojlanib

---

<sup>220</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 4 жилдли. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 6.

borayotgan sun’iy intellektga bo‘lgan ehtiyojning tobora kuchayib borishi natijasida mualliflik korpuslarini yaratishning zamonaviy muhim jihatlari va imkoniyatlari belgilab olindi. Korpusda tildagi har qanday so‘zning barcha xususiyatlari haqida aniq va ishonchli ma’lumotlarni olish imkoniyati mavjud<sup>221</sup>. Katta hajmli korpusni qo‘lda razmetkalash uzoq muddatli, mashaqqatli mehnatni talab etadi. Shuning uchun o‘tgan asrning 70-yillaridayoq bu vazifani sun’iy intellektga yuklatish bo‘yicha bir necha loyihalar ishlab chiqildi<sup>222</sup>. Alisher Navoiy MKni yaratishda mutafakkirning ulkan so‘z boyligini to‘liq saqlab qolib, unga kompyuter texnologiyalari yordamida avtomatik ishlov berib tavsiflanishi – nafaqat o‘zbek millati uchun, balki boshqa tilda so‘zlashuvchilar uchun ham namuna bo‘lishi kerakligi maqsad qilingan.

Korpus o‘zining zamonaviy ma’nosida kompyuterdagи ishonchli ma’lumotlar bazasi bo‘lib, uni yaratish jarayonida maxsus dasturlardan foydalanish, tabiiy. Alisher Navoiy MKning dizaynnini yaratishda HTML, CSS, JS, dasturlash tillari, BOOTSTRAP5, JQUERY dizayn frameworklaridan foydalanildi. Python dasturlash tili hamda Django frameworki orqali Alisher Navoiy korpusidagi umumiy qidiruv qismi, g‘azallardagi izohtalab so‘zlar semantik tegining ekranda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Bugungi globallashuv va sun’iy intellekt asrida Navoiy tilining uzoq ming yilliklarda yashashi, avlodlarga meros sifatida milliy qadriyatlarimiz, ma’naviyatimiz asl holicha saqlanib borishi axborot-kommunikatsiyalaridan samarali foydalana olish darajasiga bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoni dagi g‘azallarni semantik teglash hamda uning elektron bazasini yaratish borasidagi mazkur tadqiqot ishi, o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodi asosida MKni yaratish bo‘yicha

---

<sup>221</sup> Valiyev T. Kibernetik leksikografiya va til korpusiga doir muammolarga doir Ilmiy axborotnama. ISSN 2091-5446 2016. 2-son (96) – Б. 69.

<sup>222</sup> Курс “Корпусная лингвистика” (А.Б. Кутузов) Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс: [www.lab314.brsu.by/kmp-lite/kmpvideo/CL/CorporeLingva.pdf](http://www.lab314.brsu.by/kmp-lite/kmpvideo/CL/CorporeLingva.pdf))

tadqiqotlarning debochasi bo‘lganligi va bu borada tajribalarning kamligi uchun Shekspir MK<sup>223</sup> asnosida yaratishga harakat qilindi. Shekspir ochiq manbasi ijodkorning to‘liq asarlarini o‘z ichiga olgan dunyoga mashhur MK hisoblanadi. Korpus haqidagi ruknda Shekspir MKning umumiy tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan. Shekspir korpusini tahlil qiluvchi matnlarni tayyorlash jarayonida matnlarni formatlashda turli xatolar aniqlanganligini aytadi. Bu xatolarning ba’zilari sayt chiqqanidan keyin tashrif buyuruvchilar tomonidan topilgan. Saytdagi boshqa xatolar foydalanuvchilar xabar qilganlarida tuzatilib borilgan. Matnlardagi 860 000dan ortiq so‘z<sup>224</sup> borligi sababli sayt vositalarini ishga tushirish uchun juda ko‘p vaqt sarflangan. Shekspir korpusi matnlarini tayyorlashda keng omma tomonidan o‘qilishiga asosiy e’tiborda bo‘lgan holda, mashina tomonidan mos formatda tahlil qiluvchi dasturga bo‘ysundirilgan. Korpusda matnlar alohida satrlarga ajratilgan, ularning atributlari aniqlangan va ma’lumotlar bazasiga kiritilgan. Shekspiring pyesalari alifbo<sup>225</sup> tartibida sarlavhasi bo‘yicha berilgan: 14 ta komediya, 11 ta tarixiy asar, 12 ta fofia – jami 37 ta. Pyesalardagi so‘zlar soni ham sanab<sup>226</sup> o‘tilgan bo‘lib, barcha pyesalarida 835997 so‘zlar qo‘llanilganligi va har bir pyesada necha so‘z miqdori mavjudligiga ko‘ra tartiblangan. Koprusga pyesalar to‘liq matni bilan kiritilgan va barchasida sahnalar soni, har bir dramada nechta nutqiy jarayondan foydalanilganligi, har bir asar qahramonlari nomlari va ularning nutqlari<sup>227</sup> alohida kiritilib korpus yanada mukammallashtirilgan (Qarang: 3.2.1-rasm). Shekspir MKning ikkinchi ruknida ijodkor qalamiga mansub bo‘lgan 154 ta sonetlari<sup>228</sup> jamlangan, ularni o‘qish, chop etish va saqlash<sup>229</sup> imkoniyatlari

---

<sup>223</sup><https://www.opensourceshakespeare.org/>

<sup>224</sup>[https://www.opensourceshakespeare.org/info/about\\_the\\_texts.php](https://www.opensourceshakespeare.org/info/about_the_texts.php)

<sup>225</sup>[https://www.opensourceshakespeare.org/views/plays/plays\\_alpha.php](https://www.opensourceshakespeare.org/views/plays/plays_alpha.php)

<sup>226</sup>[https://www.opensourceshakespeare.org/views/plays/plays\\_numwords.php](https://www.opensourceshakespeare.org/views/plays/plays_numwords.php)

<sup>227</sup> <https://www.opensourceshakespeare.org/views/plays/characters/charlines.php?CharID=PlayerQueen&WorkID=hamlet>

<sup>228</sup><https://www.opensourceshakespeare.org/views/sonnets/sonnets.php>

<sup>229</sup>[https://www.opensourceshakespeare.org/views/sonnets/sonnet\\_view.php?Sonnet=1](https://www.opensourceshakespeare.org/views/sonnets/sonnet_view.php?Sonnet=1)

mavjud. Sonetlar dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan, jumladan, o‘zbek tiliga ham (Qarang: 3.2.2-rasm).

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi har bir g‘azalning ekstralinguistik ma’lumotlarini yaratishda Shekspir sonetlarining joylash tartibidan namuna sifatida foydalanildi. *Shekspirning to‘liq asarlari konkordansida*<sup>230</sup> – Shekspir asarlarining to‘liq muvofiqligi aks etgan. Qidiruv tugmasi yordamida *aniq imlo, so‘zshaklning birinchi qismi, so‘zshaklning istalgan qismini* topish mumkin. Korpusning *kengaytirilgan* bo‘limida alifbo tartibida Shekspir qo‘llagan barcha so‘zshakllarni ko‘rish uchun chapdagi harfni tanlash kerak bo‘ladi. Harf yonidagi raqamlar ushbu harfning nechta so‘zshakllari mavjudligini ko‘rsatadi. Kerakli so‘zshaklni topish uchun yuzlab so‘zlarni ko‘rib chiqishga hojat yo‘q. Korpus bo‘yicha qidiruv tizimi avtomatik tarzda qidiruvga berilgan so‘zshaklni topib beradi (Qarang: 3.2.3-rasm). Masalan, A harfini ustiga bosilganda, Shekspir ishlatgan A bilan boshlanadigan 1569 ta so‘zshakllar<sup>231</sup> qaysi asarlarda kelishi aniq ko‘rsatiladi. Aytaylik, *farishta*<sup>232</sup> so‘zini ustiga bosilganda, ushbu so‘z Shekspirning 32 ta asarida – 197 nutqda, 58 marta (sonetlarida 3, “Romeo va Julietta” fojeasida 4, “Otello” fojeasida 3, “Qirol Lir” fojeasida 1 marotaba va hokazo) qo‘llanilganligiga guvoh bo‘lamiz. *Farishta* so‘zi foydalanuvchilar tomonidan 3955 marotaba qidirilgan va ko‘rilganligi haqidagi ma’lumot ham saqlangan. Bu so‘z – *farishta, farishtalar, farishtaga, farishtalarda* kabi bo‘lishi mumkinligiga izoh ham berilgan. Kerakli so‘zni kengaytirilgan qidiruvdan topish uchun so‘zshaklning asosini olish yetarli hisoblanadi. MKda to‘rtta qidiruv<sup>233</sup> mavjud: qisman so‘z<sup>234</sup>, aniq so‘z, asos (lemma) va fonetik qidiruv. Har bir online matn qidirish funksiyasi so‘zning to‘liq yoki bir qismini qidiradi. (Qarang: 3.2.4-rasm)

---

<sup>230</sup> <https://www.opensourceshakespeare.org/concordance/>

<sup>231</sup> <https://www.opensourceshakespeare.org/concordance/wordformlist.php?Letter=A&pleasewait=1&msg=sr>

<sup>232</sup> <https://www.opensourceshakespeare.org/concordance/wordformlist.php?Letter=D&pleasewait=1&msg=sr>

<sup>233</sup> <https://www.opensourceshakespeare.org/about/>

<sup>234</sup> <https://www.opensourceshakespeare.org/about/>

*Kengaytirilgan qidiruvda* so‘zlar, iboralarni muayyan janr<sup>235</sup>, sana, bir necha asarlar bo‘yicha qidiriv tizimlashtirilgan bo‘lib, ushbu ruknda qidiruvni amalga oshirish bo‘yicha kerakli maslahatlar ham berilgan. Kengaytirilgan qidiruv natijasida konkordanslar taqdim etiladi<sup>236</sup>.

Ma’lumotlarni teglashning ba’zi turlari, xususan, anaforik, prosodik teglash mashaqqatli jarayon bo‘lib, ishning ko‘p qismi qo‘lda bajariladi. Morfologik teglashning esa turli xil dasturiy vositalari mavjud bo‘lib, ular odatda teggerlar va tahlilchilar deb ataladi. Avtomatik morfologik tahlil dasturlari ishi natijasida har bir leksik birlikka grammatik belgilar, jumladan, so‘zning turkumi, lemmasi (asos) va grammatik kategoriyalari (masalan, ot turkumida egalik, kelishik, son kabilar) beriladi. Avtomatik sintaktik tahlil dasturlari yordamida so‘z birikmalari o‘rtasidagi sintaktik bog‘lanishlar mustahkamlanib, sintaktik birliklarga (gap turi, birikmaning sintaktik vazifasi va boshqalar) tegishli izohlar beriladi<sup>237</sup>. Muallif matnlariga elektron shaklda ishlov berilganidan so‘ng, ko‘plab texnik ishlar amalga oshiriladi, jumladan, tokenizatsiya, lemmatizatsiya va korpusning sintaktik izohlari avtomatik va yarim avtomatik ishlov beriladi. Mualliflik korpuslari zamonaviy hamda hozirda eskirgan yoki xorijiy so‘zlar, shuningdek, umumiy muomalaga kiritilgan leksik neologizmlarni aks ettirishi mumkin<sup>238</sup>. Til korpusi internet tizimida faoliyat ko‘rsatganligi sababli tejamkorlik xususiyatiga ega. U doimiy yangilanib, takomillashtirilib borilganligi tufayli har doim jamiyat talablariga mos bo‘lib, eskirish xususiyatidan xoli bo‘ladi<sup>239</sup>. Ushbu tadqiqot ishi Alisher Navoiy asarlari MKni yaratish bo‘yicha ilk qadam, bo‘lganligi sababli keng omma tomonidan o‘qishli bo‘lishini ta’minlash maqsadida jahonga mashhur Shekspir MKning dizayni va dasturiy tuzilishidan namuna sifatida foydalanildi.

---

<sup>235</sup><https://www.opensourceshakespeare.org/search/search-keyword.php>

<sup>236</sup> <https://www.opensourceshakespeare.org/views/plays/characters/charlines.php?CharID=ambassador&WorkID=hamlet>

<sup>237</sup> Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург: 2005. – С. 9.

<sup>238</sup> Потемкин С.Б. Авторский корпус и словарь языка Антона Чехова. (Электрон ресурс: [https://studylib.ru/doc\\_3974366/s.b.\\_potemkin-s.b.potemkin-avtorskij-korpus-i-slovar-yazy](https://studylib.ru/doc_3974366/s.b._potemkin-s.b.potemkin-avtorskij-korpus-i-slovar-yazy)).

<sup>239</sup> Valiyev T. Kibernetik leksikografiya va til korpusiga doir muammolarga dior Ilmiy axborotnoma. ISSN 2091-5446 2016. № 2-son (96) – Б. 69.

“Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallaridagi izohtalab so‘zlarning leksik ma’nosini izohlashda P.Shamsiyev, S.Ibrohimovlarning “Navoiy asarlari tili”<sup>240</sup>, E.Fozilov tahriri ostidagi 4 jildli “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”<sup>241</sup>, Yu.Berdakning “Navoiy tili lug‘ati”<sup>242</sup> va “Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati”<sup>243</sup> hamda X.Muhammadning “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”<sup>244</sup> idan foydalanildi. Ushbu lug‘atlar shoirning deyarli barcha leksik boyliklarini qamrab olgan. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da so‘z turkumlariga oid tub, yasama, qo‘shma so‘zlar fors-tojik, arabcha, boshqa tillarga mansub bo‘lgan o‘zlashmalar izohlangan. Lug‘atda Navoiy asarlarida uchraydigan mustaqil so‘z turkumlari, yordamchi so‘z turkumlari va undov so‘zlarning semantik ma’nolari, otlarda kelishik, egalik, kichraytirish, erkalash, ko‘plik qo‘s Shimchalari, fe’llarda shaxs-son, zamon, mayl, sifatdosh, ravishdosh qo‘s Shimchalari so‘zlarning grammatik shakllari sifatida talqin qilingan<sup>245</sup> bo‘lsa, “Navoiy asarlari tili”da 2062 so‘zga bevosita Alisher Navoiy asarlaridan olingan sitatalar bilan izoh berilgan.

G‘azal misralaridagi izohtalab so‘zlarni semantik teglashda devondagi barcha g‘azal misralari alohida-alohida ajratilgan holda bazaga kiritildi (Qarang: 3.2.1-jadval).

G‘azal matnlarining semantik tahlilidan keyin dastur tomonidan har bir g‘azal misrasi ID raqamlandi. Bazaga kiritilgan har bir ma’lumotni 1 raqami bilan ID raqamlab boradi, o‘chirilgan ma’lumot IDsi qayta tiklanmaydi. ID raqami bitta modelga bir marta beriladi. Ma’lumotni o‘chirib qayta kiritsa, yangi ID raqam

---

<sup>240</sup> Шамсиев П., Иброҳимов С. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Ғулом, 1972. – 784 б.

<sup>241</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 4 жилдли. – Тошкент: Фан, 1983-1985.

<sup>242</sup> Бердак Ю. Алишер Навоий асарлари тили. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 496 б.

<sup>243</sup> Berdak Yu. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. – Тошкент: Шарқ, 2010. – 527 б.

<sup>244</sup> Муҳаммад Х. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 407 б.

<sup>245</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 4 жилдли. – Тошкент: Фан, 1983-1985.

oladi. G‘azal *tiplari* ham korpus bazasiga kiritish jarayonida quyidagicha raqamlandi:

- 1 ID *rindona* mazmundagi g‘azallar;
- 2 ID *orifona* mazmundagi g‘azallar;
- 3 ID *oshiqona* mazmundagi g‘azallar.

G‘azallarning matni xususiyatidan kelib chiqib belgilangan auditoriya yoshlarini bazaga kiritishda ham maxsus raqamlash texnikasidan foydalanildi:

- 1 ID auditoriya *yoshi* –18;
- 2 ID auditoriya *yoshi* – 17;
- 3 ID auditoriya *yoshi* –15;
- 4 ID auditoriya *yoshi* – 16.

	A	B	C	D	E	F	G
63	G‘azal	Izohtalab so‘z	Izohtalab so‘z ma’nosи	Janri	ID raqam	G‘azal tipi	Auditoriya yoshi
64	3	lutf - u	lutf – marhamा	g‘azal	458	2	1
65	3	ato	ato – saxovat	g‘azal	458	2	1
66	3	komi	kom – istak	g‘azal	458	2	1
67	3	ravo	ravo – munosib	g‘azal	458	2	1
68	3	vujud	vujud – mavjudlik	g‘azal	459	2	1
69	3	adam	adam – yo‘qlik	g‘azal	459	2	1
70	3	vujudingg‘a	vujud – hayot	g‘azal	459	2	1
71	3	guvo	guvo – guvoh	g‘azal	459	2	1
72	3	nav‘i	nav‘ – turli	g‘azal	460	2	1
73	3	za‘f	za‘f – zaiflik	g‘azal	460	2	1
74	3	xayli	xayl – guruh	g‘azal	460	2	1
75	3	mizoji	mizoj – xulq	g‘azal	460	2	1
76	3	tilsizda	tilsiz – tashqizi	g‘azal	461	2	1

### 3.2.2-jadval. Bazada so‘zlarni identifikatsiyalash.

Korpusda 650 g‘azal misrama-misra semantik teglanganligi natijasida muayyan so‘zning barcha so‘zshakllari kontekstual izohga ega bo‘ladi va foydalanuvchiga izohlar ro‘yxatini emas, balki misrada anglatayotgan aniq bir ma’nosini qisqa izoh tarzida taqdim etadi. Masalan, Navoiy g‘azallarida *oraz* leksemasi yorning go‘zal yuzini tasvirlashda badiiy vosita sifatida qo‘llangan bo‘lib, “Badoye’ ul-vasat” devonida ellik besh marotaba turli qo‘shimchalar bilan kelgan: *oraz*, *orazing*, *orazi*, *orazingg‘a*, *orazin*, *orazidek*, *orazingni*, *orazingdin*, *orazu*, *orazidin*, *orazdin*, *orazg‘a*, *orazingkim*, *orazikim*, *orazda* kabi. Bunda so‘zshaklning ma’nosini izohlashda asosga tayanildi:

so‘zshakl – orazing / lemmasi – oraz;

so‘zshakl – *orazingg‘a* / lemmasi – oraz;  
 so‘zshakl – *orazingkim* / lemmasi – oraz;  
 so‘zshakl – *orazikim* / lemmasi – oraz;  
 so‘zshakl – *orazidin* / lemmasi – oraz;  
 so‘zshakl – *orazini* / lemmasi – oraz;  
 so‘zshakl – *orazikim* / lemmasi – oraz kabi.

Shuningdek, devondan joy olgan 2-g‘azaldagi bitta misrada mavjud bo‘lgan izohtalab so‘zlarning misoli bilan ham tushuntirish mumkin:

<b>Bayt</b>	<b>So‘z (shakl)</b>	<b>Izohi / ma’nodoshi</b>	<b>Misra</b>
2	falak <sup>246</sup>	falak – osmon	Mehrkim, chekti falak burjida zarbaft livo
2	burjida <sup>247</sup>	burj – cho‘qqi	Mehrkim, chekti falak burjida zarbaft livo
2	zarbaft <sup>248</sup>	zarbaft – zardan to‘qilgan	Mehrkim, chekti falak burjida zarbaft livo
2	livo <sup>249</sup>	livo – bayroq	Mehrkim, chekti falak burjida zarbaft livo

Qo‘lda amalga oshirilgan bu jarayon so‘zning boshlang‘ich formasi (lug‘atdagi shakli / lemmasi)ni aniqlash, ya’ni lemmatizatsiya jarayoni hisoblanadi. Lemmatizatsiya morfologik tahlil metodi tarkibiga kiradi, u ikki bosqichni o‘z ichiga oladi: 1) deklarativ bosqich – bunda muayyan so‘zning mumkin bo‘lgan barcha shakllari (so‘zshakllar) belgilanadi; 2) protsedura bosqichi – bunda so‘z asos va qo‘sishchalariga, ya’ni leksemalarga yoki morfemalarga bo‘linadi<sup>250</sup>. Lemmatizatsiya so‘zlarning grammatik valentligi, qaysi affikslar bilan birika olish imkoniyatini ham belgilab beradi.

Korpusda izohtalab so‘zlar uchun informatsion qidiruv imkoniyatlari mavjud bo‘lib, quyidagi bosqichlar asosida ishlaydi:

– ma’lumotlarni jamlash;

<sup>246</sup> O‘sha manba. – B. 312.

<sup>247</sup> O‘sha manba. – B. 336.

<sup>248</sup> O‘sha manba. – B. 619.

<sup>249</sup> O‘sha manba. – B. 173.

<sup>250</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 152.

- ma'lumotlarni tasniflash;
- hujjatlarning qidiruv obrazini yaratish;
- ma'lumotlarni bazaga qidiruvga qulay tarzda kiritish va saqlash;
- qidirish va natijani chiqarish.

G'azallarning informatsion qidiruv imkoniyatlari korpusning zaruratini aks ettiradigan izohtalab so'z va so'z birikmalari, tarixiy shaxslar, to'qima obrazlar, tarixiy, etnik joy nomlari tayanch tushunchalar bazasining kompyuterda tasniflangan ko'rinishda bo'lishidir. G'azallardagi izohtalab so'zlarni semantik teglashda ma'lumotlar bazasi ustunlari quyidagicha shakllantirildi: *birinchi qatorda* g'azalning tartib raqami, *ikkinchi qatorda* izohlangan so'zlarning g'azallardagi izohtalab so'zshakli, *uchinchi qatorda* esa ikkinchi qatordagi so'zshakllarning asoslari izohi bilan berdildi, *to'rtinchi qatorda* she'rning janri ko'rsatildi. *Beshinchi qatorida* izohtalab so'z qatnashgan misra qayd etildi. Bir misrada nechta izohtalab birlik bo'lsa, shuncha marotaba misra yozildi, chunki muayyan so'z devonda ko'p va turli ma'nolarda qo'llanilgan bo'lib, ularning kontekstual ma'nosи dasturga misra yordamida tanitiladi. Jadvalning *oltinchi qatorida* matn tipi, *yettinchi qatorida* auditoriya yoshi berilgan. "Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati"da shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan *subh* so'zi *tong*, *tong payti* hamda *yuz yorug'ligi*, *chehra pokligi*, *go'zallik* ma'nolarini yoritishda qo'llanilgan<sup>251</sup>. Devondagi g'azallarda *subh* so'zi 80 marta: *subhi*, *subhning*, *subhkim*, *subhdek*, *subhidek*, *subhida*, *subhg'a*, *subhin*, *subhhez*, *subhosor* (qo'shma ot – *tongga o'xhash yorug'lik* ma'nosida keladi), *subhnison* (qo'shma ot – *tong darakchisi* ma'nosida keladi), *subhxez* (tong, yorug'lik keltiruvchi, quyosh, oftob ma'nosida), *subhgah* (*subhgoh* – *subh payti*, *tong payti*, *tongotar payt*) ma'nolarida kelgan.<sup>252</sup> Devonda *subh* leksemasining g'azal misralarida (satr) qanday ma'nolarni ifoda etish maqsadida qo'llanilganligi tahlil

---

<sup>251</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. З-жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 115.

<sup>252</sup> O'sha asar. З-жилд. – Б. 116.

qilinadi. Izohtalab so‘zshakl ma’nosini topish uchun qidiruv tugmachasi bosilganda qidiruvdagi so‘z qo‘srimchalarsiz, asos orqali topiladi. Informatsion qidiruv tizimi – ma’lumotlarni qisqa vaqtida qidirib topish, kalit so‘z asnosida ma’lumotlarni saralash tizimidir. Informatsion qidiruv tizimlari quyidagi bosqichlar asosida ishlaydi: informatsiyani jamlash, informatsiyani tasniflash, hujjatning qidiruv shaklini yaratish, hujjatning qidiruv shakli va hujjatlarni saqlash, qidirish hamda natijani chiqarish.<sup>253</sup>

### 3.2.3-jadval. *Subh* leksimasining g‘azallarda ifodalab kelgan ma’nosি

G‘azal raqami	So‘z (shakl)	asosi – izohi/ma’nodoshi	Misra
1	subhig‘a	subh– go‘zallik	Ey navbahori orazing subhig‘a jonparvar havo
16	subh	subh – tong	G‘am tuni subh tilarsen, ko‘ngul uz, zaxming ko‘p
39	subh	subh – tong	Subh chun esti sabo, ichkil qadahkim, bo‘lmog‘ung
76	subhi	subh – tong	Jamoling subhi ochib erdi yuz gul
101	subhg‘a	subh – tong	Ne subhg‘a bu sabohat, ne mehr muncha sabih
148	subhin	subh– tong	Vasl subhin to abad ko‘z tutmasun ushshoq aro
161	subhdin	subh – tong	Qamarg‘a subhdin ravnaq, quyoshqa shomdin zevar
170	subhidek	subh – tong	Shomi hijron subhidek bag‘rimni chok etti sipehr
334	subh	subh–yuz yorug‘ligi	Garchi ruxsori erur subhi dilafro‘z, valek
448	subhning	subh –tong	Subhning bir nafase asra damin

*Barg* so‘zi<sup>254</sup> devon g‘azallarida *bargi*, *bargini*, *bargidin*, *bargikim*, *barglari*, *bargiga*, *barglar*, *bargsiz*, *bargdin*, *bargu*, *bebargu*, *bargdurur*, *barglarin*, *bargin*, *bargining*, *bargidek* kabi qator qo‘srimchalalar bilan kelgan. Navoiy g‘azallarida **barg** so‘zidan bir qator ma’nolarni ifodalashda foydalangan.

<sup>253</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 103.

<sup>254</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изохли лугати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 3-жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 216.

Navoiy davri tilishunosligidan xabardor bo‘lmagan kitobxon *daraxtning bargi*<sup>255</sup> tushunchasini biladi, xolos. Vaholanki, *barg* so‘zi g‘azallarda *yaproq*, *barg*; *mahbub yuzini to‘sib turgan soch taramlari*; *meva*, *hosil*, *samara*; *ezgulik*, *yaxshilik*; *asbob*, *jihoz*, *bezak*, *zarur narsalar*; *majlis*, *safar anjomi* kabi ma’nolarni ham ifodalab keladi. Shuningdek:

**bebarg** leksemasi baytda anglashilayotgan mazmunga qarab: a) *bargsiz*; b) *kambag ‘al*<sup>256</sup>, *bechora nochor*;

**bebarglik** leksemasi esa *ojizlik*<sup>257</sup>, *kuchsizlik*, *holsizlik*, *darmonsizlik*;

**bargvash** – *yaproqsimon*, *barglik* – *bargli*, *yaproqli*;

**bargrez** – a) *xazon*, *xazon bo‘lish*, *yaproq to‘kilish*; b) *kuz fasli*, s) *qarilik*, d) *omadsizlik*, *pastlik* ma’nolarini ifodalashga xizmat qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, bir asosli, ammo bir necha ma’noli so‘zlar tahlili Navoiy asarlarining tilini izohlovchi bir nechta lug‘atlar asosida tahlil qilindi va MKda jamlandi:

3.2.4-jadval. *Barg* leksimasining g‘azallarda ifodalab kelgan ma’nosи

G‘azal raqami	So‘z (shakl)	Asos – izohi / ma’nodoshi	Misra
3	barg	barg – samara	Yo Rab, ul barg nasib etki, Navoiy topqay
3	barg-u navo	barg-u navo– rizq-u ro‘z	Bog‘i tavhid gul-u bulbuldek barg-u navo
6	bargi	barg – soch taramlari	Gesu-vu yuzung sunbuli-yu bargi gulidin
11	barglarin	barg – yaproq	G‘unchadekdurkim, ocharlar kuch ila barglarin
66	bargini	barg – gulning bargi	Day sarsari aning dag‘i bargini sovurub
93	barg- bargidin	barg – gul bargi	Barg-bargidin topar parkand- parkanding iloj

<sup>255</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳрири остида. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 165.

<sup>256</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 3-жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 249.

<sup>257</sup> O’sha manba. – Б. 249.

96	barg-u	barg – yaproq	Chu ketti barg-u gul, bulbul navodin qoldi, ko‘rgilkim
96	bebarg	bebarg – bechora	Navoiydek emish ul dog‘i bebarg-u navo bo‘lg‘ach
133	barg-u	barg – hosil	Kim, bo‘lur ermish anga anduhi hijron barg-u bor
193	bargin	barg – oziq	Dahr sho‘xi makrig‘a berma ko‘ngul – yo‘l bargin et
199	bargi	barg – yaproq	Ne bargi gulki, tutat mish tikanga shu’lai tez
251	bargi	barg – yaproq	G‘izola yotmoq uchun lola bargi bistar xush
341	barg-u	barg – meva	Ki, javri jolasidin tushti barg-u bori aning
373	bargidin	barg – yaproq	Sarvg‘a gulnor bargidin libos etkan kebi
592	bargidin	barg – yaproq	Yog‘madi hargiz chu shabnam injusi gul bargidin
597	bargini	barg – yaproq	Shahdlig‘ nishi bila gul bargini termish ari

Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallarining semantik teglangan korpusi interfeysi yetti asosiy rukndan iborat: 1-rukni: “Alisher Navoiy tarjimayi holi” – mutafakkirning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma’lumotlar bazasi hisoblanadi.



### 3.2.7-rasm. Alisher Navoiy MKning 1-rukni.

“Korpus bo‘yicha qidiruv” nomli ikkinchi ruknga kirib, umumiy qidiruvdan foydalanish mumkin.



### 3.2.8-rasm. Korpus bo‘yicha qidiruv ruknining ko‘rinishi.

Qidiruv satriga kerakli so‘z yozilib, qidiruvga berilsa, mazkur so‘z qo‘llanilgan barcha g‘azal misralari qidiruv oynasida namoyon bo‘ladi. G‘azallardan istalgan biriga murojaat etilsa, g‘azalning to‘liq matni va uning metama'lumotini o‘qish imkoniyati bo‘ladi.

Eye navbahori <b>orazing</b> subhig'a jomparvar havo,	1-g'azal
Orazing sham'idin yorub ikki saro.	7-g'azal
Soqiy mayiki yor lab-u <b>orazi</b> kibi	10-gazal
Orazing xurshidi chun qildi tulu' ul yog'duda.	27-g'azal
Orazing gulshani ichra xat-u xolingg'a fido.	31-g'azal
Ajab safhadur <b>orazingkim</b> esirkab,	50-g'azal
<b>Orazi</b> -u xoling xayol erkach, yetishi novaking.	60-g'azal
Kim, icharman, mayda soqiy <b>orazin</b> o'tru ko'rub.	60-g'azal
Orazing barqi chaqilg'onda, bu koshona kuyub.	62-g'azal
<b>Orazin</b> ochqanda ko'nglumni olibi gul-gul valek,	81-g'azal
Sarvi ra'nodek qad uzra <b>orazi</b> gulfomi bor.	148-g'azal
Magar ko'yida topqum <b>orazu</b> , qaddu labidin bar.	161-g'azal
Zulfung ochiliib, <b>orazi</b> diljo' bila o'ynar,	166-g'azal
Aylay olmas <b>prazingdin</b> o'zga yon ko'nglum havo,	175-g'azal

### 3.2.9-rasm. Qidiruvga berilgan *oraz* so‘zi bo‘yicha natijalar oynasi

Korpusning uchinchi ruknida Alisher Navoiyga tegishli 8 ta devon matnlari (muxlislari tomonidan tuzilgan “Ilk devon” bilan birga), to‘rtinchi ruknida esa Alisher Navoiyga tegishli asarlar (qasidalari; ilmiy, badiiy, tazkira, tarixiy, diniy mavzularda yozilgan) jamlangan bo‘lib, bundan Navoiy asarlarining elektron kutubxonasi sifatida foydalanish mumkin.

Korpusning “Badoye’ ul-vasat” nomli beshinchi ruknida mavjud izohli lug‘atlar yordamida semantik teglangan 650 g‘azal, maqol, ibora (turg‘un birikma)lar qatnashgan baytlar, she’riy san’atlardan tashbih, talmeh, tanosub, tazod mavjud bo‘lgan baytlar hamda arxaizm, istorizm (tarixiy) so‘zlarning har biri MK bazasidan alohida o‘rin olgan.

Kelajakda Alisher Navoiy MKning dunyoga mashhur Shekspir MK singari mutafakkirning ijodiga tegishli barcha devonlari, ilmiy, tarixiy, falsafiy, diniy, ta’limiy asarlari semantik bazasini mushtarak qilgan korpusga aylantirilishi milliy madaniyatimiz va yoshlar ta’lim-tarbiyasida juda muhim hisoblanadi.

### **3.3. Alisher Navoiy mualliflik korpusida iboralar, maqollar va she’riy san’atlar masalasi**

O‘quvchining Navoiy asarlaridagi voqelikni his qilishi, undagi falsafiy mohiyatni tushunishi, tasavvuf olamini idrok etishi, ishqini haqiqiy va ishqini majoziyini anglashi, har bir zarrada Olloh tajallisini ko‘rishi uchun ham zamon talablari darajasida, raqamlı texnologiyalar asosida yaratilgan Alisher Navoiy MK o‘ta ahamiyatli hisoblanadi. Korpus uchun Alisher Navoiy ijodi mahsulidan “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda uchraydigan izohtalab so‘zlarning semantik bazasi yaratilib, korpusda maxsus ruknda semantik bazaning tarkibi tizimli tarzda shakllantirildi. Bu, albatta, mumtoz adabiyotimizning nodir namunalarini puxta o‘rganishda, milliy ma’naviyatimizning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. G‘azallarni semantik teglash jarayonida ayrim so‘zlarning o‘ndan ortiq ma’nolarni ifodalab kelishini ko‘rish mumkin. Albatta, bunday

polisemantiklik, birinchidan, Navoiyni so‘z mulkining sultoni ekanligidan dalolat bersa, ikkinchidan, o‘zbek tili so‘z boyligining naqadar boy ekanligini belgilaydi.

Mazkur devondagi she’riy janrlarning ma’no va mag‘zini to‘laligicha his qilish, anglash, tushunish, uchun har bir baytni va unda ishlatilgan har bir so‘zni ilmiy va badiiy tahlil qilish talab etiladi. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul Navoiy g‘azallarining tub ma’nosini anglash haqida shunday deydi: “Har qanday ulug‘ san’atkorning she’rida so‘z o‘zi aks ettirishni istagan fikr va tuyg‘udan bir necha hissa ortiq ma’nolarni ifodalaydi. Shuning uchun haqiqiy she’rning g‘oyaviy-badiiy tarkibida hamisha nimalardir sir bo‘lib, allaqanday ma’no gavhari yashirinligicha qolaveradi. Eng zukko she’rshunosning ham tahlil imkoniyati cheklangan”<sup>258</sup>. Navoiyning lirik turga mansub 16 janrda yaratgan ijod namunalari tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Jumladan, navoiyshunoslар tomonidan shoirning g‘azaliyoti g‘oyaviy jihatdan va badiiy (tasvir) uslubiga binoan turlicha tavsiflanadi. Bularning barchasi qaysidir ma’noda sharthi tahlillardir<sup>259</sup>. Alisher Navoiy asarlaridagi fikr teranligi, ozod ruh, mustahkam iymon, tuyg‘ular nafosati va nihoyat, mukarram va ulug‘vor turkiy (o‘zbek) so‘zining qudratini anglamay turib, ma’naviy yo‘limiz qanchalik yorug‘ va ravshan bo‘lmisin, undan dadilroq odimlash mumkin emas. Ulug‘ adib o‘zigacha mavjud barcha ilohiy-falsafiy, adabiy ilmlarni izchil o‘rganib, ularni o‘z asarlarida mukammal bir suratda tartiblay olgan ediki, zero Navoiy so‘zлari bag‘ridagi hikmatni, dard-u hasrat va san’atni anglash hamda o‘sha buyuk ruhiy dunyo ichiga kirish uchun uning badiiy so‘z haqidagi qarashlarini o‘rganishimiz kerak bo‘ladi<sup>260</sup>. Alisher Navoiy ijodining bebaho xazinasi bo‘lgan g‘azallarga ta’rif berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan ma’rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masallar mazmuni va ahamiyati, janrda keltirilgan badiiy

---

<sup>258</sup> Иброҳим Ҳ. Навоий. ғазалларига шарҳлар. – Б. 45.[Alisher Navoiy g'azallariga sharhlar.pdf](#).

<sup>259</sup> Husan M. Oshiq sharhi holi ifodasida badiiy san’atlarning o‘rni. // <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/husan-maqsud-oshiq-sharhi-holi-ifodasida-badiiy-sa'natlarning-o'rni.html>. 2015.

<sup>260</sup> Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 9.

timollar jilosi bilan birga foydalanilgan she’riy san’atlarning rang-barangligi, badiiy tasviri, mantiqiy asoslanishi, g‘azallar mazmunini yoritishdagi ahamiyati benihoyadir. Navoiyning shakl va mazmun mutanosibligida yaratilgan betakror lirik merosi, badiyati haqida Yoqubjon Is’hoqov Navoiyning u yoki bu san’atga munosabati uning asosiy estetik prinsiplari bilan to‘la mutanosiblikka egaligi, har bir she’riy usul muayyan bir maqsad asosida yuzaga kelgan bo‘lib, aniq fikr va g‘oyaning yorqin badiiy ifodasi uchun xizmat qilishi lozimligini, mazmunning (yoki “ma’no”ning) yorqin ifodasi uchun mone’lik qiladigan har qanday san’at yoki usul haqiqiy ijodkor nazdida qimmatga ega emasligini<sup>261</sup> ta’kidlaydi.

Navoiy o‘z lirkasida betakror she’riy san’atlardan unumli foydalanib, badiiy salohiyati, mantiqiy tafakkur olamining cheksizligini dalillagan bo‘lsa, go‘zal badiyati, chuqur va boy, teran mushohadasi bilan she’riyat ahlining qalbini o‘ziga rom etgan. “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda ham she’riy san’atlarning beqiyos turlaridan samarali va mohirona foydalangan.

*Irsoli masal* she’riy san’ati baytlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Irsoli masal oshiq sharhi holining ifodasida poetik mazmun kasb etadi<sup>262</sup>. Ilmi badi’ga<sup>263</sup> doir deyarli barcha manbalarda ushbu she’riy san’at haqida ma’lumotlar keltiriladi. Adabiyotshunos olim Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi” asaridagi irsoli masal san’ati haqida keltirilgan ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu san’at ikki usul bilan hosil bo‘ladi: “Birinchi va afzali uldurkim, masalning so‘z va tartibini o‘zgartirmay bergaylar. Ikkinci yo‘li uldurkim, masalda o‘zgarish yuz berur”<sup>264</sup>. Bunda muallif irsoli masal san’atining birinchi turida she’r tarkibida keltiriladigan maqol yoki hikmatli so‘zning hech o‘zgarishsiz berilishini, ikkinchi turida esa matnning mazmuni saqlangan holda she’r talabi bilan maqol yoki hikmatli so‘zning shakli

<sup>261</sup> Исоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 112.

<sup>262</sup> Husan M. Oshiq sharhi holi ifodasida badiiy san’atlarning o‘rni. // <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiv/husan-maqsud-oshiq-sharhi-holi-ifodasida-badiiy-san'atlarning-o'rni.html>. 2015.

<sup>263</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – Б. 422.

<sup>264</sup> Хусайний А. Бадойиъ ус-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981

biroz o‘zgartirilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Navoiy irsoli masal she’riy san’atini yuzlab o‘rinlarda o‘ziga xos tarzda qo‘llaganligi bilan hamda baytlar ravonligi, o‘ynoqi ohangda bitilganligi, xalq maqollari va iboralaridan foydalanish orqali yetakchi g‘oyani o‘quvchiga teran yetkaza olganligi bilan ham alohida ajralib turadi. So‘z mahoratidan foydalanib insonning murakkab ruhiy holati tasvirini kishi ko‘z o‘ngida gavdalantirishi o‘ziga xoslik kasb etadi. Navoiy “Badoye” ul-vasat” devonida irsoli masal san’atini uch xil holatda qo‘llagan:

1) bayt tarkibida qo‘llanilayotgan maqol, hikmatli so‘z “masal”, “masalkim”, “derlar” jumlalari bilan keltiriladi:

Derlarki, og‘iz o‘t desa kuymas, vale bu oh,

Chun sabt bo‘lsa, xoma-yu daftarni kuydurur<sup>265</sup>. (164-g‘azal, 5-bayt)

“O‘t degan bilan og‘iz kuymas” maqoli bilan mazmunan mos keladi.

2) maqol yoki matal yuqoridagi jumlalarsiz aynan keltiriladi:

Tilar Laylini Majnun, dilbarin miskin Navoiy, vah,

Kerak bulbulg‘a gul, devonag‘a yori pariy paykar. (161-g‘azal, 9-bayt) Ushbu baytda qo‘llanilgan irsoli masal “*Bulbul gulga – oshiq, yigit – sanamga*” xalq maqoli bilan ma’no jihatidan bir xil. Yoki:

Yuzun ko‘r, qilmag‘il mujgon-u xattu xolidin nola,

Ki bo‘lmas xorsiz gul, dudsiz o‘t, dog‘siz lola<sup>266</sup>. (522-g‘azal, 1-bayt).

“*Tikansiz gul bo‘lmas*” xalq maqoliga mazmun jihatidan teng keladi.

3) maqol yoki matalning mazmuni saqlangan holda, uning shakli biroz yoki butunlay o‘zgartiriladi:

Umr qasrin necha kun tutqil g‘animatkim, darig‘,

Xush binodur, poydor ermas vale bunyodi ko‘p. (67-g‘azal, 8-bayt). Ushbu baytda “Umrni g‘animat bil” maqolining mazmuni saqlangan holda so‘zning shakli o‘zgargan.

---

<sup>265</sup> Алишер Навоий. Бадоев ул-васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б. 170.

<sup>266</sup> O‘sha asar. – Б. 528.

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning semantik teglari bazasini yaratish jarayonida devondagi g‘azallarda qo‘llanilgan ellikka yaqin xalq maqollari semantik izohlandi:

G‘azal, bayt	Mazmunan mos kelgan maqollar
Ishqing bosh ursa zor tanimdin, emas ajab, Xoshok ichinda shu'lani bo‘lg‘aymu yoshurub. (66-g‘azal, 5-bayt)	“Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi”
Umr qasrin necha kun tutqil g‘animatkim, darig‘, Xush binodur, poydor ermas vale bunyodi ko‘p. (67-g‘azal, 8-bayt)	“Umrni g‘animat bil”
Boshim chu gard-u ko‘zum ko‘r sensiz o‘lmadi bot, Qoshingda bosh ko‘tarib, ko‘z ocharg‘a qo‘ymas uyot. (74-g‘azal, 1-bayt)	“Uyat o‘limdan qattiq”
Tilar Laylini Majnun, dilbarin miskin Navoiy, vah, Kerak bulbulg‘a gul, devonag‘a yori pariy paykar. (161-g‘azal, 9-bayt)	“Bulbul gulga oshiqlar gul – sanamga”
Derlarki, og‘iz o‘t desa kuymas, vale bu oh Chun sabt bo‘lsa, xoma-yu daftarni kuydurur. (164-g‘azal, 5-bayt)	“Og‘iz o‘tdan emas, oh-vohdan kuyar”

Navoiy yaratgan hikmatli so‘z va iboralar xalq maqollariga aylanib ketgan bo‘lsa, obrazli badiiy iboralari xalqning o‘zbek tili frazeologiyasini boyitgan. Bunday birikma va iboralar orqali u ijtimoiy hayotdagi voqealari hoidalarining xalq donoligiga xos tipik xususiyatlarini umumlashtirib, qisqa, lo‘nda va mazmunli ifodalash imkoniyatlarini namoyon etdi, ular o‘zbek adabiy tilining bitmas-tuganmas boyligini ko‘rsatadi, uning istiqbollarini, kelgusi taraqqiyot yo‘llarini belgilab beradi. Navoiy g‘azallarida: *tilimni lol etib, olur hushingni, jon yetti og‘zimg‘a, mashaqqat chektim, jon taloshur, kulini ko‘kka sovurding, boshga chiqmoq, toshdek ko‘nglin oning mum qil, yuz qarolig‘, oqardi boshim, ko‘nglum ochilur, bersa emdi pand, jon berib, iki yuzlik kabi ko‘plab iboralardan unumli foydalangan.*

Bir sinonimik qatorni tashkil qiluvchi iboralar o‘zaro obrazlilik darajasiga ko‘ra farqlanadi. Masalan, “Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallarida *chok aylab* iborasidan bir necha o‘rinlarda foydalangan:

104-g‘azal, 4-bayt: Sarg‘arib ashkin to‘kub, mendek *yaqo chok aylamish*;

216-g‘azal, 7-bayt: *Chok-chok*<sup>267</sup> *aylab* ko‘ngulni, tilni aylab yuz tilim;

371-g‘azal, 5-bayt: Buki hijron tig‘idin ko‘ksumni yuz *chok aylading*;

622-g‘azal, 1-bayt: Ichkaridin ko‘kragimni *sar-basar chok ayladi*.

1) misralarida *chok aylading* iborasi bir ma’noni anglatsa-da, ammo obrazlilik darajasiga ko‘ra farq qiladi. Ushbu iboralarning so‘nggisi ma’no darajasining kuchliligi, obrazliligi va ifodaliligi jihatidan ajralib turadi. Iboralar ma’nosidagi ana shu nozik jihatlar ham Navoiy e’tiboridan chetda qolmagan va shoir baytda iboralarni obrazlilik darajasiga ko‘ra ketma-ket qo‘llagan.

Quyida “Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallarida uchragan iboralar tahlili berilgan:

Bayt	Mazmunan mos ibora
Ki ishq shu’lasi o ‘t soldi xonumonim aro	Bor budiga o‘t qo‘ymoq
<i>Ishq o ‘ti ichra har dam kul bo ‘lurmen o‘rtanib</i>	Ishqida kul bo‘lmoq
<i>Soldi o ‘t ko ‘nglumg‘avu orom tutti g‘ayr ila</i>	Ko‘ngliga o‘t solmoq
Har zamon ko ‘nglum qotig‘ ermas dema, ey siymbar	Ko‘ngli qattiq
Chun dudi ohim uchqunini ko ‘kka yetkurub	Ohi ko‘kka yetmoq
Qoshingda bosh ko ‘tarib, ko ‘z ocharg ‘a qo ‘ymas uyot	Bosh ko‘tarmoq, Ko‘z ocharga qo‘ymaslik
Orazin ochqanda ko ‘nglumni ochib gul-gul valek	Ko‘nglini ochmoq, Gul-gul ochilmoq.
Agar boshimga yog‘sa tosh gardundin, tong ermaskim	Boshiga tosh yog‘dirmoq
Yor vaslidin vafo ko ‘z tutmasam, ayb etmakim	Ko‘z tutmoq

<sup>267</sup> Алишер Навоий асарлари тиилининг изоҳли лугати. / Фозилов Э. таҳрири остида. – 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 473.

Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o‘ziga xos jihatlari, fikrni go‘zal va mazmunli ifodalash usullarini o‘rganuvchi soha *ilmi badi'* bo‘lib, uning asosini mumtoz she’riyat, ba’zan nasrda keng qo‘llanilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo‘llanilayotgan badiiy san’atlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib, *ilmi badi' sanoyi' ilmi* deb ham yuritiladi<sup>268</sup>. Alisher Navoiy *ilmi badi'*ga doir maxsus asar yaratmagan bo‘lsa-da, o‘zining “Majolis un-nafois”, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” va boshqa ko‘plab asarlarida *ilmi badi'*ning ba’zi nazariy jihatlariga to‘xtalib o‘tadi<sup>269</sup>. G‘iyosiddin Xondamir: “Xulosat ul – axbor fi bayon avval ul-ahyor” asarida keltirgan ma’lumotga ko‘ra Abdulloh Husayniy o‘limlikka qadar yuksak qadr topganidan dalolat beradi: “Sabot va matonat bilan ilmda shunday oliy darajaga yetdiki, 902- (milodiy 1496-1497) yillarda bir necha oy davomida amirning (Navoiy) dargohlarida oliyjanob majlislarda dars o‘tdi, ul hazratning o‘zлari ham qo‘llarida qog‘oz va qalam bilan mavlono muallimning shogirdlari qatoridan o‘rin oldilar”<sup>270</sup>. Navoiydek buyuk qalam sohibi ayni kamolotga yetgan davri – ellik olti yoshida qog‘oz-u qalam bilan bir necha oy Atoulloh Husayniy qoshida adabiyotshunoslikdan dars tinglagan. Bu nafaqat sharq, balki jahon adabiyoti va adabiyotshunosligi tarixida ham noyob hodisa hisoblanadi<sup>271</sup>.

XI asrning ikkinchi yarmida yashagan Umar Roduyoni yashagan Umar Roduyoni *tanosub she’riy* san’ati haqidagi ilk ma’lumotlarni “Tarjimon ul-balogs‘a”<sup>272</sup> (“Balog‘at tarjimoni”) asarida berib, unga shunday ta’riflaydi: “Agar she’r aytuvchi ma’no jihatidan bir-biriga o‘xhash, xususan, “oy-u quyosh, daryo-yu kishtiy” kabi so‘zlarni qo‘llasa, uni muroot un-nazir deb ataydilar”<sup>273</sup>. Tanosub haqidagi kengroq ma’lumot XV asr o‘rtalarida yashagan Atoulloh Husayniyning “Badoye’ us-sanoyi” asarida

<sup>268</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. 1-kitob. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – B. 404.

<sup>269</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. 1-kitob. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – B. 405.

<sup>270</sup> G‘iyosiddin Xondamir. Xulosat ul-axbor fi bayon avval ul-ahyor. 1498 –1499.

<sup>271</sup> Olimov M. Navoiy qanday mutolaa qilgan. // Tafakkur jurnali. 2017. 2-son.

<sup>272</sup> Muhammad Roduyoni. Tarjimon ul-balogs‘a. XI asr.

<sup>273</sup> Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: 2008. – B. 235.

berilgan: “Ani tanosub, tavfiq, iytilof va talfiq ham derlar, ul andog‘durkim, kalomda anga munosib hodisa va nimalarni jam’ qilurlar”<sup>274</sup>. Shuningdek, ushbu asarda tanosub san’atining darajalari va nomlanishi bilan bog‘liq muhim ma’lumotlar ham keltirib o‘tilgan.

“Badoye’ ul- vasat” devonida besh yuzdan ortiq baytlarda tanosub san’ati 2 xil holatda qo‘llangan:

1) Bayt tarkibida bir guruhgaga mansub va ma’no jihatdan bir-biriga yaqin bir necha so‘zlarni keltirish orqali tanosub san’atini qo‘llash. Quyidagi baytda *xurshid* (quyosh), *axtar*, (yulduz), *sayyora* (planeta) so‘zlari tanosub bo‘lib kelmoqda:

Bordi ul xurshid-u ashkim oqti, vah, tole’ ko‘rung

Kim, ne yanglig‘ axtari sayyoraye bordur manga?! (13-g‘azal, 5-bayt)

2) Bayt tarkibida ikki ma’no guruhiga oid so‘zlarni keltirib, har ikki guruhi orasidagi so‘zlarni bir-biriga qiyoslash yoki qarshi qo‘yish orqali tanosub san’atini qo‘llash mumkin:

Oting ayog‘ini o‘pmakka na’l-u mix ermas,

Sipehr raxshidin inmish hilol-u axtarlar. (180-g‘azal, 2-bayt)

Baytda *na ’l, mix* hamda *sipehr, hilol, axtar so ‘zlari o ‘zaro* mutanosiblikda tanosub sa’natini hosil qilmoqda. Yoki:

Tushumga kirdi jannat ichra hur-u to‘biy-u kavsar,

Magar ko‘yida topqum orazu, qadd-u labidin bar. (161-g‘azal, 1-bayt)

Ushbu baytda esa *jannat, to ‘bi* (jannatdagi daraxt nomi), *kavsar* (jannatdagi hovuz nomi) va *oraz, qad, lab* so‘zlari o‘zaro mutanosiblikda tanosub san’atining betakror namunasini paydo etmoqda.

Devondagi “Bo‘lmasa” radifli (24-g‘azal) g‘azal yetti baytdan iborat. G‘azalda *mavzun, gulgun, homun, afzun, maknun, mammun, marhun, dun, majnun* so‘zlarini qofiya sifatida tanlash Navoiyning yuksak mahorat sohibi ekanligini

---

<sup>274</sup> Atoullohu Husayniy Badoyi’ us-sanoyi’. XVasr.

ko‘rsatadi<sup>275</sup>. G‘azal oshiqona mazmunga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, tasavvufiy, orifona ma’nolar ham ifoda etilganligi g‘azal baytlariga o‘zgacha joziba baxsh etgan. G‘azalni tahlil qilganimizda bu xususiyat yaqqolroq ko‘zga tashlanadi, oshiqona ma’noga bag‘ishlangan, biroq zohiriylari bilan orifona bo‘lib ko‘ringan ushbu g‘azalda tasavvufiy ma’nolar ham ifoda etiladi, ya’ni zohiriylari va botiniy, boshqacha qilib aytganda, majoziy ma’no bilan haqiqiy ma’no birga qo‘silib, biri ikkinchisini taqazo etib keladi. Matla’ni tahlil qilganimizdayoq bu xususiyat yaqqol ko‘zga tashlanadi:

O‘tg‘a solg‘il sarvni, ul qaddi mavzun bo‘lmasa,  
Yelga bergil gulni, ul ruxsor gulgundan bo‘lmasa.

Lirik qahramon kelishgan qadli yori bo‘lmasa, sarvni ham o‘tga solgil, ul yuzi qizil go‘zal bo‘lmasa, qizil gullarni yelga bergil, deya *istiora* san’atining nodir namunasidan foydalanadi, ya’ni *qaddi tik* va *yuzi qizil* deb yoriga ishora qiladi. Bundan tashqari, g‘azalning birinchi baytida *sarv*, *gul*, *gulgundan* so‘zlari *tanosub* san’atini yuzaga keltirgan.

Sarsari ohim esar g‘am shomi hijron tog‘ig‘a,  
Yaxshidur, tong otquncha bu tog‘ homun bo‘lmasa.

Lirik qahramon mazkur baytda *sovuuq ohim g‘am tunida hijron tog‘ida esadi*, *tong otguniga qadar bu tog‘ oh-u nolam sabab tekis sahroga aylanmasa yaxshi edi*, deydi. Oshiqning ohi nima uchun aynan tunda g‘am tog‘ida esarkan? Baytga yuzakiroq qarashib, faqat yor sababli, deb tushunishi mumkin. Lekin Navoiy bu obraz orqali olamdagagi jamiki mavjudotga vujud bergen, vujud ahliga saxovat fayzini bergen Olloho ni ham nazarda tutgan. Navoiyning falsafasi bu ikki tushunchani butunga jamlagan. Baytda lirik qahramonning oh-u nolasi tog‘ aro kezishi betakror *mubolag‘a* va *tashxis* (jonlantirish) san’atlarini uyg‘unlashtirgan.

Mumtoz adabiyotda shunday poetik usul va obrazlar borki, ular badiiy ijodning muhim tarkibiy qismiga aylanib ketgan, aynan g‘azal janrini ularsiz

---

<sup>275</sup> Алишер Навоий. Бадоев ул васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б. 27.

tasavvur qilib bo‘lmaydi va shoir lirikasida so‘z qo‘llash mahorati tashbihda yanada oydinlashadi. *Tashbih san’ati*<sup>276</sup> sharq adabiyoti badiiy tafakkurining eng qadimiy elementlaridan sanaladi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois<sup>277</sup>” asarida Atoullohga yuqori baho berib, “Qofiya” va “Mutavassit” o‘qur erdi, sanoyi’dan mahorat paydo qildi” deb yozadi. Atoulloh Husayniy “Badoyi’ us-sanoyi”<sup>278</sup> asarida barcha she’riy san’atlarga aniq misollar bilan ta’rif berib, tashbih san’ati haqida shunday deydi: “Tashbih vasfta bir nimani bir nimag‘a o‘xhatmoqtin iboratdur. Anikim, tashbih qilurlar mushabbah derlar va anikim, anga tashbih qilurlar mushabbah bih derlar va u vASFNI vajhi shibh derlar”<sup>279</sup>. Tadqiqot obyekti bo‘lgan “Badoye’ ul-vasat” devonida yuzdan ortiq tashbih she’riy san’atining betakror namunalariga guvoh bo‘lamiz. Devondagi birinchi g‘azal ham mutlaq muhabbat mazharining “navbahori oraz”i tavsifi bilan boshlanib, unda shoir olamning go‘zalligi, tabiatdagi yaralish va ijod jarayonining asl ijodkoriga sano yo‘llashda eng nozik iboralar, eng chiroyli tashbihlarni qo‘llaydi<sup>279</sup>:

Ey navbahori orazing subhiga jonparvar havo,  
Andin gul-u bulbul topib yuz barg birla ming navo<sup>280</sup>.

Tashbihning bir she’r doirasida qo‘llanishi masalasida Navoiyning novatorligi yana ham diqqatga sazovor. U butun boshli g‘azallarda tasvirni g‘azallarning bir she’riy san’at asosiga qurilishi shoir ijodining ilk davrida shakllangan bo‘lib, keyingi bosqichlarida ham rivoj topgan. Shoir ba’zi g‘azal baytlarining birinchi misrasida aytilgan fikr keyingi baytdagi misraga tashbih orqali faqatgina o‘xhatilmasdan, birinchi fikrni keyingisiga taqqoslanadi<sup>281</sup>. Shu bois Navoiy g‘azallarida tashbih bilan irsoli masal yonma-yon keladi. “Badoye’ ul-vasat” devonining 209, 231, 299, 300, 323, 324, 337, 388, 618-g‘azallarining

<sup>276</sup> Rasulov N. She’r san’atlari. O‘quv qo‘llanma. 2017. – B. 6.

<sup>277</sup> Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. [www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz) кутубхонаси. – Б. 67.

<sup>278</sup> Atoulloh Husayniy. Badoyi’ us-sanoyi’ – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1981. – B. 235.

<sup>279</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. 1-kitob. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – B. 45.

<sup>280</sup> Алишер Навоий. Бадоев ул-васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б. 4.

<sup>281</sup> Исоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 151.

barcha baytlarida tashbih san’atidan foydalanilgan. Oshiqona mazmunda yozilgan “Yanglig” g‘azalining barcha baytlarida tashbih she’riy san’ati ishtirok etgan bo‘lib, quyida mazkur g‘azalni narsa, hodisa, xususiyatlarni ular o‘rtasidagi o‘xhashlik, umumiylit nuqtayi nazaridan qiyoslab tahlil qilamiz:

Ul oy ravshan qilur ko‘zlarni mehri xovari yanglig<sup>282</sup>,  
Netib devona bo‘lmaykim, qochar mendin pari y Yanglig‘.

Baytning birinchi misrasida lirik qahramon ma’shuqanining go‘zal chehrasini mehri hovar, ya’ni sharq quyoshiga tashbih etib, uning porlab turgan yuzini ko‘rgan begona ko‘zlar ravshan bo‘lganini aytadi. Ikkinchi misrada esa oy yuzligim mendan paridek qochmoqda, rashk-u iztirob chekib, devona bo‘lmaslikning iloji yo‘q, deydi oshiq. Bunda ma’shuqanining ko‘zlarini *sharq quyoshiga*, yoriga tutqich bermay, qochish holati esa *pariga* tashbih etiladi.

Saodatlig‘ biravkim, g‘am tuni naxsiyati daf‘in  
Qilurg‘a chiqsa ollidin jamoling Mushtariy yanglig‘.

Keyingi baytda shoir yor jamolini *Mushtariyga* qiyoslaydi, go‘zal yor kimniki qarshisidan chiqsa, undagi bebaxtlikni (naxsiyat) ketkazadi va o‘sha inson baxtli bo‘ladi. Mushtariy (Yupiter sayyorasi) sharq adabiyotida “Sa’di akbar” – katta baxt degan ramziy ma’noni ifodalaydi.

Nechuk takrorida to subh bulbuldek navo chekmay,  
Yuzungkim, sabzayi xatdin erur gul daftari yanglig‘.

Uchinchi baytda yor yuzidagi miyiq chizig‘i (yangi chiqqan mo‘ylabi) *gul yaprog‘iga* tashbih qilinadi. Bu qadar go‘zallikni esa, erta tongda (subh) bulbuldek kuylamasdan iloj yo‘q, deydi lirik qahramon.

Navbatdagi baytda ham go‘zal ma’shuqanining qoshlari tashbih unsuri bo‘lib kelmoqda:

Jabiningdurmukim, ikki muambar toqi kenidin,  
Chiqibdur yarimi subhi saodat axtari yanglig‘.

---

<sup>282</sup> Алишер Навоий. Бадоэъ ул-васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б. 301.

Baytda yorning qoshlariga xushbo‘y (*muambar*) va kamon kabi ta’riflar beriladi hamda mana shu qoshlari ortidan (*ken*) chiqqan tonggi baxt yulduzi (*axtar*) ma’shuqaning peshonasiga (*jabn*) qiyoslanadi. Baytdagi yor qoshlarini *kamonga*, peshonasini *porloq yulduzga* o‘xshatilishi tashbih san’atini yuzaga keltirgan.

Ne yanglig‘ turfa qushsen, vahki, tovus-u tazarv ermas,  
Jamolingga, nachuk jilvangni dey kabki dari yanglig‘.

Yuqoridagi baytda ma’shuqaning xatti-harakatlari va go‘zalligini qushga tashbih etib, ajib qushsan, hatto *tovus* va *qirg‘ovul* (*tazarv*) ham sening chiroyingga teng kelolmaydi, ko‘p sayraydigan xushovoz kaklik (kabk) kabi sening husn-u jamolingga ni ta’riflasam, deydi oshiq. Baytda mashuqaning go‘zalligi tovus-u tazarvga, oshiqning ma’shuqa chiroyini ta’rif-u tavsif etishlari kaklikka tashbih etilgan.

Navbatdagi baytda ham hazrat Navoiygagina xos bo‘lgan betakror tashbih namunasi keltirilgan. Ma’shuqaning olovdek yonib turuvchi yuzi atrofida xushbo‘y sochlari har taraf sochilgan, xuddi jilvalanuvchi nурдан kuygan *farishtalarning qanotlari* (*shahpar*) kabi.

Ul o‘tlug‘ chehra davrindamu anbar zulf erur har yon,  
Tajalli barqidin kuygan maloyik shahpari yanglig‘.

Yuqoridagi baytda yor yuzining qizilligi *olovga*, sochlari esa hisobsiz *farishta qanotlariga* (*maloyik*) o‘xshatiladi.

Xusho, dayri fanokim, mug‘bacha atrofidin chiqqay,  
Qilurg‘a naqdi din toroj Xaybar kofiri yanglig‘.

Yettinchi bayt tasavvufiy mazmunda bo‘lib, dunyo lazzatidan kechib foni y bo‘lganlar dunyosi (*dayri fano*) yaxshiligi ifoda etiladi, chunki ular dunyoviy nafsdan ustun kelib, boqiy zot vasliga intiladilar va eng ulug‘ mukofotga sazovor bo‘ladilar. May quyuvchi inson dunyo lazzatidan kechgan, ya’ni toat-ibodatga umrini baxshida etgan zotlar qarshisidan chiqadi, xuddi Xaybar dinsizi din

boyliklarini talon-taroj qilgani kabi. Baytda may quyuvchining va Xaybar dinsizining ishlari bir-biriga o'xshatilgan.

Kishi ayriliq azoblarini tortmasdan, yor vaslidan bahramand bo'lmasligi haqidagi fikrlar sakkizinchı baytda o'z ifodasini topgan. Insonning hijron qynoqlarini tortmasdan visolga yetishishni istashi, xuddi g'ofil bandaning jannatni tush ko'rishi, ikkiyuzlamachi, riyokorning rohat talab qilishi kabitidir, deydi shoir navbatdagi baytda:

Kishi hijronda o'lman vasl otin tutmoq erur andoq  
Ki, g'ofil ravza tush ko'rgay riyo tanparvari yanglig'.

Maqta'da shoir butun g'azal mazmuniga singdirilgan mavzuni umumlashtiradi va tashbih ma'naviy she'riy san'atining nodir imkoniyatlaridan foydalandi:

Navoiy, aysh uchun dayr-u riyozat chekkali Ka'ba  
Gar istarsen, bu ikki ishga yo'qtur yer Hiri yanglig'.

Bunda baytning badiiy kompozitsiyasi murakkablashadi. Bir san'atning vujudga kelishiga ikkinchi san'at asos bo'lib xizmat qiladi.<sup>283</sup> Yuqoridagi baytda ham tanosub san'atining yaratilishi talmeh san'atining (*Ka'ba, Hiri yeri*) yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Navoiy farog'at uchun dunyo, qiyinchilik uchun Ka'bani istaysan, lekin bu ikkisi uchun, ya'ni rohat va qiyinchilik uchun Hiri yeri kabi makon yo'qdir, deydi. Kishilar o'yin-kulgi, aysh-ishrat uchun bu o'tkinchi dunyonи, boqiy hayotda yorug' yuzli bo'lish uchun esa Ka'bani tanlashadi, lekin shoirning e'tirof etishicha, bu ikkala maqsadga ham erishish uchun Hirini (*Hirot shahri*) makon aylash lozim. G'azal xulosasidagi Navoiyning o'z e'tiroflariga yondashilsa, majoziy ishqidan maqsad haqiqiy ishqni kuylashdir. Navoiy

---

<sup>283</sup> Husan M. Oshiq sharhi holi ifodasida badiiy san'atlarning o'rni. // <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/husan-maqsid-oshiq-sharhi-holi-ifodasida-badiiy-sanatlarning-orni.html>. 2015.

asarlarida tasvirlangan insonga muhabbat zamirida Ollohga muhabbat mujassamdir.

Navoiy ijodi uchun *istiora* san'ati yetakchi tasviriy vosita vazifasini bajaradi. Mavhum tushunchalarga real xususiyatlar baxsh etish orqali yaratilgan ajoyib istioralar ham ko‘plab uchraydi<sup>284</sup>. “Badoye’ ul-vasat” devonidagi deyarli barcha g‘azallarda istiora san’atidan foydalanilgan. Masalan, “Ey, jafo peshang-u bedod ishing, javr faning<sup>285</sup>” deb boshlanuvchi g‘azalning o‘zida bir qancha istiora mavjud: “javrfani”, “bedod ishing”, “marhami rohat”, “g‘amzayi novak”, “tiyradurur chehra”, “ishq shahid”, “qonlig‘ kafan”, “davr anduh”, “falak toqidin”. Bunday baytlarni devondan ixtiyoriy tanlab tasnif qilish mumkin:

Bir sarv qomating kebi, bir gul yuzung kebi  
Yo‘q, kezsa xuldu ravzani bog‘i Eramg‘acha<sup>286</sup>.

Baytda *sarv qomating, gul yuzung, xuldu ravzani, bog‘i Eramg‘acha* kabi bir nechta istioralar qo‘llanilgan. “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da *sarv*<sup>287</sup> so‘ziga ikki xil izoh berilgan: a) tik o‘sadigan xushqomat daraxt; b) qaddi qomati kelishgan go‘zal ma’shuqa. O‘zbek tilining izohli lug‘atida<sup>288</sup> “sarv” leksemasing forscha so‘z ekanligi, janubiy mamlakatlarda o‘sadigan konus shaklli, igna bargli daraxt ekanligi haqida ham ilmiy ma’lumot berilgan bo‘lib, Navoiy mazkur so‘zdan istiora sifatida keng ma’noda foydalangan: *sarv qaddi, sarv raftor, gulu sarv, sarvqad, sarvu gul, sarv qomating, sarv bo‘stoni, sarv ra’no, sarv taqlid, sarv bo‘yluq, sarv og‘o, sarv dilkash* kabi.

Navoiyning badiiy mahoratini ko‘rsatadigan muhim jihatlardan yana biri – ishqiy mavzulardan tashqari, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi g‘azallarda ham *tazod she’riy* san’atini keng qo‘llaganligi. Devondagi g‘azallarda tazod she’riy

<sup>284</sup> Исоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент. Фан, 1983. –Б. 43.

<sup>285</sup> Алишер Навоий. Бадоев ул-васат – Тошкент. Тамаддун, 2011. – Б. 346.

<sup>286</sup> O‘sha asar. – В. 576.

<sup>287</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. – З-жилд. Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 46.

<sup>288</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. З-жилд. – Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 447.

sa'natining imkoniyatlari keng eks etgan. Tazod yuzakiroq qaraganda antiteza usuliga ham o‘xshaydi: ularning har ikkalasida ham bir-biriga zid tushunchalar yuzlashtiriladi, ayni chog‘da, ularning bir-biridan farqli jihatlari ham bor. Antitezada to‘qnashuvchi bir-biriga zid narsalar ikki mustaqil manbadan kelib chiqsa, tazoddagi to‘qnashuvchi bir-biriga zid narsalarning kelib chiqish manbayi yagona: bir narsa ham yaxshilikning, ham yomonlikning kelib chiqishini o‘z ichiga qamrab oladi<sup>289</sup>.

Ishq ko‘yining gadoyimenkim, anga tengdurur  
Shoh esa zarbaftlig‘ yo soyil o‘lsa jandalig<sup>290</sup>.

Devondagi 298-g‘azal 6-baytida “gadoy” (soyil) >≠<“shoh”, “zarbaftlig” >≠<“jandalig” (darveshlar to‘ni) so‘zlari bir-biriga zid tushunchalarni ifodalaydi va ayni chog‘da birgina baytda benihoya murakkab, mashaqqatli hayot manzarasi chiziladi.

Vasl aro hijron yoshurdi ishq ko‘nglum qatlig‘a,  
Mezbon zahr ezdi sug‘a, topmayin mehmon vuquf<sup>291</sup>.

305-g‘azalning 3-baytda “vasl”>≠<“hijron”, “mezbon”>≠<“mehmon” so‘zlari o‘zaro zid ma’nolarni anglatib, tazod san’atini vujudga keltirmoqda. Guvoh bo‘lganimizdek, tazod san’atida zid ma’noli so‘zlardan foydalaniladi. Zid ma’noli so‘zlar badiiy matn tilida muhim vazifani bajarib, tasvirlanayotgan voqeа-hodisani yorqin ifodalashga, obrazlilik va estetik ta’sirchanlikni ta’minalashga xizmat qiladi. Bu o‘quvchida uning tasavvurini kengaytirish, muammoli vaziyatlarni mulohaza qilish, ruhiy tushkun holatlardan mustaqil chiqa olish ko‘nikmasini shakllantiradi. G‘azallarda zid ma’noli so‘zlar qo‘llanishiga ko‘ra quyidagi 3 turga bo‘linadi:

---

<sup>289</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 38.

<sup>290</sup> Алишер. Навоий. Бадоев ул-васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б. 304.

<sup>291</sup> O‘sha asar. – В. 311.

a) leksik zid ma'noli so'zlar – o'zaro qarama-qarshi, zid ma'nolardan tarkib topadi: *avval-oxir*, *fano-baqa*, *xazon-bo'ston*, *vaf-o-jafo*, *gado-podsho*, *obod-barbod*, *pinhon-oshkor* kabi:

Zulfunga bo'lsam zabun yuz vajh ila, ne aybkim,  
Sen g'anisen – men *gado*, sen *shah* – men *ahli ehtiyoj*<sup>292</sup>.

b) leksik-frazeologik zid ma'noli so'zlar – qarama-qarshi ma'noli so'z va iboralardan tarkib topadi: *quvondi* >≠< *dili og 'ridi*, *yashnadi* >≠< *xazon bo 'ldi*;

Qachon bo'ldung demang begona aql-u, xush-u taqvodin,  
Muni surmog' ne hojat, ul pariga oshno bo'lg'ach<sup>293</sup>.

v) frazeologik zid ma'noli birliklar – qarama-qarshi ma'noli iboralardan tuziladi: *ko 'ngli ko 'tarildi* >≠< *dili siyoh bo 'ldi*, *ko 'zi porladi* >≠< *ko 'zi qonga to 'ldi*:

Lablari xandon bo'lur, ko'rgach ko'zimda yig'lamoq,  
Ko'zlarim yig'lar, labi jonbaxshida kulgu ko'ruba<sup>294</sup>.

Baytda “*lablari xandon*” >≠< “*ko 'zumda yig 'lamoq*” va “*ko 'zlarim yig 'lar*” >≠< “*labi jonbaxsh*” qarama-qarshi ma'noli turg'un birikmalar hisoblanadi. *lab-ko 'z*, *xandon-yig 'lamoq* keyingi misrada *ko 'z-lab* va *yig 'i-kulgi* timsollari orqali oshiq holatini tasvirlangan bo'lib, bunda *tanosub* san'ati tazod she'riy san'atining rivoji uchun ko'maklashmoqda.

“Badoye' ul-vasat” devoni dagi g'azallarda Navoiy *talmeh* san'atidan ham samarali foydalangan va ikki yuzga yaqin mashhur tarixiy, adabiy va mifik shaxslar, geografik, etnik joy nomlari, tarixiy voqealar, afsonalar haqida ma'lumotlar bergen. G'azallarda lirik qahramon siyosini gavdalantirishda uni o'tmishdagi mashhur adabiy, diniy yoki tarixiy qahramonlar bilan qiyoslaydi, o'xshatadi; goho o'tmishdagi qahramonlarning ism-shariflari aytilmay, ular bilan bog'liq voqealar esga olinishi ham mumkin. Har ikki holda ham *talmeh* san'ati

---

<sup>292</sup>Алишер Навоий. Бадоеъ ул васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б. 99.

<sup>293</sup>O'sha asar. – B. 101.

<sup>294</sup>O'sha asar. – B. 63.

sodir bo‘ladi<sup>295</sup>. Manbalarda keltirilgan ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Navoiy talmeh san’atining har ikkala unsuridan samarali foydalangan. Masalan, quyidagi baytda Iso payg‘ambarga (islomiyatdan oldin o‘tgan Payg‘ambarlardan biri, nasroniylik dinining asoschisi) ishora qiladi, talmeh san’atining bu turi juda kam uchraydi:

Yetmasa gardi rahing ko‘hli bo‘lub **Ruhulloh**<sup>296</sup>

Iso (a) payg‘ambar  
laqabi

Ojiz aylar chog‘i xuffosh amosig‘a davo. (3-g‘azal, 4-bayt)

Aksariyat holatda talmeh san’ati qo‘llanilgan baytlarda tarixiy shaxslarning ismlari aniq keltiriladi:

Peshdodiylar  
sulolasining  
uchinchishi

Itlaring sing‘on safolidin Navoiy ichsa durd,  
Uldurur **Jamshidu** ilginda jahonbin jomi bor. (148-g‘azal, 9-  
bayt)

Jamshid peshdodiylar sulolasiga mansub uchinchi podshohnning nomi bo‘lib, Navoiy asarlarida qisqartirilgan holatda “Jam” deb ham yuritiladi: “Kishi Jamshid jomin sotqin olmaydur, baho aylab”, “Yo rab, ul Jamshid yo mayxona qalloshimudur”, “Tutay jahonda Sulaymon seni va yo Jamshid”, “Ulki Jamshid degay o‘zini xurshid kebi” misralar bilan talmeh san’atini yaratadi:

Xizr (a.)-  
mangu tirik  
payg‘ambar

Taxt-u johing kishvari mulki **Skandar** bo‘ldi, tut,  
**Xizr** umri ham bu mulk uzra muyassar bo‘ldi, tut.

Rumlik fotix  
Aleksandr  
Makedonskiy  
(Iskandar)

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”<sup>297</sup> dostonida Iskandar Zulqarnaynning mag‘lubiyat bilmas zafarli yurishlari haqida: “Borin tab’ bir jonib aylandurub, burung‘i borin tab’ ila yondurub” deya tavsiflar bitgan. “Badoye’ ul-vasat” devonida ham: “*Skandar chashmayi hayvong‘a muhtoj*”, “*Skandar ohi o ‘tidin*

<sup>295</sup> Assallayev A., Rahmonov V. Badiiy san’atlar. Lug‘at ma’lumotnoma. – Toshkent: Tafakkur, 2015. – B. 36.

<sup>296</sup> Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б. 63.

<sup>297</sup> Алишер Навоий. Хамсанинг бешинчи достони. Садди. Искандарий. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy (nazm).pdf. – Б. 2.

*yig‘ilg‘on dudi hirmondur”, “Xizr umri-yu Skandar hashmatidin ori bor”, “Labingdur jomi Jamshid-u yuzung mir’oti Iskandar”, “Bir dam etgil meni Iskandar-u Jam”, “Ki, na Jam qoldi-yu ne Iskandar”, “Yuz Skandarni sug‘a eltib, susiz kelturgasen”, “Gar Skandar mulki birla Xizr umri bersalar”, “Skandar obi hayvondin tamanno i muhol ichra”* kabi misralarda talmeh san’atini qo‘llab, ulardagi talqin bo‘yicha hikmat, valiylik, payg‘ambarlikni o‘zida mujassam etgan.

Navoiyning lirik va epik asarlarida Xizr (a.) haqida ham ma’lumotlar ko‘p uchraydi. *Yo‘q mening, balki Xizr birla Masiho joni, Xizr soldi soya go‘yo chashmai hayvon uza, Ey Xizr, hayvon suyi ichmakka bedor aylama, Kim, zuloli Xizr yetsa, zahr o‘lur qursog‘ima, Labing obi hayotin Xizri xatting no‘sh etar soat, Men solay ohim bila olamg‘a zulmat, ey Xizr, Ko‘rmagan Xizr suyining borishin, Rev-u rang ahli muridi bo‘lmag‘ilkim, Xizr emas* kabi misralar uchraydi. Xizr – diniy manbalarga ko‘ra, doimiy tirik payg‘ambar. Xizr so‘zi Qur’oni Karimda uchramaydi, ammo ko‘p tafsirlarda “Baqara” surasining 65-oyyatining<sup>298</sup> mazmunini Xizr (a.) hayotiga daxldor deb hisoblaydilar<sup>299</sup>. Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam”<sup>300</sup> (“Arab bo‘lmagan shohlar tarixi”) asarida: “Hazqil va Xizr alayhimussalom va Ilyos va Alyasa’ni ham debdurlar va Yunus alayhissalom debdurlar” deya Xizr a. haqida ma’lumot keltirsa, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida: Xizr (a.s.) maqdami barakotidin ul bolig‘ tirilib, talpinib o‘zin suvg‘a soldi. Muso (a.s.) Yuvsha’din ju’ daf’ig‘a nima tiladi ersa, Yuvsha’ (a.s.) aytti, zodni falon tosh ustida unutibmen”<sup>301</sup> mazmundagi ma’lumotni keltiradi. “Qissasi Rabg‘uziy”da keltririshicha, Xizr (a.) ning asl ismi *al-Yasa*<sup>302</sup> bo‘lib, bosgan izidan maysa ko‘karib chiqqani uchun uni Xizr (yashil) deb atashgan ekan.

---

<sup>298</sup> Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима (Алоуддин Мансур таржимаси). – Тошкент: Чўлпон, 1991. – 540 б.

<sup>299</sup> Алишер Навоий. Бадоев ул-васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б. 720.

<sup>300</sup> Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 8-jild. Tarixi muluki ajam. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013.– B. 608.

<sup>301</sup> Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 8-jild. Tarixi anbiyo va hukamo. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013.– B. 567.

<sup>302</sup> Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи. 1991. – Б. 68.

Navoiy she’riyatida Xizr obrazi mangulik ramzi, hayot timsoli, rahnamo-pir, darveshlik namunasi sifatida eng ko‘p qo‘llanilgan obrazdir. Ta’kidlash joizki, Navoiy bir qator an’anaviy obrazlarni qayta ishlab, ularning mohiyatini kuchaytiradi. Xizr va Masihga o‘xhash diniy yoki xayoliy obrazlardan foydalaniib, ularning asl mohiyatiga zid bo‘lgan yangi obrazlar yaratadi:

Ey, xatu jonbaxsh la’lingdin nishon Xizr-u Masih,  
Balki bu ikki uyotidin nihon Xizr-u Masih.

Bu baytda shoir, bir tomondan yorning xati (qosh-kipriklari) va la’li (labi) ni Xizr hamda Masihga o‘xshatsa, ikkinchi tomondan, yorning xati va la’lini Xizrga ham, Masihga ham qarama-qarshi qo‘yadi, insonga hayot bag‘ishlashda yor bilan tenglasha olmagan Xizr ham, Masih ham uyatda qolib g‘oyib bo‘lib ketdi, deydi<sup>303</sup>. Baytda *lab so‘zi la ’l so‘zi* bilan ifodalaniib, istiora san’atini vujudga keltirgan.

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda “Kavsar<sup>304</sup>” so‘ziga yigirma uch marta murojaat qilingan bo‘lib, bu so‘z moddiy va ma’naviy to‘qlik ma’nolarini ifodalaydi:

Peshdodiylar  
sulolasining  
uchinch  
podshohi shohi  
(Jamshid)

Bazmi ishqing bodasin **Kavsar** deyin yo **Salsabil**,  
Jomi **Jam**<sup>305</sup> ul jonfizo sahbog‘a sog‘ar bo‘ldi, tut.

Jannat bulog‘i

Alisher Navoiy MKga kiritilgan talmeh she’riy san’ati orqali keltirilgan tarixiy shaxslar, aziz avliyolar va tarixiy joylar, mashhur maskan nomlarining semantik teglanishi natijasida o‘quvchilarda moziydagi mashhur shaxslar, ilohiy kitoblarda keltirilgan payg‘ambarlar, to‘qima obrazlar, muqaddas qadamjolar, asar nomlari borasidagi bilimlari rivojlanadi.

Navoiy she’riy san’atlarga ikki xil munosabat bilan yondashadi:

<sup>303</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент. 1965. – Б. 402.

<sup>304</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 2-жилд – Тошкент: Фан. 1983-1985. – Б. 89.

<sup>305</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 1-жилд – Тошкент: Фан. 1983-1985. – Б. 584.

birinchidan, mazmunning hamma vaqt yetakchi ahamiyatga ega bo‘lishi lozimligi; ikkinchidan, badiiy kanon (tartib, nizom, qoida)ga nisbatan doimo ijodiy yondashish tamoyili<sup>306</sup>.

“Raddul-matla” atamasi birinchi marta Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-aikor fi sanoe’ ul-ash’or<sup>307</sup>” (1489) asarida tilga olinadi: raddul-matla’ so‘nggi davrdagilar bu amalni (ishni) san’atlar jumlasidan hisoblaganlar va u shundan iboratki, shoir matla’dagi misraning qofiyasini keyingi baytda keltiradi. Doiy Jovidning she’riy san’atlarga bag‘ishlab yozilgan asarida raddul-matla’ga bergen ta’rifi ilmiy jihatdan to‘liq hisoblanadi: Raddul-matla’ shuki, qasida va g‘azalning birinchi misrasini maqtada va she’rning oxirida takrorlaydilar<sup>308</sup>. Alisher Navoiy ijodida raddul-matla’ san’ati shoir g‘azallaridagi bosh g‘oya – fikr, xulosa yoki uning ayrim jihatlarini, yetakchi fikr, xulosaning yuzaga kelishi uchun turtki bo‘lgan asosiy sababga urg‘u qaratish va alohida ta’kidlash uchun xizmat qilgan<sup>309</sup>. “Badoye’ ul-vasat” devonida raddul-matla’ sakkiz o‘rinda yetti baytli g‘azallarda uchraydi<sup>310</sup>. Shoir g‘azallarida raddul-matla’ning ikki xil ko‘rinishidan foydalangan: Matla’dagi birinchi misra maqta’ning so‘nggi misrasida takrorlanib kelishiga va matla’dagi birinchi misraning ikkinchi bayt tarkibida qaytarilib kelishiga asoslangan turlari keng qo‘llanilgan<sup>311</sup>.

Otashin gul bargidin xil’atki jononimdadur,  
Xil’at ermas, ul bir o‘tdurkim, mening jonimdadur.  
Otashin la’lidururkim, anda muzmar bo‘ldi jon,  
Otashin gulbargidan xil’atki jononimdadur. (194-g‘azal).

Ushbu g‘azalda shoirning maqsadi yorning “otashin gul bargidin” tikilgan libosini mubolag‘ali ravishda tasvirlash va uning oshiqlar holatiga ta’sirini

<sup>306</sup> Исоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 167.

<sup>307</sup> Хусайн Воиз Кошифий. Бадое ул-аикор фи саноэй ул-ашъор. 1489.

<sup>308</sup> Доий Жовид. Зебоихон сухан ё илми бадъ дар забони форси. Исфахон, 1956. – Б. 90.

<sup>309</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – Б. 409.

<sup>310</sup> Исоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 144.

<sup>311</sup> O’sha asar. – Б. 134.

ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, shoir bunda g‘oyaviy niyatiga erishish uchun yana boshqa san’atlar: tashbih va ruju’ san’atlaridan ham mohirlik bilan foydalanadi. Agar birinchi misrada yorning libosi *cho ‘g‘dek qizil gul bargiga* o‘xshatilgan bo‘lsa, ikkinchi misrada shoir ruju’ vositasida ushbu fikrini rad etib, undan ham kuchliroq va mubolag‘aliroq tashbihni keltiradi: yorning egnidagi xil’at bu libos emas, balki oshiqning *joniga tushgan o‘t* – alangadir. Keyingi misrada tasvir yanada yuqori pog‘onaga ko‘tariladi: yor egnidagi libos bu *cho ‘g‘dek la ‘l* bo‘lib, uning ichiga jon (*yor vujudi*) yashiringan. Shunga bog‘liq holda to‘rtinchi misra ushbu fikrni yana bir bor ta’kidlayotgandek tasavvur uyg‘otadi<sup>312</sup>. Navbatdagi bayt:

Gar alamimg‘a chora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay,  
Var g‘amima shumora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.  
Ranjima yo‘q esa adadi xost bu ersa naylayin,  
Dardima gar kanora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay. (616-  
g‘azal).

Birinchi baytda oshiq chekayotgan iztiroblarning chorasi yo‘qligini, u tortayotgan hasratlar cheksizligini aytmoqda va iztirobli ko‘ngilga taskin berib, “bo‘lmasa, bo‘lmasin” deya taqdiriga bitilganlarga tan bermoqda. Ikkinci baytda lirik qahramon azoblarining adadi (son-sanog‘i) yo‘qligini aytib, uning azob chekishini o‘sha yori istagandan keyin o‘zining qo‘lidan nima ham kelishini ta’kidlamoqda, tortayotgan dardlaridan uzoqlashib ham bo‘lmasligi sababli yana “qiynalmaslikning iloji bo‘lmasa bo‘lmasin, men nima ham qila olardim” deya qayg‘uli ahvolini bayon etadi.

### **Uchinchi bob bo‘yicha xulosa**

1. Alisher Navoiy MKni yaratishda dunyoga mashhur mualliflik korpuslarining umumiyl tuzilishi, interfeysi, ruknlari, foydalanish imkoniyatlari,

---

<sup>312</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – B. 410.

ma'lumotlarni avtomatik belgilash, dasturlash, so'zshakllarni teglash xususiyatlari, korpus hajmi, tarkibi hamda korpuslarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatiga tayanish samarali natijani beradi.

2. Alisher Navoiy "Badoye' ul-vasat" devoni g'azallari asosida MK tarkibiy qism (ruknlarining to'g'ri, mazmunan ketma-ketlikda joylashtirilishi, korpusning umumiyligi mohiyati, materiali, korpus materialini teglash hal qiluvchi omillar bo'lganligi uchun Alisher Navoiy korpusini tuzishning muhim bosqichlari korpus interfeysini loyihalash, korpusga material tanlash va uni qayta ishlash, korpusni teglash tamoyillarini ishlab chiqish, morfologik, semantik, grammatik, sintaktik teglarni modellashtirish va dasturiy ta'minot yaratishdan iborat bo'ldi.

3. Alisher Navoiy g'azallarida she'riy san'atlar turlarini mohirona tarzda qo'llaganligi "Badoye' ul-vasat" devonidagi g'azallar misolida tahliliy asoslanishi hamda korpus bazasiga kiritilishi o'quvchilar, talabalar, abituriyentlar va korpusning boshqa foydalanuvchilari uchun zaruriy axborot manbayi bo'lib xizmat qiladi hamda MKning mazmunan kengayishini ta'minlaydi.

4. Interfeys – bu korpus haqidagi birinchi taassurot hisoblanib, uning mukammalligini, o'ziga xos dizaynda yaratishini ta'minlash korpus tuzuvchining kasbiy mahoratiga bog'liq. Alisher Navoiy MK interfeysini tuzishda milliy va shu bilan birga, zamonaviy xususiyatlarni ham hisobga olish muhim.

5. Yaratilgan mualliflik korpuslari Alisher Navoiy MKni yaratish uchun metodologik manba vazifasini bajarib, Alisher Navoiy MKni yaratish konsepsiysi ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. "Badoye' ul-vasat" devoni g'azallarining semantik teglari bazasi ayni damda izohtalab so'z va so'z birikmasini, keyinchalik esa, ularning grammatik izohlari, leksik xususiyati (ma'nodosh, shakldosh, o'zakdosh)lari, barcha g'azallar uchun umumiyligi chaptotani o'z ichiga qamrab oladi.

7. Alisher Navoiy MKning ta'limiy ahamiyatidan biri Navoiy g'azallarida uchragan tarixiy, adabiy, mifik shaxslar, geografik va etnik joy nomlari ishtirok

etgan baytlar tahlil etilib, ular talmeh she'riy san'atining yuzaga kelishi bilan dalillansa, tarixiy ahamiyati jihatidan foydalanuvchi tarixiy, badiiy shaxslar va geografik, etnik joy nomlari haqida ham ma'lumotga ega bo'ladi.

## XULOSALAR

1. MK muayyan muallif asarlari majmui bo'lib, unda qidiruv tizimiga ega korpus menejerining mavjud bo'lishi, matnlarning qayta ishlanganligi, matnlar asosida statistik ma'lumotlarning taqdim etilishi, asarlarining metama'lumotlarga egaligi bilan boshqa turdagи elektron tizimlardan farqlanadi.

2. Mualliflik korpuslarini yaratish va rivojlantirish zamonaviy korpus lingvistikasining eng ilg'or yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki hozirda jahonda mualliflik korpuslarini yaratish va qo'llash ijtimoiy talabga aylanib bormoqda va uning ta'limiy ahamiyati oshmoqda.

3. Mualliflik korpuslari tadqiqotchilar uchun eng qulay axborot manbayi hisoblanib, nazariy hamda amaliy tilshunoslikning uzviy va muhim qismiga aylanib ulgurdi. Tilning ming yilliklarga daxldor betakror milliy merosidan yosh avlodni bahramand etish, ularni milliy qadriyatlarga, jumladan, o'z ona tiliga hurmat va qiziqish ruhida tarbiyalashda Alisher Navoiy MKning o'rni beqiyosdir.

4. Alisher Navoiy MKda Navoiy davri tilini tushunish, XV arsga oid mumtoz manbalarning kitobxonlarini oshirish maqsadida Navoiy asarlaridagi izohtalab so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi semantik izohini foydalanuvchilarga qulay tarzda taqdim etish maqsadida Navoiy qalamiga mansub asarlarni grammatik va semantik teglash muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, umumta'lim, kasb-hunar maktablarida, oliy ta'lim dargohlarida uzuksiz ravishda o'rganilishi Alisher Navoiy MKni yaratish zaruratini ko'rsatadi.

6. Ingliz tilidagi Shekspir va fors tojik adabiyoti namoyandalari matnlarining elektron majmui hamda rus tilidagi A.Pushkin, M.Dostoyevskiy, A.Chexov mualliflik korpuslari bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar Alisher Navoiy MKni yaratish texnologiyasi ishlab chiqishda va korpus imkoniyatlarini oshirishda metodologik manba vazifasini o'taydi.

7. Alisher Navoiyning "Badoye' ul-vasat" devonidagi g'azallarni tahlil qilish jarayonida bir so'zning o'nlab ma'nolarda kelishini o'zbek tili

imkoniyatilarining keng ko‘lamli ekanligini dalillaydi. Devonda uchraydigan *ahl*, *dahr*, *mehr*, *la'l*, *lutf*, *quyosh*, *jins*, *jism*, *jola*, *jom*, *jon*, *bahra*, *mavzun*, *majma'*, *mezon*, *misol*, *nazar*, *nasm*, *na'l*, *naql*, *no'sh*, *naqsh*, *nesh*, *nigor*, *ovuch*, *oy*, *oyin*, *savod*, *sarv*, *safo*, *safha*, *saqat*, *sipah* kabi polisemantik so‘zlarning kontekstual izohini korpusda taqdim etish o‘quvchilarga mumtoz adabiyotimizning nodir durdonalarini anglashlariga yordam beradi.

8. Muayyan so‘z Alisher Navoiy MKda qidiruvga berilganida uning Navoiy asarlarida qo‘llanilish o‘rni, kontekstual ma’nosи, umumiyl foydalanish statistikasi, so‘z qo‘llangan manba haqidagi metama’lumot taqdim etiladi. Bunday imkoniyat ilmiy tadqiqot va ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

9. Alisher Navoiy MKning semantik teglari bazasidan “Badoye’ ul-vasat” devonida mavjud g‘azallardagi 21930 ta (bir asosning boshqa shakllari bilan) izohtalab so‘z, 5 mingdan ortiq arxaizm, 170 istorizm, 43 ta maqol, 30 ta ibora, 236 ta talmeh san’atiga oid so‘zlar, 164 ta zid ma’noli so‘zlar (tazod), 806 ta tanosub, 124 ta tashbih she’riy san’atiga oid leksik birliklarning o‘rin olishi korpusning dolzarbligini belgilaydi.

10. Alisher Navoiy MKning yaratilishi mumtoz asarlarda qo‘llanilgan so‘zlardan ta’lim tizimida samarali foydalanish, o‘zbek xalqining XV asrga oid milliy-adabiy merosini raqamli texnologiyaga kiritish, asrlar davomida yashab kelayotgan davlat tilining formal shaklini yaratish, lingvistik tarjimon va matnlarni tahlil qilish dasturlari, Alisher Navoiy asarlari parallel korpusini yaratish imkoniyatlarini beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:**

**1.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони (<https://lex.uz/docs/4561730>)

**2.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6048-сон Фармони. (<https://lex.uz/ru/docs/5058351>)

**3.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4996-сон Қарори ва “Рақамли Ўзбекистон – 2030” Стратегияси (<https://lex.uz/docs/5297046>)

**4.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. (<https://lex.uz/uz/docs/-5841063>)

**5.** Xalq ta’limi vazirligining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2021–2022-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 297-sonli buyrug‘i. 2020-yil, 9-dekabr.

**6.** Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

**7.** Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 168-174.

## **II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar**

### **1) Milliy nashrlar**

**8.** Abjalova M. O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiysi. [Matn] monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2022 (qayta nashri). – 212 b.

**9.** Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: [Matn] monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b.

**10.** Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – 97 b.

**11.** Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008. – 530 b.

**12.** Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Noshir, 2011. – 316 b.

**13.** Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2008. – Б. 235.

**14.** Исоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 167 б.

**15.** Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 162 б.

**16.** Ochilov E. Navoiy hikmatlari. – Toshkent: O‘zbekiston. 2011. – 407 b.

**17.** Olimov F. Fazilatlar sohibi-Sayyid Hasan. –T., 2021. – 161 b.

**18.** Pirmatov A., Qurbanova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Urganch: 2019. – 78 b.

- 19.** Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar. – Toshkent: Sharq, 2014. – 272 b.
- 20.** Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Buxoro, 2009. – B. 60.
- 21.** Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 160 b.
- 22.** Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent: Universitet, 2006. – 476 b.
- 23.** Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – 224 b.
- 24.** Rasulov N. She’r san’atlari. O‘quv qo‘llanma. 2017. – 12 b.
- 25.** Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. 1-kitob. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – 519 b.
- 26.** Tursunov U. va b. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 261 b.
- 27.** Vohidov R., Ehsonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2006. – 528 b.
- 28.** Xo‘jayev T. Navoiy davri hayotini anglashga doir ba’zi mulohazalar. – T., 2021. – B. 52.
- 29.** Абдураҳмонов F., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984. – 160 б.
- 30.** Болтабоев X. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон. 2008. – 340 б.
- 31.** Қурбонбеков А., Маннонов А., Имомназаров М. Алишер Навоий асарлари бўйича конкорданс тузиш қўлланмаси. – Т.: Фан ва технология, 2015. – 108 б.
- 32.** Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент, 1965. – 659 б.

- 33.** Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – 91 б.
- 34.** Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.
- 35.** Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. – Тошкент: Университет, 2002. – 662 б.
- 36.** Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.
- 37.** Турсунов У. ва б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 261 б.
- 38.** Иброҳим Ҳ. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007. – 33 б.
- 39.** Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Монография. – Тошкент, 2020. – 223 б.
- 40.** Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Т.: Akademnashr, 2013. – 217 б.

## **2) Xorijiy nashrlar**

- 41.** Богоявленская Ю.В. Сопоставительный объектно-ориентированный корпус: определение понятия и принципы формирования. Уральский государственный педагогический университет, Екатеринбург, Россия. УДК: 81'42(045). – 204 с.
- 42.** Черняк Е.В. Пять столетий тайной войны. – М.: Международные отношения, 1985. – 560 с.
- 43.** Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. – Ташкент, 1965. – 366 с.
- 44.** Mcenery T., Hardy A. Corpus linguistics. Method, theory and practice. Cambridge, 2011. – 296 p.
- 45.** Mcenery T., Wilson A. Corpus Linguistics. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2nd edition, 2001. – 335 p.

**46.** Шенбаум С. Шекспир. Краткая документальная биография. – М.: Прогресс, 1985. – 368 р.

**47.** Виноградов В.В. 1) О языке художественной литературы, Москва 1959; 2) Проблема авторства и теория стилей. – Москва, 1961; 3) “Из анонимного фельетонного наследия Достоевского”. В кн.: Виноградов В.В. Исследования по поэтике и стилистике. – Ленинград, 1972. – 231 с.

**48.** Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. Государственное издательство художественной литературы. – Москва, 1961. – 333 с.

**49.** Воспоминания о Ф.М. Достоевском (Биография) // Биография, письма и заметки из записной книжки Ф.М.Достоевского (там же: Миллер О.Ф. Материалы для жизнеописания Ф.М. Достоевского // Достоевский Ф. М. Полн. собр. соч. Т. 1. – СПб.: Типография А.С. Суворина, 1883. – 884 с.

**50.** Гроссман Л.П. Жизнь и труды Ф.М. Достоевского. Биография в датах и документах. – М.-Л.: Академия, 1935. – 445 с.

**51.** Заботкиной В.И. “Методы когнитивного анализа семантики слова компьютерно-корпусный подход” / Под. общ. ред. – Москва: Языки словянской культуры, 2015. – 344 с.

**52.** Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. – 234 с.

**53.** Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – СПб., 2005. – 48 с.

**54.** Кочетова Л. А. Статистические методы в корпусных исследованиях. Теоретические и прикладные аспекты корпусных исследований. (УДК 81'33(035.3) Сборник научных трудов. Волгоград. 2016. – 84с.

**55.** Кубрякова Е.С. Память и ее роль в исследовании речевой деятельности // Текст в коммуникации. – М.: Инс-т Языкоznания, 1991. – 71с.

**56.** Кукушкина О.В. и др. Частотный грамматико-семантический словарь языка художественных произведений А.П.Чехова с электронным приложением. – М., 2012. – 502 с.

**57.** Малов Е.С. Памятники древнетюркской письменности. – М. – Л., 1961. – 451 с.

**58.** Нечаева В.С. 1) Журнал М М. и Ф.М. Достоевских “Время”. 1861-1863. Москва, 1972; 2) Журнал М.М. и Ф.М. Достоевских “Эпоха”. 1864-1865. Москва. 1975.

**59.** Оскар фон Шульц. Светлый, жизнерадостный Достоевский. – Петрозаводск: Издательство Петрозаводского университета, 1999. ББК 83.3 (2=Рус) 5 -8 Ш 95.

**60.** Пиксанов Н.К. Творческая история “Горе от ума”. – Москва: Наука, 1971. – 400 с.

**61.** Поливанов Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков. Вып. 1. Происхождение и наименование узбеков. – Ташкент, 1925. – 31 с.

**62.** Поликарпов А.А. Корпусная информационно исследовательская система // Электронная энциклопедия языка: Вып. 1. Стихи и драмы А.С. Пушкина. Путеводитель по Пушкину. – М. 2006.  
<https://lex.philol.msu.ru/proekty/kiisa/>

**63.** Поликарпов А.А. Проблемы и перспективы автоматизации лексикологического и лексикографического анализа с помощью ЭВМ // Использование ЭВМ в лингвистических исследованиях. Киев: Наукова думка, 1990. – 180 с.

**64.** Словарь языка Достоевского. Идиоглоссарий. А-В/ Российской академии наук институт русского языка им В. В. Виноградова; гл. редактор

чл. корр. Караполов. М., 2008. Словарь языка Пушкина в четырех томах, создан в Институте русского языка АН СССР под ред. акад. В.В.Виноградова (издан в 1956–1961 гг.).

**65.** Тенишев Э.Р. Хозяйственные записи на древнеуйгурском языке // Исследования по грамматике и лексике тюрских языков. – Ташкент, 1965. – 386 с.

**66.** Уэллс S. Шекспировская энциклопедия. – М.: Радуга, 2002. – 270 с.

**67.** Черняк Е.В. Пять столетий тайной войны. – М.: Международные отношения, 1985. – 90 с.

**68.** Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. – Ташкент: Наука, 1965. – 330 с.

**69.** Шайкевич А.Ю. Введение в лингвистику. Учебное пособие. – М.: Академия, 2005. – 394 с. ISBN 5-7695-0930 -9.

**70.** Шайкевич А.Я. Введение в лингвистику. Учебное. 2-е изд., испр. – М.: Академия, 2010. – 394 с. ISBN 978-5-7695-5829-0. 4545

**71.** Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюрksких текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана. М.– Л., 1961. – 204 с.

### **III. Diniy manbalar, adabiyotlar**

**72.** Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима (Алоуддин Мансур таржимаси). – Тошкент: Чўлпон, 1991. – 540 б.

### **IV. Lug‘atlar**

**73.** Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 4 жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985.

**74.** Assallayev A., Rahmonov V. Badiiy san’atlar. Lug‘at ma’lumotnoma. – Toshkent: Tafakkur, 2015. – 24 b.

- 75.** Berdak Yu. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. Toshkent: Sharq, 2010. – 527 б.
- 76.** Бердак Ю. Навоий тили лугати. 1 жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 496 б.
- 77.** Дадабоев X. Тарихий ҳарбий терминлар лугати. – Тошкент: Университет, 2007. 132 б.
- 78.** Фозилов Э. Алишер Навоий асарлари лугати. 1-ж. – Тошкент: Нисо полиграф, 2013. – 1006 б.
- 79.** Мұхаммад X. Алишер Навоий асарлари лугати. – Тошкент: Академнашр. 2017. – 415 б.
- 80.** Шамсиев Р., Иброҳимов С. Навоий асарлари лугати. – Тошкент: Faafur Fулом, 1972. – 784 б.
- 81.** O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 2-jild. (XV asrning ikkinchi yarmi). – T.: Fan, 1977.
- 82.** Ўзбек тилининг изоҳли лугати. А. Мадвалиев таҳрири остида. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
- 83.** Фалсафа. Кисқача изоҳли лугат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 18 б.

#### **V. Badiiy adabiyotlar**

- 84.** Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.– Б. 63.
- 85.** Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. [www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz) кутубхонаси. – Б. 71.
- 86.** Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. [Alisher Nasoimul muhabbat.pdf](http://Alisher%20Nasoimul%20muhabbat.pdf), 2008 – Б. 187.
- 87.** Алишер Навоий. Бадоев ул- васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б. 721.

- 88.** Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. 1-4-жиллар. – Тошкент: Фан, 1959-1960.
- 89.** Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 110 б.
- 90.** Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – 269 б.
- 91.** Шайхзода М. Асарлар. 4-том. – Тошкент, 1972. – Б. 205.

#### **V. Dissertatsiya va avtoreferatlar**

- 92.** Абдуллаева О. Ўзбек тилининг интернет ахборот матнлари корпусини шакллантиришнинг назарий ва амалий асослари. Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. афтореф. – Тошкент, 2022. – 54 б.
- 93.** Абдурахмонова Н. Электрон корпусларнинг компьютер моделлари: Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 74 б.
- 94.** Ahmedova D. Atov birliklarini o‘zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Buxoro, 2020. – 156 b.
- 95.** Элова Д. Ўзбек тили корпуси бирликларининг услубий тегларини яратиш тамойиллари ва лингвистик таъминот. Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. афтореф. – Тошкент, 2022. – 65 б.
- 96.** Eshmo‘minov A.A. O‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Qarshi, 2019.– 140 b.
- 97.** Raxmanova A. O‘zbek tili Milliy korpusini yaratishda kompyuter usullari: Filol.fan.bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Farg‘ona, 2022. – 52 b.
- 98.** Xamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari (Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi asosida): Filol.fan.bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Qarshi, 2018. – 250 b.

**99.** Холиёров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. автореф. – Термиз, 2021. – 53 б.

**100.** Осмоловская Б., Конструкции А.А. С “Дативным субъектом” (опыт корпусного исследования на материале русского языка): Автореф. канд. дис. филол. наук. – М., 2003. – С. 30.

## **VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar**

**101.** Волков С., Герд А., Гринбаум Н., Захаров П., Муратов А., Панков И. Корпус текстов как особый тип лингвистической электронной библиотеки / Словарь русского языка XIX века. Проблемы. Исследования. Перспективы. СПб: Наука, 2003. – С. 223-226.

**102.** Jonathan B. Grammar G. // Soul of the Age: the life, mind and world of William Shakespeare. – London: Viking, 2008. – ISBN 978-0-670-91482-1.

**103.** Khamroeva Sh. “International Conference on Science and Education: Problems, Solutions and Perspectives” (3<sup>rd</sup> June, 2019)The author’s lexicography and author’s corpus approach.

**104.** Koder – A multi-register corpus for investigating register variation in contemporary German. ISSN 2243-4712. Asociación Española de Lingüística de Corpus (AELINCO) DOI 10.32714/ricl.07.04. – P. 69-83.

**105.** Raupova L., Elov B., Abjalova M., Alayev R. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi va uning imkoniyatlari. // O‘zbekistonda til va madaniyat. – Toshkent: ToshDo‘TAU, 4/2021. – B. 60-75.

**106.** Saidov A. Vilyam Shekspir va 57 nomzod // Jahon adabiyoti jurnali, 2010, 4-сон. – B. 3-7.

**107.** Sebastiani Machine learning in automated text categorization. Association for Computing Machinery (ACM) Computing Surveys, 2002. – 34 (1): P. – 47.

**108.** Сироткина Т.А. Рус тилининг миллий корпуси этнонимик лугат яратиш учун материал сифатида. // Рус тилининг миллий корпуси ва гуманитар таълим муаммолари. – М.: Наука, 2007. – 159 б.

**109.** Sultonmurod O. Navoiy qanday mutolaa qilgan. Tafakkur, 2017, 2-son. – B. 54-61.

**110.** Toirova G. Importance of Interface in Creating Corpus. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE). ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. <https://www.opensourceshakespeare.org/> – B. 552-555.

**111.** Valiyev T. Kibernetik leksikografiya va til korpusiga doir muammolarga doir Ilmiy axborotnama. ISSN 2091-5446 2016. 2-son (96) – Б. 67-70.

**112.** Абжалова М. Синонимайзер (сионимизатор) в образовательной корпусе узбекского языка // TurkLang – 2021: Turkiy tillarni kompyuterda qayta ishslash IX xalqaro konferensiyasi.

